

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

MAGISTRATURA BO'LIMI

УДК: 821512

RAHIMOVA SHODIYA SHUXRAT QIZI

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA
“BAHUVRIHI”NING QIYOSIY O'RGANILISHI**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Magistr darajasini olish uchun

5A 120102 – Filologiya va tillarni o'qitish

Ilmiy rahbar:

f.f.n., prof. Jumaniyozov A.J.

Magistrant:

Rahimova Sh. Sh.

Urganch-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	7
1.1.O'zbek tilida so'z yasashida qo'shma so'zlarning xususiyatlari	9
1.2. O'zbek tilida qo'shma so'zlar yasashi va bu borada ayrim munozaralar hamda mulohazalar.....	15
1.3. Ingliz tilida qo'shma so'zlarning yasashi va ularning muloqotdagi roli	20
1.4. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlarning yasashida o'xshash va farqli tomonlar	28
II BOB: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BAHUVRIHILAR.....	32
2.1. Dunyo tilshunosligida "bahuvrihilarining o'rganilishi va ular izohiga turli xil yondashuvlar.....	33
2.2. Ingliz tilida "bahuvrihi"lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari....	41
2.3.O'zbek tilida "bahuvrihi"lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari.....	46
III BOB: BAHUVRIHILAR VA ULARNING TURLARI.....	50
3.1. Inson qiyofasiga monandlik asosida yasalgan bahuvrihilar.....	50
3.2. Inson xarakterini ifodalovchi yoxud uni farqllovchi bahuvrihilar.....	60
3.3. Kasb – kor bilan bog'liq bo'lgan bahuvrihilar.....	68
3.4. Affiksoidlar bilan yasalgan bahuvrihilar. "Xo'r" affiksoidi bilan yasalgan bahuvrihilar.....	71
3.4.1. "Go'y" affiksoidli bahuvrihilar.....	74
3.4.2. "Parvar" affiksoidi bilan yasalgan bahuvrihilar.....	77
3.4.3. "Parast" affiksoidi bilan yasalgan bahuvrihilar.....	80
UMUMIY XULOSA.....	84
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	87

KIRISH

Ma'lumki, universumda- o'n sakkizming olamda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, shulardan biri bo'lmish yer yuzida kechayotgan yangilanishlarni, hayotimizdagi rang – baranglikni, ilm- fanning keskin rivojlanib borishini, ilmiy texnik revolyutsiya samaralarini, insoniyat tsivilizatsiyasining eng yuqori darajalarini, qisqa qilib aytganda inson hayotining barcha- barcha sohalaridagi olamshumul muvafaqqiyatlarini tilda va u orqali ifodalash uchun dunyo tillari lug'at tizimining keskin o'zgarishi, yangi- yangi til birliklarining yasaliishini taqozo qilayapti. Zero bashariyat o'z aqli va zakovati bilan qilgan kashfiyotlari, yasagan ixtirolari, topgan yangi narsalari, anglagan haligacha notanish hodisalari nomlanib borishi zarur. Buning uchun esa hali uchramagan so'zlarning yasaliishi, termin va atamalarning paydo bo'lishi, hali hayolimizga kelmagan favqulotda fikrlarni esa lisoniy ifodalash shart bo'ladi, u kundalik zaruratga aylanadi.

Mazkur jarayonning tilshunoslikda o'rganilishiga kelsak, u asosan ikki yo'nalishda, birinchisi har bir milliy tilning o'z ichki imkoniyatlaridan (introlingvistik faktorlar asosida), va ikkinchidan milliy tillarga chet tillarning ta'siri (ekstralingvistik faktorlar asosida) yuzaga keladi. Bunda tillar o'zaro so'z almashadilar, lug'at tizimlarini biri ikkinchisi hisobiga boyitadilar va so'z yasash va yasaliish qoida qonunlarida o'zaro foydalanadilar.

Shu ma'noda, mazkur magistrlik dissertatsiyamizda dunyoning ko'pchilik tillarida keng o'rganilgan va o'z vaqtida nomlanilgan, biroq milliy tilimiz bo'lmish o'zbek tilining tadqiqoti endi boshlanayotgan va hali to'la nomlanilib ulgurilmagan aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar- **bahuvrihilar** ilmiy o'rganilish obyekti qilib olindi va undan mazkur til hodisasi bir-biriga genetik qardosh bo'lmagan va territorial bir biridan uzoqda bo'lgan ikki til – ingliz va o'zbek tillari misolida tahlil qilinadi.

Magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligi shundaki, unda milliy tilimiz va uning ifoda qudratini ta'minlovchi vositalardan biri aniqlovchili qo'shma so'zlar keng o'rganiladi. Tilimizda hozirgacha nisbatan kam o'rganilgan aniqlovchili qo'shma so'zlar tahliliga mutlaqo boshqa nuqtayi nazardan turib yangi bir aspekt

asosida yondashiladi. Avvalo aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar yasalishiga ilmiy-tanqidiy yondashiladi, qo'shma so'zlarning milliy tilimizda qo'shib yoki ajratib yasalish imkoniyatlari mantiqan voqelikka zid ekanligi borasida shaxsiy fikr-mulohazalar bildiriladi va ular muayyan ma'noda asliy yoki ko'chma bo'lishi nazdida bir-birlaridan farqlaniladi. Ularning metonimik - ko'chim (majoziy istiyora) asosida yasalganlari ishning asosiy obyekti qilib olinadi va o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib bahuvrihilar atamasi ostida o'rganiladi. Bahuvrihilarining milliy tilimizdagi tabiati va mohiyati, ular orqali nomlanilayotgan narsa va hodisalarning rang-barangligi talqin qilinadi, yasalishlari va ma'no jihatlari jonli misollar asosida izohlaniladi va keng qiziquvchilar ommasiga tavsiya qilinadi. Ish dolzarbligini ta'kidlovchi omillardan yana biri shuki, milliy tilimizga g'amxo'rlik va uning nafaqat o'ziga xos ichki qonuniyatlarini o'rganish, balki uning chet tillari bilan aloqasi va o'zaro ta'sir munosabatlariga o'z vaqtida tilshunoslarimizning diqqatini qaratib borishlari zarurligini mamlakatimizda siyosat darajasiga chiqqanidir. Chunonchi, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov o'zlarining „Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarida shunday yozadilar: *„Маълумки, ўзликни англаш, миллий онг ва тафаккурнинг ифодаси, авлодлар ўртасидаги руҳий-маънавий боғлиқлик тил орқали намоён бўлади. Жамики эзгу фазилатлар инсон қалбига, аввало, она алласи, она тилининг бетакрор жозибаси билан сингади. Она тили — бу миллатнинг руҳидир.“* [1;83]. Yurtboshimiz mazkur masalar bo'yicha respublikamizda katta ishlar qilinganligi, biroq xalqimiz erishilgan marrada to'xtab qolmasligini alohida uqtirib ularni muayyan qaror va farmonlar bilan mustahkamlab bordi va shaxsiy nazorat ostiga oldi. Masalan, Prezidentimiz I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi 1875-son qaroriga muvofiq chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

“Hozirgi davrda chet tilini o'rganish va o'qitish katta e'tibor kasb etmoqda.

Bu, albatta, bejiz emas. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin

egallashga intilayotgan davlatimiz uchun chet tillarni mukammal bilish ning naqadar muhimligi mubolag'a emas, zero xalqimiz o'zining buyuk kelajagi chet ellik sheriklar bilan o'zaro bog'liq ekanini juda yaxshi biladi.... O'zbekiston jamiyatining milliy xususiyatlariga asoslangan va insoniyat qadr qimmatiga mos keluvchi, chet tilini tezroq o'rganish metodini ishlab chiqishimiz kerak"[2; 86]

Magistrlik dissertatsiyasining obykti va predmeti: Har bir maqsad va unga erishish uchun qilingan har bir ish muayyan mavzuga asoslanadi. Ilmiy ishlarda esa bu mavzu ko'pchilikka noma'lum bo'ladi. Noma'lumlik tadqiqotchi ko'zlagan predmet (subyekt) va uning obykti bo'lishini taqozo qiladi. Mavzu doirasidan kelib chiqqan holda magistrlik dissertatsiyasining predmeti deb attributiv qo'shma so'z(bahuvrihi)lar, ularning qo'llanilish o'рни va morfologik, semantik jihatlari, oddiy qo'shma so'zlardan farqli tomonlarini ko'rsatsak, obykti sifatida o'zbek tilining izohli lug'ati va o'z ichiga bahuvrihilarni qamrab olgan nasriy va nazmiy ijod namunalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu nafaqat bahuvrihining tabiati masalasiga, balki uning tilimiz uchun hali yangilik kasb etishiga ham bevosita aloqador ish hisoblanadi. Shu boisdan ishning qimmatini yana bir bor ancha yuqori ekanligini ta'kidlab o'tishning hojati yo'q, deb o'ylaymiz.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Milliy tilimizdan aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar- bahuvrihilarning son va sifati (kvantitativ va kvalitatif) bilan qiziqish, jonli tilimiz va lug'atlarda izlab topish va qayd qilish;
2. Yig'ilgan bahuvrihilarni morfologik va semantik tahlil qilish va ularning ayrimlarini yasash va ma'no jihatdan ingliz tilidagi bahuvrihilar bilan qiyoslash, farqli va o'xshash tomonlarini ko'rsatish;
3. Yig'ilgan bahuvrihilar lug'atini tuzish, magistrlik dissertatsiyasi va lug'at asosida ilmiy-uslubiy qo'llanma yaratish.

Magistrlik dissertatsiyasining oldiga qo'yilgan vazifalar bo'yicha quyidagi ishlar qilindi:

O'z- o'zidan tushunarlik, yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish va bu borada muvaffaqiyat qozonish uchun muayyan o'y va fikr-mulohazalar zarur. Buning uchun, avvalo, konkret vazifalarni belgilash va aniq reja tuzish kerak.

Bular bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Bahuvrihi leksikologik vositasi borasida ilmiy- amaliy ma'lumot yig'ish, o'zbek va bu boradagi chet (Yevropa) tilshunoslari fikrlarini o'rganish;
2. Milliy tilimizda – asosan „O'zbek tili izohli lug'ati“ da qayd qilingan bahuvrihilar bilan tanishish, ularning kartotekasini tuzish, ish davomida jonli so'zlashuv tilimizga ham e'tibor berish, unda uchragan bahuvrihildan ishda foydalanish;
3. Milliy tilimizdagi qo'shma so'zlar va so'z birikmalarini farqlab o'rganish, ular haqidagi fikr- mulohazalarga ijodiy-tanqidiy yondashish.

Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosi: ushbu ishda induktiv, statistik va tahlil metodlaridan foydalanildi. „O'zbek tili izohli lug'ati“ larining ikki jildlik(1980) va besh jildlik(2006) nashrlaridagi bahuvrihilar, qisman jonli tilimizdan va ular ishtirokida matn misollar to'planilib, ular morfologik va semantik jihatdan tahlil qilindi. Bahuvrihilarni topish, yig'ish, klassifikatsiya qilish ishlarida tilshunoslikda shu paytgacha qilingan nazariy ma'lumotlarga asoslanildi, masalaga deduktiv yondashildi va yig'ilgan bahuvrihilarining morfologik, sintaktik va semantik tahlilida induktiv metoddan foydalanildi, oddiydan murakkab tomon yurildi, xususiylikdan umumiylikka o'tildi va amaliy misollarga tayanib shaxsiy(nazariy) fikr- mulohazalar bildirildi.

Magistrlik dissertatsiyasining yangiligi: Ishdagi asosiy yangilik milliy tilimizning lug'at tizimi tarkibiy qismlaridan bo'lgan qo'shma so'zlar- ayniqsa attributiv qo'shma so'zlarga mutlaqo boshqa aspektdan turib qarash, umumholda qo'shma so'zlarning o'rganilishiga, dunyo tilshunosligi nuqtai nazaridan turib va ular ta'limotini dastur-ul amal qilib, qo'shma so'zlarning o'zbek tilida klassifikatsiyasi va differentsatsiyasi masalasiga ilmiy-tanqidiy yondashib, qo'shma so'zlar haqidagi nazariy ta'limotlarni yanada oydinlashtirish va iloji boricha, baholi-qudrat konkretlashtirishga harakat qilindi. Tadqiqot jarayonida milliy

tilimiz uchun nisbatan yangi atamalar, *aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar* va *bahuvrihi* atamalarini birinchilardan bo'lib qo'llanilishi va ularning tasniflanishini ham yangilik deb aytish mumkin. Binobarin, aniqlovchili attributiv qo'shma so'zlar va bahuvrihi atamaları (termin) lari mamlakatimiz universitetlarining chet tillari fakultetlari talabalariga o'zlari o'rganayotgan tillar(nemis, ingliz, fransuz, rus va b) orqali muayyan ma'noda ma'lum bo'lsada, o'zbek tili ixtisosligi talabalari uchun nisbatan hali notanish edi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasida yuqorida yangi deb nomlanayotgan atamalar haqida nafaqat ilmiy ma'lumotlar berildi, balki ular tilimizning ifoda qudratini oshiruvchi muhim leksikologik vosita ekanligi konkret misollar asosida talqin qilindi. Bahuvrihi haqidagi dastlabki fikr-mulohazalar va ular haqida mazkur dissertatsiyaning yozilish jarayoni davridagi tasavvur, tushuncha, o'y va shaxsiy xulosalar shu paytgacha chop qilingan 9 ilmiy-ommaviy maqola hamda bir o'quv-uslubiy qo'llanmada qiziquvchilarga tanishtirib borildi.

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibi: Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, asosiy qism, uch bob, o'n to'rt fasl, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlaridan tarkib topgan.

I BOB. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLAR VA ULARNING O'RGANILISHI

Mazkur mavzu haqida so'z yuritishimizni boshidanoq shu narsani alohida ta'kidlashni joiz topgan bo'lar edikki, qo'shma so'zlarga o'zbek va ingliz tillarida avvaldan qiziqib kelingan va bu ikki til tilshunoslari tomonidan keng va bafurja o'rganilgan. Ayniqsa ingliz tili (**Laurie Bauer** "English Exocentric Compounds", Victoria University of Wellington; **Antonietta Bisetto and Sergio Scalise** The classification of compounds; **Adams**, Valerie 2001, Complex Words in English, Harlow: Longman;) mutaxassislari qo'shma so'zlarning klassifikatsiyasi va differentsatsiyasi, ya'ni ularni farqli o'rganish, guruhlariga bo'linish imkoniyatlari va o'zaro o'xshash tomonlarini belgilab hamda ajratib o'rganilishiga jiddiyroq e'tibor qaratishgan. Bu borada nemis (**Lieber, Rochelle & Pavol Štekauer**, The Oxford Handbook of Compounding, eds. 2009. Oxford: Oxford University Press; **Kortmann, Bernd**: English Linguistics: Essentials, Cornelsen, Berlin -2005; **A.Iskos, A. Lenkova**, "Deutsche Lexikologie", Leningrad- 1970) rus, (**B.B.Виноградов**, Словообразование и его отношение к грамматике и лексикологии. Сб. «Вопросы теории и истории языка.» изд. АН СССР, М 1952; **В.В.Виноградов**, Словообразование имен существительных. «Грамматика русского языка», т. I, изд. Института языкознания АН СССР, 1952 (изд. 2-е, 1960) ; **Г.О.Винокур**. О некоторых явлениях словообразования в русский технический терминологии. «Труды Моск. Ин-та истории, философии и лит-ры», т. V. Сб. статей по языковедению. М., 1939; **Кубрякова Е. С** О типах морфологической членимости слов, квази морфах и маркерах. В «Вопросы языкознания» 1970; **Кубрякова Е. С.**, Что такое словообразование. Москва, 1965) italian, fransuz, ingliz tilshunoslarining ahamiyatga loyiq ishlarini ham ta'kidlab o'tish lozim. Endi qo'shma so'zlarning o'zbek tilida o'rganilishiga kelsak, qo'shma so'zlar haqida bildirilgan fikr-mulohazalarning ayrimlari e'tirozli, hatto qusurlar ham bor. Bu kamchiliklar ayniqsa biz dissertatsiyamizda o'rganayotganimiz aniqlovchili(attributiv) qo'shma so'zlar bilan yaqindan bog'liq. Nainki, haligacha o'zbek tilshunosligida ayrim

soʻz birikmalari bilan qoʻshma soʻzlarning farqli tomonlari yaqqol ochib berilmagan. Ayniqsa, ularning imlosida (qoʻshib va ajratib yozishda), morfologiyasida (qurilishida va semantikasida (maʼno-mazmunlarida) farq borligi va ularni farqlanib oʻrganilishi lozimligi koʻrsatilmagan. Chunonchi oʻzbek tili izohli lugʻatlarining ikki jildli va besh jildli nashrlarida, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, **Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov; I** qism, Toshkent “ Oʻqituvchi”,1989; **A. Baxranov, B. Shamsiyev**, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili: repetitor va abituriyentlar uchun uslubiy qoʻllanma”. – Toshkent- 2016; **A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh, Yusupova**, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, Toshkent- 1995.; **Baxtiyor Mengliyev, Oʻral Xoliyorov, Nilufar Abdurahmonova**, “Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma”, Nazariy maʼlumot asosiy tushuncha lugʻat, 5-nashr, Toshkent: “Akademnashr”-2016 ; **E. Qilichev**, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili: oʻzbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi uchun qoʻllanma – Buxoro, 2005; **H. Jamolxonov**, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, “Talqin”, Toshkent - 2005- 138b.; **H.Neʼmatov, R. Rasulov**, “Oʻzbek tili sistem leksiklogiyasi asoslari”, Toshkent: “Oʻqituvchi” – 1995; **Nargiza Erkaboyeva**, “Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami”, Toshkent: “Akademnashr”- 2015; **R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z.Yunusova, M. Abuzalova**, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, Toshkent- 2009.; **Gʻ. Abdurahmonov, S. Mamajonov.**, “Oʻzbek tili va adabiyoti” va boshqa adabiyotlarda (*soʻzboshi, ogʻiroyoq, choʻrtkesar va boshqalar*) ning qaysisi orfografik toʻgʻri yozilgan va qaysisining maʼnosi qanday tushunilishi kerakligi farqlab berilmagan. Shu maʼnoda, ilmiy ishimizning muayyan bob va fasllarida bu borada dunyoning yetakchi tilshunoslari bilan bir qatorda oʻzimizning ham ayrim shaxsiy fikr- mulohazalarimizni bildirishga harakat qilamiz.

1.1. O'zbek tilida so'z yasashida qo'shma so'zlarning xususiyatlari

Ma'lumki, har qanday milliy tilning lug'at tizimining boyishida so'z yasash asosiy omillardan biridir. Bunda ko'pincha til tarkibida azaldan mavjud so'zlar bilan bog'liq holda yangi so'zlar yasalishi tushuniladi. Shu ma'noda, o'zbek tilida so'z yasash usullariga to'xtaladigan bo'lsak, uning o'zbek tilida bir necha usuli bor:

1) **semantik usul;**

2) **fonetik usul;**

3) **sintak-leksik usul;**

4) **affiksatsiya usuli;**

5) **kompozitsiya usuli.**

Semantik usul bilan so'z yasashida tilda bor bo'lgan so'z (so'z formasi) ning ma'nosi o'zgarishi natijasida yangi so'z hosil bo'ladi: **kun** (*sutkaning yorug' qismi*) – **kun** (*quyosh, planeta*), boshda (o'rin-payt kelishigidagi otdan yuzaga kelgan ravish), **kechasi** (egalik formasidagi otdan yuzaga kelgan ravish) va b.

O'zbek tilida **fonetik** o'zgarish (*tovush o'zgarishi*) natijasida hosil bo'lgan so'zlar ham anchagina: *ko'r – ko'z, bo'r – bo'z* kabi. Bunday yo'l bilan so'z hosil bo'lishi **fonetik usul** bilan so'z yasalishi deyiladi.

Sintaktik-leksik usul bilan so'z yasalishi deganda so'z birikmasining so'zga aylanishi tushuniladi. Vaqtlar o'tishi bilan ma'lum tipdagi so'z birikmalari **bir so'zga** aylanishi mumkin. Bunda so'z birikmasi bir ma'no – leksik ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi, birikma komponentlari orasidagi sintaktik aloqa yo'qoladi. Natijada aslida so'z birikmasi bo'lgan birlik qo'shma so'zga aylanadi. Masalan, *tokqaychi, qashqargul, mingboshi, jo'xoripoya, yengiltabiat, kaltafahm* kabi qo'shma so'zlar huddi shunday yo'l bilan hosil bo'lgan.

Soʻzga **affiks** qoʻshish bilan yangi soʻz hosil qilish **affiksatsiya usuli** bilan soʻz yasashi deyiladi: *ishchi, betonchi, sportchi, paxtakor, ochiq, yopiq, ishla, egovla, oʻyla* kabi.

Kompozitsiya yoʻli bilan soʻz yasash birdan ortiq yasovchi asosni maʼno va mazmun jihatdan biriktirib yangi leksik birlik – qoʻshma soʻz hosil qilishdir. Qoʻshma soʻzning sodda soʻzdan farqi shundaki, sodda soʻzda mustaqil maʼnoli qism bitta, qoʻshma soʻzda esa bittadan ortiq boʻladi. Soʻz yasashning bu turi oʻzbek tilidagi eng faol usullardan biri sanaladi. Qoʻshma soʻz bir butun leksik maʼno- bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish- grammatik tushunchaning ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir soʻzdir. Qoʻshma soʻzlar tarixan soʻz birikmalaridan oʻsib chiqqan. Til taraqqiyoti jarayonida soʻz birikmasi qismlarining maʼno va grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi, uning qismlari orasidagi sintaktik munosabatning yoʻqolishi hamda ularning bir maʼno markaziga birlashishi natijasida qoʻshma soʻzga aylanadi. Bu vaqtda birikmaning har ikkala qismi ham oʻzining alohida soʻzlik xususiyatini yoʻqotadi, har ikkalasi birgalikda yangi tushunchani anglatadi. Masalan, **osh** va **qozon** soʻzlarining qoʻshilib ketishi natijasida shu soʻzlarning yakka holatda anglatgan maʼnolaridan farq qilgan yangi maʼnoli soʻz – *oshqozon* hosil boʻladi. Demak, soʻz birikmasi qoʻshma soʻzga aylanganda, birikma tarkibidagi soʻzlarning aniqlovchilik aloqasi yoʻqoladi, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelmaydi, balki har ikki qism birgalikda bir soʻz holatiga keladi, bitta tushunchani anglatadi: *tomorqa, gulgʻuncha, ottoʻrva, oqqush, muzyorar, Oltingoʻl* kabi.[14; 167-180].

Tilshunoslarimizning qoʻshma soʻzlar haqidagi bu fikri eʼtirozlidir. Zero, qoʻshma soʻzlar maʼno jihatidan mushtaraklashib uchinchi bir narsa va hodisani nomlaydi. Masalan, **tomorqa** misolini olsak, u *tom* va *orqa* soʻzlaridan iborat boʻlib, uning asl maʼnosi tomning orqasi yoxud tomning orqa qismi ekanligidir va bu maʼno hech qachon yoʻqolmaydi. Biroq ular (bu ikki soʻz) mushtarakligida anglashilgan uchinchi soʻz (mallak) yoki tushuncha (hovli-joy yonida joylashgan yer boʻlagi) oʻz navbatida, alohida leksemalar sifatida oʻz maʼnosiga ega.

E'tiborlisi shundaki, endi bu qo'shma so'z *tomning orqasi* ma'nosida tilimizda qo'llanilmaydi, biroq bu degani mazkur so'z tomning orqa tomoni ma'nosini yo'qotdi degani emas. Chunki mallaklar va muayyan oilaga qarashli ekiladigan yer maydonlari odatda tomning orqasida joylashadi va til egalarining tasavvuri asosida nom ko'chishi yuz beradi. Qizig'i shundaki, keyingi yillarda oilalarga qo'shimcha ekin maydonining qo'shib berilishi (12 so'tix 25 so'tix qilindi) tomorqa so'zining ma'nosini yana ham kengaytirdi, endi u qo'shimcha yer ma'nosida ham qo'llanila boshladi. Natijada uning tomning orqasidagi yer maydoni ma'nosi bevosita tom yonidagi va undan uzoqdagi (oilaning) ekin maydonlarini anglata boshladi. Kundalik hayotimizda *qo'shimcha yer*- qo'shimcha tomorqa til birliklari ko'p uchraydi va ular umumtushunarlidir. Zero bu so'zlar (**tomorqa- mallak**) ma'nodosh so'zlarga aylandi. Davlatimizning *tomorqa* yerlardan unumli foydalanishni siyosat darajasiga chiqarishi bu so'zning tilimizda qo'llanilish darajasini oshirdi va kundalik turmushimiz uchun hayotiy zarur til birligiga ayalantirdi.

Qo'shma so'z bilan so'z birikmasining shaklan o'xshash tomonlari bor, ammo ular orasida ham farq bor. Ular quyidagilar:

- a) qo'shma so'zning qismlari morfema, so'z birikmasining qismlari esa so'z bo'ladi;
- b) qo'shma so'zning qismlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi, so'z birikmasining qismlari alohida-alohida leksik ma'no ifodalaydi;
- c) qo'shma so'zning qismlari orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi, so'z birikmasining qismlari orasida sintaktik aloqa bo'ladi: *tuyaqush, oybolta, xushfe'l qo'ziqorin qo'shma so'z, qush qanoti, oy yorug'i, asalari uyasi, qora portfelli(yigit)* so'z birikmasidir;
- d) qo'shma so'z qismlari o'z mustaqillligini qisman yoki to'laligicha yo'qotadi, so'z birikmasining qismlari esa o'z mustaqillligini saqlaydi;

e) qo'shma so'z qismlari yaxlit bir savolga javob bo'ladi, so'z birikmasi qismlari esa alohida savolga javob bo'ladi va bir gap bo'lagi vazifasida keladi.

Qo'shma so'zning ma'nosi bir holatda uning qismlari ma'nosi bilan bog'langan bo'ladi, shu ma'nolardan rivojlanib chiqadi: *asalari, otto'rva, tokqaychi, anjirshaftoli, oqqush* kabi. [H].

Kompositsiya usuli bilan qo'shma so'zlar yasashida, qo'shma so'z birdan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topgan bir so'z bo'ladi. U shu xususiyati bilan sodda so'z va so'z birikmasidan farqlanadi.

Qo'shma so'zning sodda so'zdan farqi shundaki, sodda so'zda mustaqil ma'noli morfema bitta, qo'shma so'zda esa birdan ortiq bo'ladi: *terimchi, ko'kalamzorlashtir, eslatma, tortinchoq- sodda so'z; erksevar, belbog', tomorqa, boshpana, asalari- qo'shma so'z*. Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topgan qo'shma so'zning biror komponenti (morfemasi) hozirgi o'zbek tilida mustaqil ma'nosini yo'qotgan bo'lsa, bu qo'shma so'z ham qo'shma so'zlik xususiyatini yo'qotadi, sodda so'zga aylanadi. Bu hodisani "kechqurun" so'zidan ko'rish mumkin. Aslida qo'shma so'z bo'lgan kechqurun hozirgi til nuqtai nazaridan morfemalarga bo'linmaydi (sodda so'z hisoblanadi). Boshqa tillardan sodda so'zlar qatori qo'shma so'zlar ham (*zararkunanda, odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr, aeroport* kabi) o'zlashtiriladi. Lekin bunday so'zlar hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan ham birdan ortiq mustaqil morfemali deb qaralsa, qo'shma so'z, aks holda sodda so'z hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, yuqorida keltirilgan so'zlar sodda so'zlardir. [14; 173].

Tilshunoslarimiz bildirgan yuqoridagi fikrlar ham e'tirozlidir. Zero, ularda ilmiylikdan qochish yaqqol ko'rinib turibdi. Noma'lum narsani ma'lum qilish uchun harakat qilish o'rniga, ma'lum (ko'rinib turgan) narsani noma'lum qilishga hech bo'lmasa e'tibordan chetda qoldirishga harakat qilinayapti. Binobarin *kechqurun* qo'shma so'zidagi "qurum" komponentining hozirgi kunda iste'moldan chiqib qolganligi yoki *odamshavanda* qo'shma so'zining "shavanda" komponenti

chet soʻz (fors tili)ga aloqadorligi va tilimizda kam uchrashi hamda *astoydil* soʻzining, **“astagidil”** forsiy soʻz birikmalaridan olinib, tilimizda soddalashtirilganligi, ularni hech qachon sodda soʻzlar deb nomlashga huquq bermaydi.

Qoʻshma soʻzning soʻz birikmasidan farqi shundaki, qoʻshma soʻzning komponentlari morfema, soʻz birikmasining komponentlari esa soʻz boʻladi. Shu sababli qoʻshma soʻzning komponentlari yaxlitligicha bir leksik maʼno ifodalaydi va komponentlari oʻrtasida sintaktik aloqa boʻlmaydi. Soʻz birikmasini hosil qiluvchi komponentlar (soʻzlar) leksik mustaqilligini saqlaydi va ular oʻrtasida sintaktik aloqa ham boʻladi: qora portfelli (yigit), atlas koʻylakli (qiz), oʻn besh qavatli(bino) kabi. Qoʻshma soʻz tarkibida hozirgi tilda mustaqil maʼno ifodalaydigan birdan ortiq morfemaning boʻlishi shart. Mustaqil maʼnoli soʻz bilan yordamchi soʻzning birikishidan qoshma soʻz hosil boʻlmaydi. Shunga koʻra yetakchi va koʻmakchi feʼldan tashkil topuvchi oʻqib bermoq, yoza boshlamoq, uxlab qolmoq kabi birikuvlar qoʻshma soʻz (qoʻshma feʼl) boʻla olmaydi. Chunki bularda birinchi feʼl oʻz maʼnosini saqlagan holda, keyingisi unga qoʻshimcha maʼno beradi. Demak, bunda birdan ortiq feʼlning oʻzaro birikishidan yangi feʼl (yangi soʻz) hosil boʻlmaydi. [H].

Oʻzbek tilida, baʼzi soʻzlar affiks funksiyasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan boʻlsa ham, hali affiksga aylanib ulgurmagan boʻladi. Bular **a f f i k s o i d l a r** deb ham yuritiladi: qabulxona, choyxona, darsxona, ishxona, ruxsatnoma, talabnoma, tabriknoma. Masalan, bu uyda toʻrt xona bor - biz ishxonada uchrashdik. Koʻrinadiki, xona elementi oʻrni bilan soʻz boʻlib ham qoʻllaniladi, affiks boʻlib ham. U bir oʻrinda oʻzak morfema boshqa oʻrinda-ergash morfema vazifasida keladi: *molxona*, *muzxona* kabi. [14;177]. Tilshunoslarimizning bu fikrlari ham eʼtirozlidir, zero har qanday mustaqil maʼnoga ega mustaqil qoʻllaniladigan til birligi SOʻZ hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misollarda “xona” soʻzi mustaqil maʼnoga va mustaqil qoʻllaniladigan milliy tilimizning eng kichik til birligidir. Kelib chiqishi nuqtayi nazaridan forsiy

bo'lgan bu o'zlashmani affiks yoki affiksoid deb qarash ham nojoiz. O'zbek tilida affiksoidlar (ular so'z-affikslar deb ham yuritiladi) kam uchraydi. Quyida biz so'z yasashda muammoli bo'lgan bir nechta affiksoidlarga izoh berib o'tamiz.

Ulardan biri –**xo'r (tojikcha xo'rdan – “yemoq” fe'lidan)** qo'shimchasi bo'lib, u o'zi qo'shilgan so'z anglatgan yegulik, ichimlik turlarini doim iste'mol qiluvchi yoki dam-badam iste'mol qilishni yaxshi ko'ruvchi shaxs oti yasaydi: *norin + xo'r, araq + xo'r, may + xo'r, choy + xo'r, qatiq + xo'r* kabi. *Nafaqaxo'r, poraxo'r, g'amxo'r, qonxo'r, tekinxo'r, ziyofatxo'r* so'zlari ham –xo'r affiksining xuddi shu ma'nosi asosida yasalgan: Aziz mehmonlar! Kaklikxo'rlar- kaklikdan, bedanaxo'rlar – bedanadan, qirg'ovulxo'rlar- qirg'ovuldan tanovul qilinglar. (Sh. Sa'dulla .)

Keyingisi esa –**parast (tojikcha parastidan itoat qilmoq, ta'zim qilmoq fe'lidan)** affiksidadir. U oraqli biz asosdan anglashilgan hodisaga e'tiqod qiluvchi, shunga berilgan shaxs oti yasaydi: *but + parast, shaxsiyat + parast, maishat + parast* kabi.

Navbatdagi izohtalab bo'lgan affiks esa ham qo'shimcha ham so'z sifatida qo'llanilmoqda. U – **furush** (tojikcha furo'xtan - “sotmoq” fe'lidan) affiksi bo'lib, asos anglatgan narsa predmetni sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasaydi: *chit + furush, meva + furush, paxta + furush, choy+ furush* kabi. Lekin ba'zi o'rinlarda biz “**furush**” affiksini yakka o'zini so'z sifatida qo'llaymiz. Asosan og'zaki nutqimizda ko'p uchrashi mumkin bo'lgan misol hisoblanadi. “*Kuni kecha dehqon bozorida bir gala furushlar yo'limni to'sib, olma solingan idishni ham qo'limdan yulib olishdi.*” Bu misolda furushlar “sotuvchilar” ma'nosini beradi va shaxsni anglatadi. Va izohtalablarning hozircha oxirgisi hisoblangan “**ham-**” affiksoid (ya'ni tilda ham qo'shimcha ham so'z ma'nosida qo'llaniladi) asosdan anglashilgan ish, narsaga birga aloqador ma'nosidagi shaxs oti yasaydi: *hamshahar, hamsuhbat, hamkurs, hamkasb* kabi. [14;180]. Tilshunoslarimizning bu fikrlariga biz ilmiy ishimizda nafaqat qo'shildik, balki

ularni attributiv qo'shma so'zlar, bahuvrihilar sifatida ishimizning II- III boblarida tahlil qildik.

1.2. O'zbek tilida qo'shma so'zlar yasalishi va bu borada ayrim munozaralar hamda mulohazalar

Mazkur tadqiqotimizni tayyorlash jarayonida, qo'shma so'zlar, ularning yasalishi va yozilishi bobida biz turli xil qarashlarga duch keldik. Ayniqsa, qo'shma so'zlarning yozilishi va ularning so'z birikmalaridan farqlanish masalasida haligacha muayyan bir fikr aytilmaganligi bizni hayratlantirdi. Qo'shma so'zlarning qo'shib yoki ajratib yozilishiga bo'lgan e'tiborsizlik ularni haligacha muayyan bir qolipga solinmaganligi va bu borada konkret qoidalar ishlab chiqilmaganligi bizga juda achinarli sezildi. Chunonchi so'zboshi qo'shma so'zining "*O'zbek tili izohli lug'atining*" 1980-yil nashrida ajratilib va 2006-yil nashrida qo'shib yozilishi va bu obro'li qomuslarimizning aynan shu farqli sarlavha ostida o'zlarining fundamental ishiga tamal toshi qo'yganligi hali tilshunoslarimizning qo'shma so'zlar masalasiga e'tiborsiz, yuzaki qarayotganligiga yaqqol misoldir. Bu esa tilimizning mavqeyi va unga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatsizlikdan boshqa narsa emas. Bu faktik misol bizni o'zbek tilidan qo'shma so'zlar o'rganilishiga chuqurroq yondashisga undadi. Shu ma'noda biz o'zbek tilida qo'shma so'zlarning o'rganilishi bobida bir qancha adabiyotlar bilan tanishdik. Tanishuv chog'ida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, qo'shma so'zlar va ularning yasalishi hamda yozilishi bobida turli va asosan e'tirozli fikrlar ko'p. Quyida shularning ayrimlaridan na'munalar keltiramiz. "Qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'ladi.

Otquloq, yurtboshi, tinchliksevar, xushxat, shirinzabon, kungaboqar.

Qo'shma so'zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ikki va unda ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan bu birikuv o'z kuchini yo'qotib, bir so'zga aylanib qolgan bo'ladi. Shuning uchun qo'shma so'z tarkibida alohida so'z bo'lib ko'ringan qismlar (*kunga-boqar,*

beshtik-tervatar, nomoz-shom-gul) hozirgi o'zbek tilida so'zlik xususiyatini yo'qotgan, bir so'z tarkibidagi ma'noli qism (morfemalar) sanaladi. [9; 134-135]. Mazkur mulohazalardagi “qo'shma so'zlar birikuvi o'z kuchini yo'qotishi, ularning bir so'zga aylanishi, komponentlarning so'zlik xususiyatini yo'qotishi, morfemalarga aylanishi” kabi fikrlar isbotlanilmagan! Ular bu masalaga qiziquvchilarda muayyan savollar uyg'otadi. Nima uchun ikki so'z birikib o'z kuchini yo'qotar ekan? Axir keltirilgan misollarda birikuv so'z kuchini oshirayaptiku, xatto ular birikuvidan uchinchi bir so'z tug'ilayapti-ku! Ikkinchi savol: So'z ham o'z kuchini yo'qotishi mumkinmi? Axir ular tilning ifoda qudratini(kuchini) oshirish uchun yaratilgan-ku! Morfema so'zga aylanishi mumkin, lekin so'z morfemaga aylanganligi qayerda bor? Yuqorida bu savollarga javob yo'q. Ushbu risolada qo'shma so'zlar ikki xil bo'ladi deb ta'kidlanilgan va quyidagi guruhlariga bo'lingan:

Qo'shma so'zlar yozilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar
2. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar

Bu differentsiya ham qusurdan holi emas, mantiq yo'q. O'zi qo'shma so'z bo'lsa va shunday deb nomlanilsa, nimaga ajratib yoziladi?! “Axir qo'shma so'z tom ma'noda so'zlarning qo'shib yozilishini nomlash uchun yaratilgan-ku! Unda ismi jismiga monandlik qayerda qoladi?!” Bu savollarga ham javob yo'q.

Muayyan ma'noda yuqoridagi savollarga javobni mazkur risolaning 43-46-betlarida qo'shib yozish va ajratib yozish qoidalari me'yorlarida javob topishga harakat qilamiz. Masala umumtushunarli bo'lishi uchun bu qoidalarni aynan keltiramiz:

Qo'shib yozish

1. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab.*

2. -a(r)r (inkor –mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qoshma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqonmas* kabi.
3. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak, hayhayla, gijgijla*.
4. Narsani boshqa biror narsaga nisbatlash, o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qoshma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oyblta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.
5. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.
6. Narsalarning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqora, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.
7. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.
8. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, urto'qmoq, ochildasturxon* kabi.
9. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga yalanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.
10. Ikkinchi qism turosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq kabi.
11. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil etilgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, teleko'rsatuv*.
12. Qisqartmalarning barcha turlariva ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: SamDU, ToshDU. [9; 43].

Ajratib yozish

1. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, sotib ol, olib chiq, miq etma*;
2. Komakchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ko'r, so'rab qo'y, bera boshla, yiqila yozdi*. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver(ayta ber), boroladi(bora oladi), bilarkan(bilar ekan)*;
3. Ko'makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi. Lekin bilan ko'makchisining **-la** shakli, uchun ko'makchisining **-chun** shakli chiziqli bilan yoziladi: *sen-la, siz-chun*;
4. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha** so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, qay kuni, shu yoqdan, u yerda*. Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi;
5. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, liq to'la, lang ochiq*;
6. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir*;
7. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi;
8. Belgining ortiqlik darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq* kabilar ajratib yoziladi;
9. Izofali birikmalar ajratib yoziladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, qismlaridan biri yoki har ikkalasi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor, dardisar*;
10. Qo'shma so'zlarning qismlari bir-birini izohlasa, ajratib yoziladi: *osma ko'prik, til oldi, o'rta keng, uzun bo'yli, Jo'ra tog'a*. [9; 45-46].

Yuqoridagi qoidalaridan ko'rinib turibdiki, ulardan biz bergan savollarga javob yo'q. Faqat qo'shib yozish uchun 11 ta shart ajratib yozish uchun esa 10 ta shart belgilangan. Shartlarning ko'pligi imlo qoidalarini murakkablashtiradi. Chunonchi, til egalari yoki tilimizni o'rganayotgan chet elliklar yuqoridagi 21 ta shartni yod bilishlari shart, aks holda imlo xatolariga yo'l qo'yish tabiiy. Bizning fikrimizcha, milliy tilimizda so'z birikmalari va qo'shma so'zlar chuqur tahlil qilinmagan. Ularning tabiati va mohiyati aniq belgilanmagan. Nazdimizda bu masala unchalik murakkab emas. Bunda so'z birikmasi va qo'shma so'zlar tub mohiyatidan kelib chiqilsa, ularni farqlash qiyin emasday. Masalan, so'z birikmasining mohiyati shundaki, u orqali yoxud ikki so'z birikuvi natijasida hissiy a'zolarimiz orqali mushohada qilinayotgan narsa va hodisa boshqa (bir xil, o'xshash) narsa va hodisalardan ajratib ko'rsatiladi. Masalan, **qora non** so'z birikmasini olamiz. Bunda nonning turi ko'p, lekin uning boshqalardan rangi bilan farqlanishi ajratilyapti. Masalan, *"Bu safargi non qora chiqibdi. Qora nonni mehmonlarga qanday tortamiz? Keltirgan uningiz qora edi, non qora chiqdi."* Endi **qoranon** qo'shib yozamiz, endi e'tibor bilan qaralsa nonning rangi emas, uning turi nomlanayapti. Masalan, *"Bu do'konda qoranon ham sotiladi. Faqat bahosi qimmatroq, chunki u sog'liqqa koni foyda."*

Misollardan ko'rinib turibdiki, so'z birikmasida non rangi nuqtayi nazaridan farqlansa, qo'shma so'zlar rang ham inobatga olingan holda nonning turi, ikki so'z anglatgan ma'nodan kelib chiqib uchinchi bir narsa nomlanayapti. nonning yangi bir turi inobatga olinayapti. Shu ma'noda, so'zlar birikuvi narsa va hodisalarni farqlash uchun xizmat qilsa, so'zlar qo'shiluvidan obyektiv borliqdagi uchinchi bir narsaga ishora qilinayapti. Bizning taklifimiz shuki, so'zlar birikuvi mohiyatan narsa va hodisalarni farqlasa ajratib, so'z birikmasi deb qaralsa va ajratib yozilsa, so'zlar birikuvi mohiyatan mushtaraklashsa va uchinchi bir narsani nomlasa, qo'shma so'z deb qaralsa va qo'shib yozilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mazkur darslikda qo'shma so'zlar bobida bizning yuqoridagi fikrimizga yaqinroq izohlarni ko'rish mumkin. Bu qo'llanmada qayd etilgan sintaktik-leksik usulda so'z birikmasining vaqt o'tishi bilan qo'shma so'zga aylanishi nazarda tutiladi:

tokqaychi, qashqargul, mingboshi, jo'xoripoya, yengiltabiat, kaltafahm kabi. Ko'rinadiki, bunday so'z yasalihi so'zni so'zga qo'shish, ya'ni sintaktik usuldan farq qilmaydi: *erksevar, belbog', tomorqa, boshpana, asalari, tuyaqush, oybolta, qo'ziqorin, xushfe'l*. Demak, bu ikki usulni birlashtirib, so'zni qo'shib so'z yasash (kompozitsiya, sintaktik) usuli deyish mumkin. [5; 137].

Mazkur misollar qo'shib yozilgan va diqqat bilan qaralsa ular orqali uchinchi narsa va hodisa nomlanilgan. Zero, yengiltabiat so'z birikmasi ajratib yozilsa, insonning xarakter xususiyatini bildiradi, mabodo qo'shib yozilsa insonlarning turini nomlaydi, xarakter nomga aylanadi va shu tariqa tilda biz tadqiq qilayotgan leksikologik vosita, bahuvihiilar vujudga keladi. Ular haqida ikkinchi- uchinchi boblarda to'xtalamiz.

1.3. Ingliz tilida qo'shma so'zlarning yasalihi va ularning muloqotdagi roli

Ingliz tilida ham ikki yoki undan ortiq so'z yoki komponentlardan iborat bo'lgan va ,albatta, qo'shib yoziladigan til birliklariga qo'shma so'z deb aytiladi. Ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan qo'shma so'z turlari qo'shma otlar (*cheeseburger*), qo'shma sifatlar (*red-hot temper*), va qo'shma fe'llar (*waterproof the deck*) hisoblanadi. Qo'shma so'zlar yozilihi bo'yicha qoidalar aniq emas. Ba'zi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi. Masalan, *blackboard, classmate, sunflower* va boshqalar. Yana boshqalari esa chiziqcha bilan yoziladi jumladan, *brother –in-law, air-conditioned, do-it-yourself, life-threatening* va boshqalar. Uchinchi bir turdagi qo'shma so'zlar esa ajratib yoziladi (*soccer stadium, parking lot, hot dog, air conditioner, handwritten notebook* va boshqalar). [39; 139]. O'z o'rnida ingliz tilidagi qo'shma so'zlarning morfologik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, odatda qo'shma so'zda asosiy ma'no anglatuvchi qism bo'lishi zarur. Bunday asosiy ma'no beruvchi qismni hokim so'z deb ham ataymiz va u ko'pincha ingliz tilida o'ng tomonda, qo'shma so'zning ikkinchi qismida keladi. Masalan, ***bellBOY, spinDRY, into*** va boshqalar. (Ammo bu ta'rif hamma tillar uchun ham xos emas.) Agar qo'shma so'zlarni yozishda keyingi satrga o'tib yozishga to'g'ri kelsa, uning

ma'no anglatadigan qisminigina keyingi satrga o'tkazamiz. Misol uchun, **snow-mobile** lekin snowmo-bile emas. Agar qo'shma so'zlarning turlarga bo'linishi bo'yicha berilgan ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak, qo'shma so'zlarning muayyan bir guruhiga mansub bo'lgan so'zlar metaforik xarakterda bo'ladi. Misol uchun, **couchpotato** so'zini odamga nisbatan 'televizor ko'rishga mukkasidan ketgan' ma'nosida qo'llash mumkin, chunki kartoshka poyasi qanchalik uzoq yerda ko'milib tursa, shunchalik chuqur ildiz tashlaydi, demak televizor ko'rishga mukkasidan ketgan odam kartoshkaga o'xshatilayapti. Bu so'zning lug'aviy ma'nosini izohli lug'atda *"sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarmay, nuqul vaqtini televizor tomosha qilib o'tkazadigan odam"* deb keltirilgan. Keyingi ingliz tilida va nutqida ko'p uchraydigan yana boshqa bir turi esa murakkab qo'shma so'zlardir. Masalan, **law degree** "qonun qarori" qo'shma so'z, unga **requirement** so'zini ham qo'shish orqali murakkab qo'shma so'z ya'ni "qonun qarori talabi" ma'nosidagi so'zni hosil qiladi. Agarda uni yanada kengaytirmoqchi bo'lsak, masalan, **law degree requirement changes** "qonun qarori talablaridagi o'zgarishlar" changes so'zini qo'shamiz va yanada uzunroq qo'shma murakkab so'z hosil bo'ladi. Ingliz tili orfografiyasida qo'shma so'zlarning yuqorida aytib o'tilganidek, turli xil ko'rinishlarga ega bo'lgan yozish usullari mavjud; shu jumladan, qo'shib yozish, ajratib yozish va chiziqcha bilan yozish. Fonetik jihatdan talaffuz qoidalariga keladigan bo'lsak, mazkur tildagi qo'shma so'zlar, ayniqsa, **sifat+ot** ko'rinishidagi qo'shma so'zlarda urg'u birinchi komponentga tushadi va bu so'zlardagi ma'no rang- barangligini bir- birlaridan farqlash uchun yaqindan yordam beradi. Bu tildagi qo'shma so'zlarning ikkinchi bir o'ziga xos xususiyati shundaki, chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma so'zlarda shaxs-son qo'shimchalari birinchi elementga qo'shilmaydi, balki so'zning oxirgi elementiga qo'shiladi (brother-in-laws), ammo mustasno holatlar uchraydi masalan, passers-by, editors-in-chief va boshqalar. Ingliz tilida qo'shma so'zlarning ko'pligini yasashda ularning oxirgi elementiga –s (lar) qo'shimchasi qo'shiladi, lekin biz yuqorida aytgan misollar bundan mustasno. Bundan tashqari **–ful** sifat yasovchi qo'shimchasi bilan tugagan so'zlardan bir nechtasining oxirgi elementiga ko'plik

qo'shimchasi -s qo'shiladi. (mouthfuls, spoonfuls), lekin kamdan kam holatda ularning birinchi elementiga bu qo'shimcha qo'shiladi (mouthsful, spoonsful). Shu o'rinda ko'plik qo'shimchasi yana "in-law" komponenti bilan tugovchi so'zlarning birinchi elementiga norasmiy uslubda esa oxirgi elementiga qo'shilishi mumkin. Masalan, sister-in-law: sisters-in-law, sister-in-laws kabi.

Ingliz tilida komponentlarning o'zaro ma'no munosabatlariga ko'ra qo'shma so'zlar quyidagi 4 guruhga bo'linadi: [38; 206-225]

1. Endosentrik

2. Ekzosentrik (shuningdek "bahuvrihi")

3. Kopulativ (shuningdek "dvanda")

4. Appozitiv

Endosentrik (*endo – inside ya'ni ichkari, centric- markaz; markazdan ichkarida yoxud bir-birlariga tobe deganidir*) qo'shma so'zlar aniqlovchi aniqlanmishga bo'linadi ya'ni birinchi so'z ikkinchisini (ikkinchi komponentni) ikkinchi komponent esa birinchisini aniqlab keladi. Misol uchun, **housekeeper, cargo, caretaker** va boshqalar. Yuqoridagi berilgan misollarda housekeeper so'zida asosiy ma'no "keeper" negizidan anglashiladi, chunki u "asrovchi, saqlovchi" degan ma'noni bersa, 'house' so'zi qo'shilib, uning qanday turdagi saqlovchi ekanini bildirib kelgan ya'ni aniqlab kelgan "uy qo'riqchisi". "Cargo" so'zi ham qo'shma so'zning endosentrik turiga mansub bo'lib, unda ikkinchi so'z birinchi so'zni aniqlab kelgan. Negaki, cargo so'zi 'yuk' degan ma'noni beradi va so'zma so'z tarjima qiladigan bo'lsak 'mashinada boruvchi' degan ma'noni bildiradi. O'z o'rnida shuni eslatib o'tmoqchimizki, qo'shma so'zlarning ikkinchi turi haqidagi ma'lumotlarga "Ingliz tilida bahuvrihilar" faslimizda bafurja to'xtalamiz.


Qo'shma so'zlarning uchinchi turi bu kopulativ qo'shma so'zlar hisoblanadi. Bunday qo'shma so'zlarda har bir komponent o'z ma'nosini saqlagan holda uchinchi bir narsa hodisani nomlaydi. Masalan, "**bittersweet**"- so'zma so'z

tarjimasi “nordon shirin” degan ma’noni bildirsa, asosiy atab, nomlab kelgan ma’nosi esa “salat, achchiq-chuchuk” so’zlarini bildiradi. Yoki “fourteen” so’zi ‘four’-‘to’rt’, ‘teen’-‘o’n’ ikkita o’z ma’nosidagi so’zlar qo’shilmasidan biz uchinchi bir so’z, ‘o’n to’rt’ sonini anglaymiz. Yana bir boshqa misol keltiradigan bo’lsak, “**sleepwalk**”-‘uxlamoq yurmoq’ bu degani uchinchi bir ma’no “yurganida ham hamisha uyqusirab yuradigan odam”ni anglatadi.

Qo’shma so’zlarning navbatdagi va ,ayni paytda, oxirgi turi bu appozitiv qo’shma so’zlardir. U shunday komponentlardan iboratki, ular o’z zid ma’nolarini saqlagan holda uchinchi bir narsa hodisani nomlaydi. Masalan, “**actor-director**”. Bilamizki direktor sahnada yoki kinoga boshchilik qiladigan shaxsni hisoblanadi, aktyor esa u olayotgan filmda shunchaki rol ijro etadigan shaxsdir. Mantiqan ular bir birlariga ma’no jihatdan va bajaradigan vazifalari jihatidan qarama qarshi hisoblanadilar, lekin yuqoridagi qo’shma so’z misolida biz bitta filmni suratga olish jarayonida ham direktor ham aktyor vazifasini bajarayotgan shaxsni tushunamiz. Yoki boshqa bir misol, “**maidservant**”ni oladigan bo’lsak ‘maid’ oqsoch qiz degan ma’noni bildirsa , ‘servant’ asosan xizmatchi yigitni bildiradi, lekin ularning bajaradigan vazifalari bir biriga yaqin va shuning uchun ham ular qo’shib bitta qo’shma so’z bo’lib kelgan. Biz bunday misollarni ko’p keltirishimiz mumkin. Rus tilida “**игрок-трейнер**” so’zi esa ham treynerlik ham o’yinchilik vazifasini bajaradigan shaxsni anglatadi va izohlaydi.

Tilshunoslar, Antonietta Bisetto and Sergio Scaliselar, qo’shma so’zlarning juda ham sodda fikrga asoslangan yangi klassifikatsiyasini taklif qilishgan. Ularning nazarida qo’shma so’zlarning eng ahamiyatga molik jihati shundaki, uning ikkala tarkibiy qismi ham grammatik aloqaga kirishadi, ammo bu hali yaqqol ko’rsatib berilmagan. Misol uchun, ‘**apron string**’ bo’ladimi yoki ‘**string of the apron**’ bo’ladimi? Ular bu kriteriyaga asoslangan holda qo’shma so’zlarning noyob va turg’un klassifikatsiyasini taklif qilishgan. Qo’shma so’zlar tarkibiy qismlar bir-birlari bilan asosan grammatik munosabatga kirishadi va sintaktik qurilma ko’rinishida namoyon bo’ladi. Masalan, ***qismlari bir biriga tobe munosabatda***

bo'lgan, o'zaro bir biri bilan teng bo'lgan va biri ikkinchisini aniqlab kelgan qo'shma so'zlar. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda ular qo'shma so'zlar klassifikatsiyasining quyidagi strukturasini ilgari surishgan:



Subordinate – qismlari tobe hokim munosabatda bo'lgan qo'shma so'zlar;

Attributive – aniqlovchili qo'shma so'zlar;

Coordinate – teng munosabatda bo'lgan qo'shma so'zlar.

Agar qo'shma so'zlarning tarkibida to'ldiruvchi bo'lsa, u tobe hokimlik munosabatiga kirishadi va '**subordinate**' ya'ni biri ikkinchisiga tobe bo'lib keladi. Misol tariqasida '**taxi driver**' qo'shma so'zini oladigan bo'lsak, bunda taxi so'zi fe'lli asosning to'ldiruvchisi hisoblanadi. Biz shunga o'xshagan holatni 'apron string' (etak bog'ichi) misolida ham uchratishimiz mumkin bo'ladi. Biz bu misolni turlicha talqin qilishimiz mumkin: '**string of an apron**'- etakning bog'ichi, '**string on an apron**' – etakning ustidagi bog'ichi, '**string in an apron**' – etakning ichidagi bog'ichi va h.k. shunday bo'lsa ham ikkala tarkibiy qism o'rtasidagi munosabat hamisha to'ldiruvchili aloqa hisoblanadi.

Shuni esda saqlash joizki, tobe hokimlik munosabati shuningdek, qo'shma so'z tarkibida asosiy qism bo'lmagan taqdirda ham qo'llaniladi. Aniqlovchili qo'shma so'zlar sifat va ot so'z turkumidagi so'zlardan tuzilgan bo'ladi. Misol uchun, '**blue cheese**'. Ba'zan asosga metaforik ma'no yuklash uchun sifat o'rnida ot ham qo'llaniladi, jumladan, '**snail mail, sword fish**' kabi.

Teng bog'langan qo'shma so'zlarga keladigan bo'lsak, ularga 'and' ya'ni 'va' teng bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma so'zlar kiradi. Bunday so'zlar hattoki qadimgi roman tillarida ham uchragan (**it. Poeta pittore regista**). Semantik nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, bu kabi qo'shma so'zlar ikki asosga ega so'zlar sifatida qaraladi (poet painter bu shoir va rassom demakdir). Bu guruhlariga mansub bo'lgan qo'shma so'zlarga bir paytning o'zida ham endosentrik ham ekzosentrik sifatida qaraladi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan barcha misollar quyida oltita guruhga bo'lingan holda izohlangan. M.s:

SUBORDINATE		ATTRIB		COORDINATE	
endo	exo	endo	exo	endo	exo
love story	loudmouth			bitter sweet	Bl.
steamboat		blackboard		oaktree	Austria-H. March.
				girlfriend	
				fighter-bomber	
	pickpocket			learned-driver	mother-child Sp.
coffee cup		greybeard		poet doctor	Olsen
lipstick	lavapiatti	greeneyed		poeta pintor	elun-ai Hasp.
		blackbird	Kickkopf	woman doctor	Sch.H Bauer
	lavapiatti		Kahlkopf	Fürstbischof	candra-ditya-u Booij
			auricomus		

Yuqorida keltirib o'tilgan qo'shma so'zlar orasida hamma turlar mavjud emas (masalan, attributiv endosentrik qo'shma so'zlar ustunida asosiy qismga ega bo'lmagan so'z yo'q). Keyingi misollar quyidagicha ko'rinish kasb etadi. Misol uchun *love story* va *loudmouth* misolini taqqoslaydigan bo'lsak, ularning ikkalasi ham biri ikkinchisiga tobe munosabatda deb to'liq ayto olmaymiz, chunki "love story" so'zi 'sevgi tarixi' degani bo'lib, unda love so'zi story so'ziga tobe, ammo "loudmouth" misolida garchi 'mouth' so'zi asos bo'lsa ham ularning orasida qisman tobelik bor va bu so'z uchinchi bir yangi ma'noni bildiradi: "*katta ketib gapiradigan odam, maqatanchoq kishi*" tushuniladi.

endo	exo'	endo	exo	endo	exo
apple cake	kill joy	blue cheese	white collar	actor author	mind brain
brain death	cut throat	atomic bomb	green house	priest hermit	mother child
finger print		back yard	pale face	singer bassist	north east
mail man		French kiss	long legs	dancer singer	
sun glasses		ape man	free lance	artist designer	
water pipe		ghost writer		fighter bomber	
taxi driver		key word		king emperor	
stone cutter		public opinion		merchant tailor	
arm control		sword fish			
baby care					
agora phobia					

O'z o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, ingliz tilida qo'shma so'zlarning qo'shib, ajratib yoki qo'shimcha bilan yozilishi haqida ma'lum bir turg'un qonun qoida yo'q. Misol uchun, “**green house, pale face, white collar, free lance**” so'zlari Antonietta Bissettoning mazkur izlanishida **ajratib** yozilgan holatda uchrasa, **Cambridge Advanced Learner's Dictionary** da esa ular **chiziqli bilan** yoki bir biriga **qo'shilgan holatda** keltirilgan. Ilgari surilayotgan qo'shma so'zlar sinflari kabilar neoklassik qo'shma so'zlar deb ataladi va ‘semi-words’ ya'ni ‘yarim so'zlar’ hisoblanadi. Aslida, subordinatsiya ya'ni tobe hokimlik asosida yasalgan qo'shma so'zlar sinfi ikkita asosni bir biriga bog'lashda qo'llaniladi.

neoclassical compounds

sW+sW	sW+N	N+sW
calligraphy	apiculture	aerodrome
hydrology	hydrophobia	insecticide
philosophy	antropomorphism	parkingmeter

Yuqoridagi misollarga to'xtaladigan bo'lsak, aslini olganda ‘**hydrology**’ bu ‘suv ilmi- science of water’ hisoblanadi; ‘**hydrophobia**’ esa ‘suvdan qo'rqish kasalligi- fear of water’, ‘**apiculture**’ – savdo sotiq maqsadida asalarilar yetishtirish va boqish, ‘**insecticide**’- zararkunanda hasharotlarni qiruvchi kimoyiv modda, ‘**calligraphy**’ – chiroyli yozuv, husnixat’ va boshqalar. Shuningdek, nomi qayd

etib o'tilgan frazali qo'shma so'zlar ham taklif qilingan guruhlardan biriga kiritilishi mumkin. Quyidagi misollarga e'tibor qarating:

phrasal compounds

[floor of a birdcage] taste
[punch in the stomach] effect
[pipe and slipper] husband

Yuqorida keltirib o'tilgan qo'shma so'zlar attributiv ya'ni aniqlovchili qo'shma so'zlar qatoriga kiradi. Mazkur qo'shma so'zlarni metaforik ma'noda tarjima qilishimiz mumkin: **'floor of a birdcage' taste** misolini oladigan bo'lsak, unda *'qush saqlanadigan qafasning poli qanday bo'lsa, yegulikning mazasini shunga o'xshatib qo'llanilgan yoki* **'punch in the stomach effect'** ya'ni *'oshqozonga kimdir musht tushirgan kabi sanchib og'riganini'* tushunish mumkin. Olimlar tobe, aniqlovchili va teng bog'langan qo'shma so'z sinflari o'rtasidagi aniqlagan farq bu uchta sinfga ham modallik xususiyatini berishiga ishonch hosil qilishgan. Agar qo'shma so'zlar Lieberning (2004) leksik-semantik strukturasi orqali aks ettiriladigan bo'lsa, ya'ni har bir leksema o'zining skeleti (grammatik ma'lumotni o'z ichiga olgan) va tanasi (ensiklopedik ma'lumotni aks ettiruvchi) dan iborat degan fikrda to'xtalinsa, quyidagicha ifoda hosil bo'ladi: [16;13].

7) selection in compounds

a) coordinate compounds

<i>actor</i>		<i>director</i>
Thing[+com, -abst, +an]([X],[]),[Event <i>ACT</i> [X]]]		[Thing[+com, -abst, +an]([X],[]), [Event <i>DIRECT</i> [X]]]
<human, professional>	←----→	<human, professional>
<show business>	←----→	<show business>
<works in theatres, films, etc.>	←----→	<works in theatres, films, etc.>
<receives directions>		<gives directions>
< ... >		< ... >

b) N+N subordinate compounds

apple

[Thing [+com, -abst, -an] ([])]

<physical>

cake

[Thing [+com, -abst, -an] ([])]

<physical>

c) Attributive compounds

snail

[Thing [+com, -abst, +an] ([])]

<gastropod>

<secretes slime>

<very slow>

<....>

mail

[Thing [+com, -abst, -an] ([])]

<institution>

<means of communication>

<takes time>

<....>

←----→

1.4. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlarning yasallishida o'xshash va farqli tomonlar

Qo'shma so'zlar har tilda turli xil o'rganilib kelinadi. Bu fikrni uzoqqa ketib o'tirmasdan bizga yaqindan tanish bo'lgan o'zbek, rus, nemis va ingliz tillarida ko'rish mumkin. O'zbek tilida ham ingliz tilida ham qo'shma so'zlarning o'ziga xos o'rganilishi bor va ularning o'rtasida turli xil o'xshashliklar, farqlar mavjud. Aytish kerakki, o'zbek tilida qo'shma so'zlarning turlari mavjud emas, haligacha ular differentsatsiya qilinmagan, lekin ingliz tilida esa yuqorida, 1.3. faslda aytganimizdek 4ta guruhga bo'linadi, lekin biz bevosita ishimizga aloqador ekzosentrik qo'shma so'zlar bilan yaqindan tanishamiz. Ekzosentrik qo'shma so'zlar ingliz tilida muhim leksikologik vositalardan biri hisoblanadi. Ularning soni o'zbek tilidagidek ko'p bo'lmasa ham, so'zlashuv tilida faol ishtirok etishadi. Bunday qo'shma so'zlardan anglashilayotgan narsa va hodisa so'z ma'nosi bilan juz'iy bog'liq bo'lsada, aynan shu so'zlar anglatgan ma'nolarga uzviy aloqasi bo'lmaydi. Ingliz tilidagi **“egghead”** qo'shma so'zini olsak, u 'tuxum shaklidagi

bosh' ni emas, balki umuman boshqa ma'noni ya'ni *'judayam zehni o'tkir shaxs'* ni ifodalab kelmoqda. Yoki *"longlegs"* so'ziga murojaat qiladigan bo'lsak, u 'uzun oyoqli odamni emas, balki *'kriket o'yinida to'p oshiruvchining orqa tomonida turadigan o'yinchi'* ma'nosini ochib bergan.

Shu o'rinda, o'zbek tiliga to'xtaladigan bo'lsak, bunday misollarni ko'p uchratishimiz mumkin. Fikrimning isboti sifatida **xumkalla** so'ziga izoh bersak. Bu yerda kallasi xumga o'xshagan odamni va ,albatta, asosan "miyasi yo'q, kallavaram, qovoqbosh ya'ni esi pastroq odamni tushunamiz. Yoki bo'lmasam **qovoqbosh** so'ziga ta'rif bersak, lug'at tarkibiga kiritilmagan bo'lsa ham kundalik nutqimizda ko'p qo'llaymiz, qaysi ma'nodaki "boshining o'rnida xuddi qovoq turgandek, miyasi ishlaymaydigan kishi" sifatida. O'zbek tilida kompozitsiya usuli bilan qo'shma otlar hosil qilinadi: *toshko'mir, tuyaqush, karnaygul, oybolta, sadarayhon, ko'kqarg'a, qoraqurt, mingoyoq* lar ham hosil bo'ladi. Ingliz tilida esa qo'shma otlar asosan otli iboralardan tashkil topadi. Ular sifatlar va otlar tomonidan aniqlanib kelinadi. Masalan, *'science fiction'* so'ziga *'writer'* so'zini qo'shsak, murakkab qo'shma so'z hosil bo'ladi.

Lekin shu yerda ikkala til o'rtasida muammoli, izohtalab masala paydo bo'ladi, chunki yuqoridagi misol ingliz tilida murakkab qo'shma so'z hisoblanadi, lekin unga o'zbek tilida so'z birikmasi sifatida qaraladi. Ammo o'zbek tilida bu masala hali ham tilshunoslarimizning va bizning chuqur izlanish va o'rganishimizni kutayotgan katta ishlardan biridir. Shu ma'noda, ingliz tilida qo'shma so'zlar yozilish xususiyatlariga ko'ra uchta ko'rinishga ega: [32; 4].

1. Ochiq –ya'ni qo'shma so'z oralari ochiq holda; m.s: **toy store, diving board, flower pot** kabi.
2. Chiziqcha bilan yoziladigan- qismlari chiziqcha bilan ajratilgan: **air-brake, she-pony**.
3. Zichlashgan ya'ni qo'shma so'z elementlari orasida umuman bo'sh joy yoki chiziqcha yo'q bo'lgan holat: **mushroom, pickpocket, egghead, loudmouth** va boshqalar.

Ingliz tilshunoslari qo'shma otlarni alohida o'rganib so'ngra ularni ham turlarga ajratganlar:

1. Muvozanatlashgan yoki qolipga tushgan qo'shma otlar. Ular ikkita qisqa bo'g'inli otdan tashkil topib, tilda uzoq vaqtdan beri qo'llanilishda bo'lgan qo'shma otlar hisoblanadi: **housewife, lawsuit, wallpaper, basketball** kabilar.
2. Chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma otlar. Bunda ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan qo'shma otlar chiziqcha orqali ajratib yoziladi. Ular o'z ichiga affikslarni, artikl, predlog, va bog'lovchilarni ham olishi mumkin. Masalan, **house-build(er), single-mind(ed)(ness), rent-a-cop, mother-of-pearl** va b.
3. Ajratib yoziladigan qo'shma otlar. Ular odatdagidan uzunroq so'zlar hisoblanadi, jumladan **distance learning, lawn tennis, player piano** kabi. [30; 186-189].

O'zbek tilida qo'shma so'zlarning o'rganilishida yakdillik yo'q. Zero, ayrim olingan bir til birligining o'zi qo'shma so'z yoki bo'lmasa so'z birikmasi sifatida izohlaniladi. Masalan, **“og'ir oyoq”** til birligi o'zbek tilining izohli lug'atida **“og'ir oyoq”** deb ajratib yozilib, so'z birikmasi sifatida beriladi va shu sahifaning o'zida **“og'iroyoq”** xomilador ma'nosida qo'shma so'z deb izohlaniladi va bu til birligining ikkinchi qo'shma so'z variantini to'g'riroq deb ma'qullaniladi. Ikkala holatda ham mazkur til birliklarining nima sababdan qo'shib yozilishi yoki nima sababdan ajratib yozilishi va ularning birga yoki ajratib yozilgan holatlarida ma'no jihatdan o'zgarish yoki farqi bor yo'qligiga izoh berilmaydi.

Bizning fikrimizcha, bu va bunga o'xshash masalalar ilmiy jamoatchilik tomonidan kengroq o'rganilishi va mazkur muammolarga oydinlik kiritilishi zarur. O'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning o'zaro ma'no mazmuniga qarab muayyan turlarga bo'lib o'rganilish imkoniyatiga kelsak, o'zbek tilida ham ularni G'arbiy Yevropa tillaridagi qo'shma so'zlarning bo'linish xususiyatlarini sezish qiyin emas. Masalan, **“temir qoziq”** yoki **“yog'och qoziq”** qo'shma so'zlari ikki komponentdan iborat bo'lib, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelayotganligi va

shu nuqtai nazardan ularni **“attributiv qo’shma so’zlar”** turiga ajratish har qanday e’tirozdan holi narsa. Zero, mazkur qo’shma so’zlardagi birinchi aniqlovchi komponent ikkinchi aniqlanmish (asosiy so’z) “qoziq”ning temirdan yoki yog’ochdan ekanligini aniq ko’rsatib turibdi. Shu ma’noda, **“temir-beton”** qo’shma so’zini tahlil qiladigan bo’lsak, u kopulativ qo’shma so’z turiga mansubligi va ikkala komponent ham o’z ma’nosiga ega ekanligi ya’ni bir-birini aniqlab kelmayotganligini anglash mumkin. Bu qo’shma so’z komponentlariga qanday temir, qanday beton yoki qanaqa temir, qanaqa beton deb savol qo’yib bo’lmaydi, chunki ular yaxlit bir tushunchani ya’ni narsani anglatib turibdi va temirdan yasalgan betonni bildiradi.

Mazkur bobga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilida attributiv qo’shma so’zlar o’zbek tiliga qaraganda kengroq o’rganilgan, aniq differentsatsiya qilingan, guruhlariga bo’lingan. O’zbek tilida esa bu borada hali qilinadigan ishlar ko’p, chunki hali qo’shma so’zlar, ularning qo’shilib va ajratib yozilishi va so’z birikmalaridan farqi chegaralanilmagan. Qo’shma so’zlar va so’z birikmalarining funksional vazifalari belgilanilmagan, ularning o’zlariga xos xususiyatlari ajratib ko’rsatilmagan. Binobarin, bu ikki milliy tilimiz uchun muhim hodisa haligacha aralashtirilib birining o’rniga ikkinchisi (so’zboshi – so’z boshi, og’iroyoq – og’ir oyoq, cho’rtkesar – cho’rt kesar) qo’llanilib keladi. Bizning fikrimizcha, o’zbek tilshunoslari bu masalaga jiddiyroq yondashadilar va yaqin kelajakda milliy tilimzning o’rganilishidagi qusurli holatlarga uzil-kesil chek qo’yadilar.

II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "BAHUVRIHI" LAR

Ushbu bob va fasllarda o'zbek tilshunosligida haligacha nisbatan kam o'rganilgan mavzu- attributiv (aniqlovchili) qo'shma so'zlar yoxud bahuvrihilar haqida to'xtalinadi. Unda "bahuvrihi" borasida dunyo (asosan Yevropa) tilshunosligida aytilgan eng ilg'or nazariy ma'lumotlarga tayanilib, inventarimizda keltiriladigan (**tadqiqot davomida "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1980, 2006) jildlaridan va jonli so'zlashuv tilidan 615ta misol yig'ildi**) aniqlovchili qo'shma so'zlar- bahuvrihilar morfologik va semantik tahlil qilinadi. Aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar va "bahuvrihi" atamaları hali o'zbek tilida nisbatan yangi qo'llanilayotganligi bois, ular ostida mazkur tadqiqot ishimizda nima tushunilishiga qisqacha to'xtab o'tiladi. Chunonchi, "bahuvrihi" termini hali o'zbek tilshunoslariga yaqindan tanish emasligini inobatga olgan holda, avvalo, mazkur atama va u orqali angalashiladigan leksikologik vositaga izoh berib o'tiladi va "bahuvrihi" so'zi kelib chiqishi, ma'no va mazmuni, bahuvrihining aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlarning bir turi bo'lib, uning ostida inson shaxsi nomlanishi bilan bog'liq holda yasalgan qo'shma so'zlar tushunilishi haqida yetarlicha ma'lumot va izohlar keltiriladi. Bundan tashqari, mazkur bobimizda bahuvrihining tilimizdagi oddiy attributiv qo'shma so'z (*tuyaqush, qizilishton, oshqozon, ko'kqarg'a va bosh*) lardan farqlanish xususiyatlari va belgilari misollar va ularning tahlillari asosida, astoyidil, yoritib boriladi va izohlaniladi. "Bahuvrihilar" o'zlarining ma'no ko'chishlari, metonimik xususiyatlari odatda ular ostida konkret insonlar inobatga olinishi bilan boshqa aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlardan farqlanilishi ta'kidlanib boriladi. Bir so'z bilan aytganda, bu bob o'zbek o'quvchilariga hali notanish bo'lgan "bahuvrihi" termini ostida nima yashirin ekanligini ko'rsatishga harakat qilinadi. Mazkur maqsadlarimiz bayonini ushbu mavzuga qiziqqan o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun, navbatdagi fasllarda bahuvrihilar va ularning dunyo tilshunosligida o'rganilishi, ular izohiga turli xil yondashuvlar borasida astoyidil to'xtalib o'tamiz.

2.1. Dunyo tilshunosligida “bahuvrihi”larning o’rganilishi va ular izohiga turli xil yondashuvlar

Odatda qo’shma so’zlarga eng kamida ikkita so’zdan tashkil topgan so’zlar sifatida qaraladi. Misol uchun, ing. *taxi-driver*, *postman*, it. *divano-letto* (sofa-bed), *camposanto* (cemetery), fr. *tire-bouchon* (cork-screw), *timbre-poste* (stamp). Bu izoh juda sodda tuyulsa ham, u qo’shma so’z yasash jarayonining asosi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Biroq ayrim tilshunoslarning (*Antonietta Bisetto va Sergio Scalise*) larning fikricha, qo’shma so’zlar klassifikatsiyasi shu paytgacha yetarlicha o’rganilmagan. Aytilgan fikrlarini kengroq tushuntirish va isbotlash maqsadida ular mazkur masalaga boshqacharoq yondashishadi. Tahlil uchun nafaqat bitta til, balki bir necha tillar oilasi uchun universal bo’ladigan qoidalar majmuini yaratishga harakat qilishadi.[16; 65] Tadqiqotlarining 1-qismida ular qo’shma so’zlarning shu bugungacha bo’lgan klassifikatsiyalari va ulardagi turlicha fikrlar, turli farqli yondashuvlar bilan bog’liq bo’lgan muammolarni muhokama qilishadi; ishning ikkinchi qismida esa qo’shma so’zlar klassifikatsiyasi bo’yicha o’z shaxsiy mulohazalarini bildirishadi. Tadqiqotning 3- qismida esa qo’shma sozlarning o’rganilishi bo’yicha quyidagi xulosalarga kelishadi.

Qo’shma so’zlar klassifikatsiyasidagi muammolar:

Antonietta Bisetto va Sergio Scaliselarning fikricha qo’shma so’zlar klassifikatsiyasi bo’yicha quyidagicha muammolar mavjud, jumladan: *terminologik muammolar, ahamiyat berilmagan leksik kategoriyalar muammolari va ulardagi bir xillik muammolari*. Terminologik muammolarni esa olimlar ikki guruhga ajratib o’rganishni tavsiya etishadi:

- a) Yillar mobaynida atamalarda ro’y bergan ma’no ko’chishlari;*
- b) Ko’plab terminlarning tildagi tabiati*

Terminologik muammolar yechimida, ular “bahuvrihi” terminiga ham to’xtalishadi. Ularning fikricha, bahuvrihi termini asosan egalik ma’nosidagi ekzosentrik qo’shma so’z yasaydi; ya’ni sanskrit tili mahsuli bo’lgan bu so’z “ko’p guruchga ega bo’lgan odam” degan ma’noni bildiradi. [Or, as Bauer (2001:700)].

Ular ikkinchi muammoga to’xtalar ekan, Anglofon an’anasiga ko’ra qo’shma so’zlarning faqat ikkitagina turi qayd qilishadi: **tub (asosiy)** va **bog’langan (ikkilamchi)** qo’shma so’zlar. Biroq shunday bo’lsa ham tub (asosiy) qo’shma so’z tushunchasini hamma tillar uchun ham qo’llab bo’lmasligini ta’kidlashadi. Misol uchun, roman tillari guruhiga mansub tillardagi so’zlarda o’zakdan tashqari so’zga grammatik ma’no beruvchi qo’shimchalar ham bo’lishini uqtirishadi. Misol uchun, italian tilidan olingan “capostazione” (station master) qo’shma so’zi ikkita o’zakdan ya’ni cap- va stazion- va qolaversa grammatik qo’shimchalar –o va –e lardan yasalgan.

Ularning fikricha, bog’langan qo’shma so’z termini “taxi-driver” (taksi haydovchisi) ga o’xshagan so’zlar uchun qo’llaniladi, ammo bu barcha tillar uchun universal qoida sifatida tan olinmaydi. Bundan tashqari bu qoida roman tillari guruhiga kiruvchi tillarda mavjud emas. Tub va bog’langan qo’shma so’zlar atamaları tilga xos bo’lgan hodisa hisoblanadi. Bu atamalar keyinchalik morfologik adabiyotlarda yo’qolib ketgan. Shuningdek, tilshunoslar muammoli turlardan “frazali” va “neoklassik” qo’shma so’zlar guruhlarini ham aniqlashgan.

Olimlarning izlanishlaridan ma’lum bo’lishicha (ayniqsa ingliz tilidagi qo’shma so’zlar to’g’risidagi) ko’pchilik qo’shma so’zlar kategoriyalari jumladan, ikkita ot yoki sifat va bitta otdan tashkil topgan so’zlardir. Boshqa yana bir leksik kategoriyalar esa ahamiyatsiz qoldirilgan va ular buni jiddiy masala deb hisoblaydilar:

1. **Qo’shma sifatlar** (m.s.: *sifat+sifat* (*bitter-sweet* ‘*achchiq-chuchuk*’, *sifat+ot* (it. *Giallo limone* ‘*lemon yellow*’, *fe’l+ sifat* (du. *Druipnat* ‘*drip- wet*’) va *ot + sifat* (*girl crazy*))

2. Quyidagi soʻz turkumlaridan tuzilgan qoʻshma soʻzlar:


- a) ravishlar-(it. Sottosopra ‘upside down’)
- b) predloglar: (fr. Sans papier lit ‘without documents’),
- c) olmoshlar: (self-determination),
- d) yuklamalar: (make-up),

3. Feʼllar: (it. Portacenere ‘ash tray’).


“Morbo comp” qoidalar tizimidagi tahlil qilingan maʼlumotlardan shuni bilib olishimiz mumkinki, ‘ot+ot’ va ‘sifat+ot’ tuzilishga ega boʻlgan qoʻshma soʻzlardan tashqari dunyo tillarida koʻplab boshqa strukturalar mavjud. Shu nuqtai nazardan olimlar ularni quyidagicha keltirishgan: (*feʼl+feʼl*) *feʼl*, (*feʼl+feʼl*) *ot*, (*sifat+feʼl*) *feʼl*, (*ot+feʼl*) *ot*, (*ot+feʼl*) *feʼl*, (*feʼl+ot*) *ot*, (*feʼl+ot*) *feʼl*, (*olmosh+ot*) *ot*, (*olmosh+ feʼl*) *feʼl*, (*predlog + sifat*) *sifat*, (*ravish+feʼl*) *feʼl* va boshqalar. Ularning orasida koʻp qoʻllaniladigan Italian tiliga xos boʻlgan qoʻshma soʻzlar tuzilmasi yaʼni *feʼl+ot* koʻrinishida boʻladi. Tilshunoslarning fikricha, qoʻshma soʻzlar klassifikatsiyasidagi eng muhim muammo bu ularning turli xil turlardan tashkil topganligida boʻlib, ular bu fikrga turli xil izohlar keltirishgan, shu jumladan, endosentriklik/ekzosentriklik va bogʻlanish tushunchalarini asos sifatida olishgan va tarixan qoʻshma soʻzlarni klassifikatsiyalarga boʻlgan holda oʻrgangan olimlarning fikrlarini bir biri bilan taqqoslashgan. Shu jumladan ular dastlabki va hozirgi klassifikatsiyalarga toʻxtalishgan. Biz ham ular keltirgan klassifikatsiyalar va misollarni aynan keltiramiz. Mazkur ishimiz mavzusi ingliz va oʻzbek tili bilimdonlari uchun moʻljallanganligini hisobga olgan holda, ularni tarjima qilmasdan aynan keltirishni maʼqul deb topdik.

1)


a)



b)




c)




d)

Spencer (1991)




e)

Fabb (1998)




f)



Olsen (2001)



g)

Haspelmath (2002)





Keltirilgan sxemlardan ko'rinib turibdiki, qo'shma so'zlar klassifikatsiyasi rang-barang. Tahlilimiz aniqroq chiqishi uchun birinchi bo'lib bir –biriga ekvivalent bo'lgan Spenser, Haspelmach, Boij va Bauer larning takliflarini o'rganib chiqamiz.

Ko'rishimiz mumkinki, to'rtta klassifikatsiyalarning hammasi ham qo'shma so'z tarkibida o'zak ya'ni tobe hokimlik munosabatlari bor yoki yo'qligiga ishora qiladi. Misol uchun, kopulativ tur (Boij va Bauer), dvanda (Spenser), coordinative va oppozitsional (Haspelmach). [16; 35]. Boshqa so'z bilan aytganda, bu olimlar endosentriklik bilan ekzosentriklikni boshqa-boshqa tushunchalar sifatida o'rganishgan bo'lsa ham, Spenser esa ularni bir necha guruhlariga bo'lib o'tirmasdan, uchta guruh sifatida o'rganishni taklif qilgan, jumladan, a) endosentrik ya'ni asosiy qismni aniqlovchi – balki aniqlovchili qo'shma so'zlarni o'z ichiga oladi; b) ekzosentrik (bahuvrihi) ya'ni fe'l orqali bog'langan va c) dvanda qo'shma so'zlari ya'ni bir biriga qarama qarshi qismlardan tashkil topgan qo'shma so'zlar. Biroq endosentrik qo'shma so'zlarni ekzosentrikdan farqlash bu bir necha tushunmovchiliklarga olib keladiki, ikkinchi aytilgan tur asosiy qism bor yoki yo'qligi jihatidan tahlil qilinishi qiyinlashadi. O'z o'rnida dvandalar va oppozitsiyalar ham bir biridan farq qiladi. Aniqlovchili qo'shma so'zlar ham ekzosentrik bo'lishi mumkin yoki fe'l orqali bog'langan qo'shma so'zlar endosentrik bo'lishi mumkin.

Shuningdek, Haspelmach taklif qilgan guruhlar (endosentrik, ekzosentrik, coordinate (bog'langan), appositive (ma'no jihatdan bir biriga qarama qarshi), va affikslar orqali bog'langan qo'shma so'zlar) lardan ma'lum bo'ladiki, “*adult-child*” (katta –yu kichik) so'zi ekzosentrik hisoblanadi.

Boijning ilgari surgan taklifga keladigan bo'lsak, garchi Sanskrit tilidagi dvanda qo'shma so'zlarini (bir va ko'p qo'shimchali) kopulativ (bog'langan qo'shma so'zlardan) ajratgan bo'lsa ham, ularni bahuvrihi va kopulativ qo'shma so'zlardan farqlashda g'alizlik bor. [16; 35]. Bauerning klassifikatsiyasida ham tobe hokimlik munosabatlariga to'liq izoh berilmagan. Shu o'rinda, Haspelmachning taklifini misol qilaylik; uning klassifikatsiyasi turli xil kriteriyalarga asoslangan: a) asosiy ma'no beruvchi qismning mavjudligi yoki yo'qligi (endosentrik va ekzosentrik qo'shma so'zlar o'rtasidagi farqlar b) qo'shma so'zlarning rasmiy strukturasi (affiksli qo'shma qo'shma so'zlar) va c)

tarkibiy qismlarning o'rtasidagi sintaktik va semantik aloqalar. Natijada esa a va b kriteriyalar o'rtasidagi farqlarni tushunish qiyinchilik tug'diradi.

Bundan tashqari, Olsen va Fabbning takliflari yuzasidan ham turli xil kuzatishlar olib borish mumkin. Fabbning klassifikatsiyasi, garchi u tayanch vazifani bajarsa-da, uning yagona kriteriyasi ko'rsatilgan qo'shma so'zlar uchun judayam chegaralangan.

Olsen klassifikatsiyasining bog'langan qo'shma so'zlar tushunchasiga qarama-qarshi bo'lgan ustunligi bor, biroq bu ikki sinfdan tashqari Olsen yana ekzosentrik ya'ni egalik ma'nosidagi qo'shma so'zlar sinfini tanishtiradi. Bu sinf ham turli xil kriteriyalarga asoslangan. Bu aralash kriteriyalarning natijasida aniqlovchili va bog'langan qo'shma so'zlar tushunchasi bilan endosentrik va ekzosentrik tushunchalari o'rtasidagi farq anglashilmay qolgan. Shuningdek, aniqlovchili va bog'langan qo'shma so'zlar o'rtasidagi bog'liq munosabat ikkita tarkibiy qism o'rtasidagi egalik ma'nosini bildiradi. [27; 148].

O'z o'rnida shuni aytrishimiz mumkinki, Olsen kopulativ (bog'langan) qo'shma so'z deb atagan *'poet-doctor'* misoli Haspelmach va Spenserlarning klassifikatsiyasida *"poeta-pintor, learner-driver"* ko'rinishida zid ma'noli qo'shma so'zlar ko'rinishida keltirilgan.

Qo'shma so'zlar Yevropa tillarida o'ziga xos turlarga ajratib o'rganiladi. Ingliz tilida 4 ta guruh va qolaversa, roman –german oilasiga mansub bo'lgan **nemis** tilida ham qo'shma so'zlar 4 ta guruhga bo'linadi.[41; 41-45].

1. *Attributive Zusammensetzungen*

2. *Kopulative Zusammensetzungen*

3. *Zusammenrueckungen*

4. *Zusammenbildungen*

Attributiv qo'shma so'zlar (aniqlovchili qo'shma so'zlar) bir- biri bilan qo'shma so'z komponentlarining aniqlovchi-aniqlanmish xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Odatda qo'shma so'zning birinchi komponenti birinchisini aniqlab kelishi mumkin (yoki teskarisi- *das Jahrhundert, das Zehnt*). Bu turdagi qo'shma so'zlar komponentlari otlardan yoki sifatlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, *Schwarzbrot, Tischlampe, Tageslicht, Sonnenstrahl, dunkelrot* kabi. Xuddi shu guruhga mazkur magistrlik dissertatsiyamizning tadqiqot obyekti bahuviyalar ham kiradi. Misol uchun, *Graukopf, Rotkaeppchen*.

Kopulativ qo'shma so'zlarda komponentlar sintaktik, semantik jihatdan teng huquqli bo'ladilar, yoxud ularda tobelik yoki hokimlik bo'lmaydi. Ularning ma'nosi teng huquqlilik asosida mushtaraklashadi, chunonchi: *Strichpunkt, taubstumm, dreizehn, zweiundzwanzig, bittersuess*.

Siqishtirilgan qo'shma so'zlar (Zusammenrueckungen) bu xil qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq erkin bog'langan komponentlardan ba'zan xatto gaplardan iborat bo'ladi. Bunda erkin so'zlar yoki biror gap ichidagi so'zlar – har bir gap bo'lagi o'z o'rnida qo'shib (siqib olib kelinib) qo'llaniladi. Har bir so'z o'zining ma'no mustaqilligiga ega bo'ladi va gap nima haqida ketayotganligi yaqqol tushunib turiladi. Ayrim hollarda, ma'no ko'chishi ro'y berishi mumkin, jumladan, *Vergissmeinnicht, Einmaleins, derart, infolge, stehenbleiben* kabilar. To'la bir o'z sifatida keltirilgan. To'la bir gapni qo'shib yozilishini misol keltiramiz. *Du bist zu spaet. –Kam der Buss nicht zur rechten Zeit. Lass deine Ausrede “Eskamderbussnichtzurechtenzeit!”*

Qo'shib yasalgan so'zlar (Zusammenbildungen) bu tur qo'shma so'zlar ikki leksikologik jarayon- vosita asosida yasaladi. Ularning komponentlaridan biri yasama so'z bo'lib, tilda alohida qo'llanilmaydi. Masalan, *Fruehaufsteher, Inbetriebsetzung, blaueaugig* kabilar.

2.2. Ingliz tilida “bahuviyalar” lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari

Ingliz tilida qo'shma so'zlarning yana bir turi bu ekzotrik qo'shma so'zlardir. Xo'sh, ular qanday tuzilishdagi qo'shma so'z hisoblanar ekan? Bunday

qo'shma so'zlar sanskrit tilida “**bahuvrihi**” atamasi bilan qo'llaniladi. Boshqa tillardagi kabi ingliz tilida ham bu turdagi qo'shma so'zlar ikkita so'z negizdan tashkil topadi, lekin bu negizlar ikkalasi birgalikda boshqa bir semantik birlikni anglatadi. Masalan, **white-collar** ya'ni ‘oq yoqa’ ma'nosini bildiruvchi bu so'z oddiygina ‘ko'ylak yoqasini, narsani bildirib turgani yo'q, aksincha ‘oq yoqali odam’ (yoqaning rangi ijtimoiy iqtisodiy mavqei uchun metonimiyadir) ni anglatayapti. Shu ma'noda, ingliz tilshunoslari bu borada bir qancha fikrlar yuritadilarki: ekzosentrik qo'shma so'zlarning birinchi xususiyati shundaki, ularni tashkil etuvchi elementlari ot+ot strukturadan emas, balki birinchi qismi sifat yoki fe'l bo'lgan tuzilmadan tashkil topadi; bu turdagi qo'shma so'zlarning keyingi, ikkinchi hislati esa ular semantik jihatdan quyidagicha ma'nolarda keladi: m.s: **redneck** – bu bo'yinning turi emas, shaxsni anglatib kelgan; **loudmouth** – bu og'iz emas, balki bo'lar bo'lmasga ko'p gapiradigan, odamlarni xafa qiladigan insonni bildirib keladi. Boshqa yana bir misol keltirsak, **barefoot** - oyoqyalang. Ko'rinib turibdiki, bu yerda birinchi ma'no oyog'iga hech narsa kiyib olmagan odam tushunilsa, keyingi ma'no esa ko'chma “kambag'al odamni” ifodalab kelgan. Biz ham o'zbek tilida bu so'z haqida o'ziga yarasha ma'lumotga egamiz va nutqimizda ham qo'llaymiz. Ekzosentrik qo'shma so'zlarga quyida misollar keltiramiz: **kill joy** – birovning xursandchiligini ko'ra olmaydigan (kishi); **white collar** – oq yoqali (kishi) ya'ni idora, tashkilot va shu kabilarda faqat aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishi; **green house**- issiqxona, parnik; **pale face** – oq tanli odam; **long legs** – uzun oyoqli hasharot; **freelance** – turli joylarda ishlovchi kishi; **redneck** – shahar tashqarisida yashovchi ilmsiz, oq tanli kishi, **loudmouth**-vaysaqi odam, bo'lar- bo'lmasga ko'p gapiradigan; **greenback**- orqasi ko'k, US dollari nazarda tutilgan (narsa); **pickpocket**- olomon ichida hamyondan o'g'irlik qiluvchi odam; **cut-throat**- kallakesar; **spoilsport**- ishbuzuqi, o'yinbuzuqi. Yuqorida keltirilgan misollar ekzosentrik qo'shma so'zlar hisoblanadi. Ingliz tilida asosan bu turdagi aniqlovchili qo'shma so'zlar o'zbek tilidagi kabi nafaqat shaxsni, uning xarakter-xususiyatini anglatadi, balki narsaning ham ko'chma ma'nosini izohlab keladi. Yuqorida keltirilgan na'munalar orasidagi **green house**,

long-legs, greenback qo'shma so'zlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. [30; 186-188].

Bu turdagi qo'shma so'zlar xususida so'z yuritar ekanmiz ularning yasaliş turlariga ham to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Birinchi tur qo'shma so'zlar **sifat+ot** ko'rinishida bo'ladi. [20; 4-5]. Mazkur qo'shma so'zlarning qismlari bitta ma'no ifodalash uchun bir urg'u ostiga birlashadi. Misol uchun:

flat-foot ('policeman', slang)

greenback ('American dollar')

hot-head ('impetuous person')

redbreast ('European robin')

red-cap (in Britain 'military policeman', in the US 'railway porter')

red-eye (several meanings, including 'cheap whiskey')

Arnoffning fikricha yuqorida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, ekzosentrik qo'shma so'zlar insonni nomlashi bilan birga, qush va hayvon turlari (**redbreast** ('European robin')) ga ham nom qo'yar ekan; qismlar orqali anglashilgan ma'no ortida elementlarning o'z ma'nolari ham saqlanib qoladi.

Jackendoff bu turdagi qo'shma so'zlarning hammasi muayyan tartibda keltirilishini taklif qilgan holda, aytadiki mazkur qo'shma so'zlarni ingliz tilini endi o'rganayotgan boshqa millat vakillariga "redhead" so'zi ostida inson gavdalanishini shu bilan birga "blackhead" husnbuzarning bir turi ekanligini tushuntirish anchayin qiyin kechadi.

Keyingi tur **ot+ot** strukturali qo'shma so'zlar ham sifat+ot tuzilmasiga ega so'zlar kabi yasaladi:

birdbrain ('idiot')

blockhead ('idiot')

egghead ('intellectual')

hatchback ('car whose boot and rear window form a single opening door')

paperback ('book in soft binding')

skinhead ('person —usually of a particular social type —with a shaven head').

Bunday soʻz yasalihi tilda deyarli chegaralangan boʻlsa ham, *Four Weddings and A Funeral* filmidagi qahramonning ismi **Duckface** ekanligi bunga yaqqol naʼmuna boʻla oladi. Yuqoridagi misollarga oʻxshagan bir necha misollar borki, ularning yasalihi ham metaforik xarakter kasb etadi. Masalan, **“butter-ball”** qoʻshma soʻzi oʻzining maʼno qismlari bilan birgalikda **“a fat person”** semiz odam degan uchinchi bir birlikni anglatadi. Qizigʻi shundaki, bu soʻzning ikkinchi maʼnosi kompyuter oʻyinlaridagi semiz qushni bildiradi. Garchi qoʻshma soʻz elementlari bildirayotgan maʼno u anglatayotgan uchinchi maʼnodan yiroq boʻlsa ham, soʻzlashuv tilida bu kabi misollar anchagina.

Oxirgi qoʻshma soʻz yasash turiga kelsak, uning tuzilishi **feʼl+ot** strukturadan iborat boʻladi. Yasalish jihatlarini yuqoridagi aytilgan turlar bilan taqqoslaydigan boʻlsak, deyarli bir-biridan farqlanmaydi, biroq birinchi element feʼl soʻz turkumiga tegishli boʻladi:

Scatterbrain ('person unable to concentrate') Twinkletoes.

Yuqorida ingliz tilshunoslarining fikrlariga tayangan holda ekzosentrik qoʻshma soʻzlarning uch xil strukturasi bilan qisqacha tanishdik, ammo bu hali qoʻshma soʻzlar xususida boshqa tilshunoslarning fikrlarini eʼtiborsiz qoldirishimizga asos boʻla olmaydi. Shu jumladan, **Maria Perklesning** “Compounds in English and Russian: A comparative analysis” dissertatsiyasida yuqorida taʼkidlangan fikrlarga qoʻshimcha tarzda keltirilgan asoslarga ega boʻlgan mulohazalar bilan tanishamiz.

Uning taʼkidlashicha qoʻshma soʻzlar strukturasi quyidagicha:

a. Adj+N: redneck, loudmouth, greybeard, paleface;

b. N+N: birdbrain, butterfingers, baby face, hunchback;

c. V+N: killjoy, pickpocket, cutpurse, turncoat, daredevil;

d. V+P: showoff, checkup, payback, giveaway. [31; 23-33].

Yuqoridagi misollarga to'xtaladigan bo'lsak, ularning tarkibidagi qismlar o'zaro ma'no munosabatini saqlagan holda, uchinchi bir semantik birlikni asoslaydi. Misol uchun, **redneck** so'zi grammatik jihatdan ot hisoblanadi, chunki red so'zi neck so'zini aniqlab kelgan. Garchi shunday bo'lsa ham qismlar o'zlarining 'qizil' va 'bo'yin' ma'nolarini qisman yashirgan holda uchinchi bir yangi ma'noni "*a poor white person without education, especially one living in the countryside in the southern US, who has prejudiced (= unfair and unreasonable) ideas and beliefs*" anglatadi. Shu ma'noda birdbrain va pickpocket so'zlari ham umumiy ma'noda ot so'z turkumiga taaluqlidir. (brain va pocket so'zlari ot). Ammo bu ta'rifga bo'ysunmaydigan to'rtinchi tur qo'shma so'zlar borki, ular fe'l+ predlog tuzilishidan tashkil topadi. **Showoff, checkup, payback** va **giveaway** so'zlari na fe'l va na boshqa turkumiga xos, chunki bu so'zlar grammatik yuklamadan tashkil topgan. Shu ma'noda, ular **input, outcome, download** so'zlariga o'xshaydi faqat so'zlarning o'rni bilan farqlanadi. Ammo yuqoridagi qo'shma so'zlarni frazeologik fe'llardan farqlashimiz joiz, chunki **to show off va showoff** so'zlari ma'nolari bir-biridan farq qiladi: *to show off- to behave in a way which is intended to attract attention or admiration, and which other people often find annoying; showoff- a person who shows off (= behaves in a way intended to attract attention which other people often find annoying)*. Bundan tashqari adj+n va n+n tuzilishli qo'shma so'zlar possessive ya'ni egalik ma'nosini anglatuvchi qo'shma so'zlar hisoblanadi, chunki bunday qo'shma so'zlar shaxs yoki narsa, hayvonga tegishli qarashli bo'lgan xususiyatlar ostida aynan o'sha narsa, shaxs, hayvon tushunchalarini o'zini bildiradi. Misol uchun, *greybeard-* an animal, *a longlegs-* an insect, *couchpotatoe-* a person, *a greenback* – dollar kabi.

Bir soʻz bilan aytganda yuqorida keltirilgan bir-biriga qarama qarshi, oʻz oʻrnida bir- birini toʻldiradigan mulohaza va munozaralar shu soha qiziquvchilarining qiziqishi va bilimni oshirmasdan qolmaydi. Mazkur ishimizning ingliz tilida qoʻshma soʻzlar faslida ham bu mavzuga bildirilgan fikrlar guvohi boʻlgan edingiz. Oʻzbek tilshunosligi bilan solishtirgan holda shuni yana bir karra aytishimiz mumkinki, garchi ingliz tili qoʻshma soʻzlarida ekzosentriklik va endosentriklikning farqlari toʻliq ochib berilmagan boʻlsa-da, bu borada ancha ish qilinganligini guvohi boʻldik. Zero, har bir tilning kelajagi, rivoji uning mustahkam tizimiga, strukturasiga chambarchas bogʻliqdir.

2.3. Oʻzbek tilida “bahuvrihi” lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari

Mazkur mavzuning ilmiy- amaliy talqiniga oʻtishdan oldin shu narsani taʼkidlash lozimki, milliy tilimiz dunyo tillari orasida bahuvrihilarga eng boy tillardan biri hisoblanadi. Oʻzbek xalqi oʻz zamondoshlarini ijobiy va salbiy baholashda bu leksikologik vositadan keng foydalanadi. Maʼlumki, inson tabiatning oliy mahsuli sifatida keng qirrali mavjudotdir. U hayotda oʻz oʻrnini topaman, baxtli yashayman- yaxshi yeyman, yaxshi ichaman, yaxshi kiyinaman (sovuq qotmayman, issiqqa pishmayman), oila quraman, farzand tarbiyalayman, boshpana barpo etaman, daraxt ekaman, tabiatni oʻzgartiraman va yangi narsalarni yarataman degan niyat va maqsadlar bilan oʻzini turli yoʻllarga uradi va turli qiyofalarga kiradi. Va oʻz navbatida zamondoshlari tomonidan ishga, hayotga, tevarak atrofga koʻrsatgan va koʻrsatayotgan munosabati bilan yaxshi-yu yomon baholanadi. Insonga xuddi shu baholar berishda va uning xarakter-xususiyatlarini belgilashda bahuvrihi juda qoʻl keladi. Shu maʼnoda, bahuvrihilar har bir insonning kimligini, uning xarakterli xususiyatlarini (*toshbagʻir, ochkoʻz, shirinsuxan*), tashqi koʻrinishi (*kaltabaqay, novchadaroz*), ichki hislarini (*alamzada, jabrdiyda*), kiyimlari (*kaltayubka, uzunkoʻylak*), tashqi tana aʼzolari (*kalbosh, xumkalla, kaltasoch, olakoʻz, shalpanquloq, tanqaburun, kampirdehanar*), ichki tana aʼzolari (*jigargoʻsha, toshbagʻir*), qiliqlari (*ishbuzar, ikkiyuzlamachi*), dunyoqarashi

(*nukatadon, kaltafahm*), *fe'l-atvori* (*kamgap, badniyat, xushtabiat*), *kayfiyati*(*shirindimog', xushkayf, badmast*), *tevarak atrofdagilarga munosabati* (*hayotda, oilada, o'qish ish joyida, ko'chada, jamoat joylaridagi shaxsning o'zini tutishi, xarakteri*) va *umuman insonni xarakterli imkoniyatlarini tasvirlashda keng qo'llaniladi*. Bahuvrihilarning hayotimizdagi o'rni va tildagi mohiyati borasida yuqorida keltirilgan keng fikr va mulohazalar tadqiqot ishimizning keyingi bob va fasllari uchun dastur-ul amal bo'lishi maqsadida bahuvrihilarga yoxud bahuvrihi termini izohini yana bir bor eslatishni joiz deb hisoblaymiz. Yuqoridagi boblarda eslatib o'tganimizdek, "bahuvrihi" so'zi kelib chiqish nuqtai nazaridan sanskrit tili mahsuli hisoblanadi. Bu atama eski hind tilida "**ko'p guruch**" yoki "**guruch boyi**" ma'nosini anglatadi. Bahuvrihi aniqlovchili (*attributiv*) qo'shma so'zlarning bir turi bo'lib, uning ostida inson shaxsi nomlanishi bilan bog'liq holda yasalgan kompozita (*qo'shma so'z*) lar tushuniladi. Ma'lumki, aniqlovchili (*attributiv*) qo'shma so'zlar ikki komponentdan (tobe hokim) iborat bo'lib, ularning biri ikkinchisini, ikkinchisi esa birinchisini aniqlab keladi. Komponentlar (*qo'shma so'zning aniqlovchi va aniqlanmishlari*) qo'llanilish maqsadlariga ko'ra o'rinlarini almashtirishlari (*nozikbel-belinozik*) mumkin. Bahuvrihining boshqa *attributiv* qo'shma so'zlardan farqi shuki, u orqali ifodalanilayotgan shaxs (*kimsa*) ma'nosi ko'chma - metaforik-metonimik xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni bu qo'shma so'zlar ostida **asosan tirik shaxs(odam)**ning o'ziga xos tomoni, belgisi, uning boshqalardan ajralib turuvchi alohidaligi tushuniladi. Uning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, u **sinekdoxa** (*qism orqali butunni anglatish*) orqali va kishi shaxsini to'la nomlaydi va izohlaydi. So'zimizning isboti sifatida quyidagi misollarga e'tibor qaratishingizni istaymiz: **olako'z** (*ko'zi ola odam, shaxs nomlanishida uning faqat ko'zlari e'tiboga olingan*), **qirg'iyburun** (*burni qirg'iylikiga o'xshash shaxs, burn orqali nomlanayapti*), **shalpangquloq** (*qulog'ining me'yordan kattaligi uchun quloq so'zi bilan butun boshli bir shaxs nomlanayapti*), **chalishoyoq** (*chalish oyoqlari orqali uning egasi nomlanilayapti*) va boshqalar. Yuqoridagi misollarning barchasida odam tanasining bir qismi orqali uning o'ziga suhbatdosh diqqati qaratilgan ya'ni qism orqali bir butun ifodalangan

(sinekdoxa). Odatda **ma'no ko'chishi** (*metafora*) asosida qo'shma so'z komponentlarining semantikasi e'tibordan chetda qoladi. Masalan, "**xumkalla**" bahuvrihi ostida "*ahmoq odam*" tushuniladi, "*xum*" va "*kalla*" so'zlarining lug'aviy ma'nolari soyada qoladi, ko'rinmaydi ya'ni suhbatdoshni xumkalla deb atalishida gapiruvchining nazdida uning kallasi kattaligiga ishora qilinmaydi, tasavvurida katta bosh gavdalanmaydi, balki uning ko'chma ahmoq ma'nosi inobatga olinadi. Shuningdek, bahuvrihi boshqa qo'shma so'zlar bilan u orqali anglashilayotgan narsa, hodisa va shaxs bahuvrihi yasagan so'z komponentlari ma'nosi bilan juz'iy (qisman) bog'liq bo'lsada, aynan shu so'zlar anglatgan ma'nolarga uzviy aloqasi yo'qligi bilan farq qiladi. Binobarin, "**ochko'z**" bahuvrihi so'zini *ochlik* yoki *ko'z* bilan suhbat chog'ida bevosita aloqasi yo'q, negaki bu so'z orqali biz "*yeb to'ymaydigan, nafsini tiyolmaydigan, nafsi buzuvchi yoki biror narsaga o'ch va ortiqcha xirs qo'ygan odam*" ni tushunamiz. Bahuvrihi mohiyatining diqqatga sazovor tomoni shundaki, "**ochko'z**" *tabiatan och bo'lmasligi va xatto ko'r ham bo'lishi mumkin*. Bundan tashqari, ochlik faqat ovqatga nisbatan emas, hayotiy zarur iste'moldagi barcha narsalarga xirs va bahillik sifatini anglatadi. Bundan tashqari yana bir misol "**kaltadum**". Bu bahuvrihi anglatayotgan ma'nolar ham o'ziga xos, sababi shuki biz birinchi, o'z ma'nosida 'dumi kalta jonivor'ni tushunsak, keyingi shaxsga ko'chirilgan, ko'chma ma'noda esa 'Yevropacha kiyingan, kalta kiyim kiygan ayol' degan mazmunda qo'llanilayotganiga guvohi bo'lamiz. Masalan, Kaltadum eshak. ; U, shahardan kelgan kaltadum, domlani boshini aylantirib, unga tegib oldi. Yuqorida keltirgan misollarimizni izohlasak; ko'rinib turibdiki, birinchi na'munada "kaltadum" so'zi eshak so'zini aniqlovchisi sifatida so'z birikmasi hosil qilgan va mazkur qo'shma so'z o'zining qismlari orasidagi semantik bog'liqlikni ham saqlab qolgan, chunki yuqorida hayvon dumining kalta yoki uzunligini aniqlab kelgan. Ammo keyingi misolda "**kaltadum**" so'zi qismlarining orasida semantik jihatdan bog'liqlik umuman yo'q, u o'zi anglatgan ma'noda juda ham uzoqdagi yangi bir so'zni ya'ni shaxsni ifodalab kelgan, lekin uning ma'nosi qisman saqlanib qolgan bo'lsa ham, ayol kiygan kiyimning kaltaligiga ishora qilayapti, o'z ma'nosidan

chekingan. U anglatgan asl mazmun ancha chetda qolgan. Qo'shimcha ravishda boshqa misollarni ham keltirishimiz mumkin, jumladan **“bo'tako'z”** so'zi uning asli ma'nosi “murakkabgillilar oilasiga mansub, binafsha yoki havorang gulli bir yillik begona o't” degani bo'lsa, u biz istagandek bahuvruhini ifodalab, ko'chma ma'noda shaxs tashqi ko'rinishini anglatib kelishi ham mumkin. Misol uchun, *“tuya bolasining ko'ziga o'xshash chiroyli ko'z; shahlo ko'z va shunday ko'zli kishi”*; ya'ni (*Farg'onaning*) *Qizlari sizga o'xshagan bodomqovoq, bo'tako'z bo'ladi. (Shuxrat,Shinelli yillar)* bu yerda qizning ko'zi tuya bolasining ko'ziga o'xshatilmoqda va shu asosda ma'no ko'chmoqda. Aytish joizki, o'zi anglatgan birinchi ma'noda u oddiy ikkita komponentdan tashkil topgan qo'shma so'z sifatida kelgan bo'lib, keyingi o'rinda bahuvrihi, ya'ni inson xarakter-xususiyatini, aniqrog'i tashqi ko'rinishini anglatib kelgan. Shu o'ziga xos jihati bilan bahuvrihi boshqa qo'shma so'zlardan farqlanadi. O'zbek tilining yangi nashrda bosmadan chiqqan besh jildlik izohli lug'atida hamma so'zlar qatori bahuvrihilarga ham yetarlicha o'rin berilgan; astoyidil qayd qilinilgan, ammo ularning aynan attributivli qo'shma so'z yoxud bahuvrihi ekanligi haqida qaydlar yo'q. Shu o'rinda biz sevgan ona tilimiz bahuvrihilarga juda boy ekanligiga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. So'zimizning yaqqol isboti sifatida o'zbek tilidagi bahuvrihilarni, baholi qudrat, kengroq o'rganishga harakat qildik va shaxs tushunchasini yoritib beruvchi har qanday unga xos bo'lgan xarakter, xususiyat, fazilatlarini qolaversa, insonga Olloh tomonidan berilgan beqiyos qirralarini ochib beruvchi yoki zamondoshlari tomonidan berilgan (ijobiy,salbiy) baholarni bildiruvchi bu qo'shma so'zlarni imkoni boricha turlarga bo'lib chiqdik va tahlil qildik. Biz yuqorida tilga olgan o'zbek tilidagi bahuvrihi turlarini va ularga mansub bo'lgan attributiv qo'shma so'zlarni, kengroq mushohada yurgizgan holda, morfologik va semantik xususiyatlarini ko'rsatishga harakat qilamiz. Bu masalalarga ishimizning uchinchi qismida bafurja to'xtalamiz.

III BOB. BAHUVRIHILAR VA ULARNING TURLARI

3.1. Inson qiyofasiga monandlik asosida yasalgan bahuvrihilar

Tadqiqot (magistlik dissertatsiya) si jarayonida milliy tilimizning bahuvrihilarga juda boy ekanligi kuzatildi. U milliy tilimizning barcha ijtimoiy qatlamlarida (*sheva, so'zlashuv va adabiy tili*), kundalik hayotimizning barcha sohalarida (*oila, ish joyi, zamondoshlar davrasi madaniy hordiq ko'rinishlarida*) va asosan insonning yeyish, ichish, kiyinish, qiyofasi va uning hayotdagi obrazi nomlanishi bilan bog'liq hollarda juda qo'l kelishini, til egalari esa bu masalalarda katta ixtirochi va kashfiyotchi rolini o'ynaganliklarini guvohi bo'lamiz.

Mazkur tadqiqotning sarlavhasida nomlanganidek, inson qiyofasini ya'ni odamlarning tashqi ko'rinishi, qaddi qomati, siyrati, yuz ifodasi, afti – angori kabi tomonlarini atash asosida yasalgan 100 dan ziyod til birliklariga to'xtalamiz. Ular inson obrazi ya'ni uning tashqi qiyofasi ulug'ligi, mahobati, salobati (*sersavlat, ulug'sifat, barzangisifat, badhaybat, pahlavonsifat, devsifat, devqomat*) yoki inson ko'rinishida zaiflik (*jonsarak, pajmurda*) kabi ko'rinishlarini anglatish uchun qo'llanilsa:

a) ***“U sokin, kamtarin, muomalada nozik, lekin ulug'sifat”. (Oybek. Navoiy.)***

b) ***“Bir do'kon ayvonidagi temir bochkalar yonida soch va soqoli o'sgan, barzangisifat bir erkak yotibdi. (P.Tursun, O'qituvchi.)***

c) ***“Iyaglari osilgan bu pahlavonsifat kishi minbar zinalariga katta, qo'pol oyoqlarini bir- bir bosib chiqarkan, tovon zarbidan taxtalar g'irchillardi.” (H. G'ulom, Toshkentliklar.) [1-5j O'zb. T. Iz. Lug'.]***

Keyin shu tasavvurning yanada aniqroq chiqishi uchun qiyos, taqqoslash (*devqomat, sarvqad, sarvqomat, oftobro'y, bug'doyrang*) komponentli bahuvrihilar ham uchraydi.

d) “Shu payt divanda o’tirgan bir devqomatga ko’zim tushdi”. (Sharq yulduzi.)

e) “Yuzi gul, sarvqomat, sochi sunbul, Ko’zi nargiz kabi mastona bir kel”. (Habibiy.)

f) “U ovqatni ham yurib yeydigan jonsaraklardan. (Gazetadan.) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]

Mazkur bahuvrihilar ichida inson qiyofasini ijobiy, go’zallik na’munasi (xushqomat, xushbichim, xushtabassum, xushro’y, xushmo’ylov, gulchiroy, guluzor, gulro’, gulbadan, sarviravon, sarvinoz, xushsurat, xushsuhan, serpardoz, jununvash, sohibjamol, noziknihol, pariparkar, gulandom, qoramag’iz, qizilmag’iz, shirindimog’) sifatida baholovchi, misol uchun:

a) “Yupqa oq kigizdan qalpoq kiygan xushqomat qizni avval tanimabman.” (P.Qodirov. Qadrim.) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]

misollar qatorida salbiy xarakterga ega bo’lgan (badhaybat, badbashara, habashbashara, badro’y, badchehra, badqovoq, badsurat, jinninamo, banginamo, banginusxa, badnusxa, badburush) kabi bahuvrihilar ham uchraydi. O’z o’rnida, hali ko’pchilikka tanish bo’lmagan, lekin izohli lug’atimizdan joy egallagan “yelpishtovoq” bahuvrihisiga ham izoh beramiz. Bu so’z o’z ma’nosida “don yelpish uchun ishlatiladigan yassi, yuza yog’osh idish” ni anglatga, ko’chma ma’noda esa “shu narsaga nisbatlashni, unga o’xshash narsani” (kishining beti va sh.k.ni) bildiradi. Misol uchun:

a) “Soqchi mo’ylovdor, devdek, ulkan gavgdali, badbashara bir yigit ekan”. (X. To’xtaboyev. Yillar va yo’llar.)

b) “-Ey taqsir, xato qilibsiz, tushuning, bu majlis! – dedi chil tomirday qotma, novcha katta ko’zli, banginusxa, lekin kiyingan-tovlangan bir shaxs.” (Oybek. Nur qidirib.)

- c) *“Gulsanam qamchi zarbidan chinqirib o’rnidan turgan edi, badburush bir kishi uni qisqichday qo’llari orasiga oldi.” (S.Karomatov, Bir tomchi qon)*
- d) *“U odamlarga picha qarab turdi, keyin yelpishtovoqday keng, solqi yuzi birdan tirjaydi.” (M.Ismoiliy, Farg’ona.)*
- e) *“Qo’ysangchi o’sha yelpishtovog’ingni! Senga shunday jononlarni topib berayki, husnini ko’rib, aqling og’masa hisobmas.” (J. Abdullaxonov, To’fon.) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]*

Mazkur misollardan ko’rinib turibdiki, bahuvrihilar anglatayotgan ijobiy ma’nolarni berishda forsiy (xush – yaxshi, ser- ko’p), salbiy man’oni berishda esa (kam- oz, bad – yomon) so’zlari faol qo’llanilishini qayd qilish mumkin. Aniqlovchi komponenti daraja, miqdor, son, hajm xususiyatlarini oshirib, (sersavlat, sersoqol, serkiprik, serpardoz) m.s

- a) *“Laganlar bo’shayotganda eshikdan bir qora sersavlat odam kirib keldi”. (Pardatursun. O’qituvchi.)*

yoki kamaytirib (kamnamo, kamqon, kamsiqol, kamgo’sht, kamsuhan) misol uchun:

- b) *“Kasallar orasida kamqonlar ko’p”. (Vrach bilan suhbat.)*
- c) *“(Shokir ota) Eti suyakka yopishgan, chuvak yuzi va peshonasi chuqur chiziqlar – burushiqlar bilan quyuq qoplangan kamsiqol bir keksa edi.” (Oybek, Tanlangan asarlar.)*
- d) *“Katta ukam Sirojiddinning ham ahvoli yaxshi emas, u aslida, oriq, kamgo’sht va kasalsimon, rangi o’chgan edi.” (S. Ayniy, Esdaliklar.)*

- e) *“Endi qirqni qoralagan bo’lsa- da, qariyaday sipo, o’ychan, kamsuhan og’asining so’zlariga jon qulog’ini tikadi.” (S. Siyoyev, Yorug’lik.) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]*

Odamning ichki ruxiy kechinmalari ta’siri ostida namoyon bo’layotgan ijobiy qiyofalar (*xushxandon, xotirjam, sarxush, sarmast*) kabi aniqlovchili qo’shma so’zlar qatorida

- a) *“Ko’chada sarxush odamlardek borar edim – dedi Kamoladdin”. (T.Jalolov. Oltin qafas.)*
- b) *“Yo’lda tanish-bilishlar uchrasa, xushxandon ko’rishaman, yarashsa-yarashmasa hazil qilaman.” (S.Siyoyev, Erkaklar ertagi.)*
- c) *“Ahmad xotirjam va jiddiy edi.” (F.Musajonov, Himmat.) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]*

salbiy ko’rinish ifodasini anglatuvchi va ruxan tushkunlik, kayfiyat darajasini anglatuvchi (*g’amzada, alamzada, hastahol, hayolparishon, parishonhol, hayolparast, xafahol, dardmand, kasalmand*)

- d) *“Zindonxonaning devoridagi tuynukdan oy mo’ralab, bu ikkala g’amzadani hayrat bilan tomosha qildi.” (M. Osim. Ajdodlarimiz qissasi.)*
- e) *“-Ollonazar, foytunni keltir, - dedi Islomxo’ja foytunchiga qarab, xafahol qiyofada.” (J. Sharipov, Xorazm.)*

bahuvrihilar og’zaki va yozma nutqlarda ko’p uchraydi. Yana shunday bahuvrihilar borki, ular ijtimoiy hayotimizning ayrim tabaqalari, sektalari yoki ularning ijtimoiy ahvolini turmush darajasini bildiradilar. Bularga *bangibashara, banginusxa, dehqonsifat, darveshsifat, devonasifat, faylasufnamo, falokatzada, telbanamo, jinninamo, avliyonamo* kabi bahuvrihilarni misol sifatida keltirish mumkin. Ms:

- a) *“Uning hayolparast, merov, devonasifat odam ekanligi aftidan va qilg’idan bilinib turar edi”. (M. Osim.Elchilar)*
- b) *“Toshtemir ham keyini toifa oyoqyalanglardan bo’lib, Mirzacho’lga boruvchilar to’piga qo’shildi.” (H. G’ulom. Feruza)*
- c) *“– Hm. Ana shunaqa oyoqyalanglardan qo’rq-da – boshini liqqilatdi Xo’jayor.” (A.Narziqulov. Hayot yolqini) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]*

Inson qaddi-qomati bilan bog’liq bahuvrihilarning yasashida eng e’tiborlisi shundaki, ular orqali inson oyog’idan tortib to boshigacha bo’lgan a’zolarining deyarli hammasi bilan yasalgan attributiv qo’shma so’zlar uchraydi. Fikrimizni misollar orqali quvvatlashga harakat qilamiz va insonning eng boshlang’ich va yuqori a’zosi, kalla (bosh) bilan bog’liq misollardan boshlaymiz.

“Kalla (bosh)”

Bunday bahuvrihilarga *yaltirbosh, qoqvosh, quvbosh, xumbosh, qovoqkalla, kadikalla (xorazm shevasidan), xumkalla, kallaxum, tepakal* kabi misollarni keltirish mumkin. Misollar ichida qo’shma so’z komponentlari o’rinlari almashishi (*xumkalla – kallaxum*) bilan bir qatorda imlo o’zgarishli “*qoqvosh*” misollarini qayd qilib o’tish maqsadga muvofiqdir. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, izohli lug’atlarimizda *xumkalla- kallaxum* so’zlarining sharhi birinchi ma’noda ayni, o’xshash, ikkinchi ko’chma ma’nolarida esa *xumkalla* so’ziga “ahmoq, miyasi aynigan” izohi beriladi, biroq “*kallaxum*” ning “insonni jismonan va ruxan charchashi – stress holatga uchraganligi qayd qilinmagan. *Tepakal* bahuvrihisi ostida sochsiz *kalla*, *bosh* inobatga olinayotganini izohlashga hojat yo’q. Masalan,

- a) *“Majlis zaliga kirsam bir yaltirbosh doklat qilayotgan ekan.”*
- b) *“Tergovchi yosh bo’lsa ham, sochlari to’kilgan, tepakal akan.”*

c) “Xumkalla! Shariat yo’lidan toygan qizning so’ziga ishonasanmi.”
(Oybek, Tanlangan asarlar) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]

Insonning bosh a’zosi albatta soch bilan bog’liq (*oqsoch, qorasoch, jingalaksoch*) bo’lgani sababli, ularga ham misol keltiramiz, lekin bu yerda ayrim bahuvrihilar o’z ma’nosida (*oqsoch – oq sochli odam*), va asta- asta tilda ko’chma ma’noda (*oqsoch – boylar, zodagonlar oilasida yollanib xizmat qiluvchi ayol, cho’ri*) uchrashlarini ham ta’kidlash lozim. Qizig’i shundaki, mazkur so’zning imlo lug’atdagi izohi o’z ma’nosi bilan emas, ko’chma ma’nosi bilan boshlangan.

a) “Bu ayol oilamizda shunday hurmat qilinardiki, uni hechkim oqsoch deb o’ylamasdi.” (Og’zaki nutqdan)

“Peshona”

b) “Eshik oldidagi kravatda 65 yoshlardagi do’ngpeshona o’tirardi.”
(X. Sultonov, Bir oqshom ertagi)

Misoldan ko’rinib turibdiki, “do’ngpeshona” bahuvrihisi ostida erkak kishi- qari chol inobatga olinayapti. Misollarimiz orasida ayollarni ko’zda tutib qo’llanilgan “guljabin” (gul+peshona) gul yuzli attributiv qo’shma so’z ham borki, u orqali ayollar nazarda tutilayotganini sezish qiyin emas: misol uchun,

c) “Guljabinlar davrasida mayliga ming roziman, bir umr bo’lsam asir bo’lsam kamol Dushanbada.” (Uyg’un, Tong qo’shig’i)

“Qosh”

Mazkur so’zga aloqador misollar (*baroqqosh, qalamqosh, qo’shmaqosh, serqosh, kamonqosh*) orasida forsiy (abr- qosh) bahuvrihilari ham uchradi.

d) “U baroqqosh, ko’zi chaqchaygan, afti ishshaygan”.

e) “Qulbachcha va cho’rilar orasida abro’kamon, mo’rchamiyon, pistadahan, sarviravonravonlari juda ko’p.” (Sadriddin Ayniy, Qullar)

**f) “Ochil buva o’tkir qora ko’zli, serqosh, chiroyli yigit bo’lgan.
(A.Muxtor, Chinor)**

“Qovoq”

Bu so’z bilan ikki misol (*badqovoq, bodomqovoq*) uchradi:

**a) “...Yosh bir juvon... , bellari xipcha... bodomqovoq... va o’n sakkiz
yoki o’n to’qqiz yoshlardagi go’zal bir malak.” (Mirmuhsin, Me’mor)**

**b) “Kenja narigi stolda o’tirgan badqovoq yigitga qaradi. (A.Qahhor,
Sarob.)**

“Kiprik”

**c) “Tog’li badahshonlilar orasida qo’shqoshlar va serkipriklar juda
ko’p. (Hikoyadan) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]**

“Ko’z”

Ko’z so’zi bilan yasalgan misollar qatoriga quyidagi misollarni kiritishimiz mumkin: *bo’tako’z, bo’taloqko’z, zag’chako’z, xumorko’z, olako’z, to’rtko’z, baliqko’z, qisako’z*. Qizig’i shundaki, “olako’z” orqali ko’zning shaklan ko’rinish ish xususiyati, oq va qoraning o’zaro hajmiy munosabati ya’ni oq qismi ko’p soqqasi birmuncha ko’tarilgan katta ko’zli odam tushunilsa, zag’chako’zda ko’z soqqasining rangi ya’ni ko’k ko’zli odam anglashiladi. Kezi kelganda shuni ta’kidlab o’tish kerakki, xalq og’zaki ijodida ko’z bilan bog’liq: *olako’z, qorako’z, ko’kko’z, qizilko’z, sariqko’z, kiyikko’z, jayronko’z, ohuko’z, burgutko’z* bahuviyihilaridan keng foydalaniladi. Ular ko’pincha xalq termalarida keng uchraydi:

a) “Ey, olako’z gal bari”. (Xalq og’zaki ijodi)

“Burun”

Bu a’zo bilan bog’liq *qirraborun, qushborun, tanqaborun, qirg’iyborun* misollari ham uchradi.

a) “Doro 1 baland bo’yli qushborun, chiroyli odam edi.”(M. Osim, Ajdodlarimiz qissasi)

“Og’iz”

Inson tanasining muhim a’zolaridan biri og’iz bilan bog’liq *og’ziochiq, og’zikatta, og’zivayron, zaharog’iz, sho’rtumshuq, qushtomoq* bahuvrihlari og’zaki nutqda ko’p uchraydi, lug’atda esa yakka bir forsiy muqobili bor misolga “*kampirdahan*” ga duch keldik:

b) “Eshikdan tishlari tushib, lablari ichiga kirib ketgan, kampirdahan, zag’chako’z bir chol kirib ta’zim qildi. (M. Osim, O’tror)

Misollarning ichida nafaqat og’iz balki uning ichi tish bilan bog’liq bahuvrihlar ham bor.:

c) “Yirik gavgdali, qisiq ko’z, tanqaborun bu odam, aftidan, tillotishning sherigi edi.” (A. Ibodinov, “ Latofat” do’konidagi qatl”)

“Quloq”

Tana a’zolaridan quloq komponentli bahuvrihlar orasida mazkur a’zo ko’rinishi bilan bog’liq bo’lgan (*yalpangquloq,shalpangquloq*) misollari qatorida og’zaki nutqda (*eshakquloq, garangquloq, karquloq, paytavaquloq, oqquloq rus millatini mahalliy xalq o’rtasida nomlanishi*) misollari uchraydi:

a) “U armiyadan bir oqquloqqa uylanib kelibdi.” (So’zlashuv tilidan)

b) “O’rgildim senga o’xshagan paytavaquloq o’zbekdan.” (O’. Hoshimov, Ikki eshik orasi)

c) “Elmurod ... yangi kursantlar qabul qilar ekan, kamgo’sht qirg’iyburun, shalpangquloq... bir jangchi kelib, uning qarshisida to’xtadi.”(Shuhrat, Shinelli yillar) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko’rinib turibdiki, insonning kalla (bosh) tana a’zosi bilan bog’liq bahuvrihilar ko’p va rang –barang. Uning boshqa a’zolari, ya’ni qo’l fors tilidan (*zabardast* va *chapdast*) milliy tilimizdan esa (*yolg’izqo’l*, *yakkaqo’l*, *arzonqo’l* va bahuvrihi komponentlari o’rnini almashtirib kelgan “*qo’lqanot*” (*ayrilmas do’st, birodar ma’nosida*), ko’krak (*yalangto’sh*), bel qismi (*kaltabaqay*, *kaltadum*), oyoq bilan (*yalangoyoq*, *chalishoyoq*, *og’iroyoq*) misollarigina uchradi. Barchasi asosan ko’chma ma’noda, zero og’iroyoq xomilador ayollarni, yalangoyoq kambag’al kishilarni, yolg’izqo’l oilada tanholikni anglatishiga ortiqcha izohning hojati yo’q.

d) “Beso’naqay bitgan kartoshkaday kaltabaqay barmoqlarini yaktak yoqasiga olib borib, serjun ko’kragiga tuflab qo’ydi.” (A.Muxtor, Opa- singillar) [1-5j O’zb. T. Iz. Lug’.]

Eng qizig’i shundaki, insonga uning ko’rinishi orqali baho berishda nafaqat uning tashqi a’zolari orqali balki insonning tomir tomirigacha kirib borilganligini ayrim misollar yaqqol ko’rsatadi. Bularga jigar - *jigarxun*, *jigargo’sha*, *jigarband*, *jigarpora*, *jigarso’xta*, *sertomir*, *oqsuyak*, *kamgo’sht*, *xomsemiz*, *kamqon* misollarini kiritish mumkin:

e) “Bu bo’limda asosan kamqonlar yotadi.” (Hamshiralar tilidan)

f) “Xo’jalar ilgaridan biz arab avlodimiz, oqsuyakmiz deb o’zlarini baland tutib keladi.” (Pardatursun, O’qituvchi)

Bu boradagi kuzatishlarimizga qo’shimcha qilib, yana shu narsani aytish joizki, yig’ilgan misollar ichida xalqimiz bahuvrihilar yasashda stilistik imkoniyatlardan ham keng foydalanadi. Fikrimizni “yuz” so’zi bilan bog’liq ma’nodosh so’zlarni turli stilistik bo’yoqlar asosida berilgan misollarda quvvatlashimiz mumkin.

Bunda yuz neytral leksemasini basharadan tortib, ruxsorgacha (bo'yab) berilishini ko'rsa bo'ladi. Misollar keltiramiz:

- a) *“Alqissa baq- baqaloq mulla Mamasolih bin Mulla Matkarim maxdum bilan bangibashara bir soat chamasi mudrashdi.” (N. Maqsudiy, Laylat-ur qadr)*
- b) *“Eshik ochilib bir gulyuz kirib keldi.” (Hikoyadan)*
- c) *“Gulgunmisiz, gulruxim, dil bog'imda nargizam, quyosh yanglig' chorlaysiz muhabbati durkunim. (E. Ohunova)*
- d) *“Mubtaloman parirog'a, ul ko'zlari ohuga.” (Ya. Mamatxonov)*
- e) *“Qiz ruxida tashvish soyasi,
O'ylanadi ul parichehra,
Balki she'rdir bu qiz doyasi?” (M. Qo'shmonov, Ali Qumbar)*
- f) *“Jamshid ostonada pariruxsorni ko'rib, andak dovdiradi.” (T. Malik, Shaytanat)*
- g) *“Kolxoz shiyponiga yig'ilgan barcha, Keldi Gulbahori xuddi oyparcha. (M. Alaviya)*
- h) *“Hozir olmalar pishgan vaqt bo'lgani uchun menga o'xshash oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshigidan quvlamas ekan. (G'.G'ulom, Shum bola) [1-5j O'zb. T. Iz. Lug'.]*

Faslning yakuni sifatida inson ko'rinishi, uning tana a'zolari va ular bilan bogliq kayfiyatlari asosida yasalgan bahuviyalar qisman sifatlovchi vazifalarida ya'ni ular muayyan bir shaxsga xos belgilarni bildirib kelishi hollari uchrasa, qisman ular mustaqil til birligi sifatida keng qo'llanilayotganligini qayd qilish joiz. Bu esa ,avvalo, xalqimizning tafakkur qobiliyati kengayib, fikrlari esa yanada teranlashib borayotganligini bildirsa, keyinchalik o'z navbatida milliy tilimizni yangi yangi leksik birliklar bilan boyib, uning ifoda qudratini yanada oshib borayotganligiga shahodatlik qiladi.

3.2. Inson xarakterini ifodalovchi yoxud uni farqlovchi bahuvrihilar

Ma'lumki, inson bir-biridan o'zini hatti-harakati va atrof- muhitga qiladigan munosabati va shu asosda namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlari, ruhiyati, ma'naviyati va kayfiyati barqarorligi bilan farqlanib turadi. Bu xususiyatlar har bir shaxsda tabiatan (nasliy) bo'lishi yoki jamoatchilik ta'siri va unga bo'lgan insonning shaxsiy munosabati asosida shakllangan individual ko'rinish orqali yuzaga keladi. Bunda insonning ruhiyati - ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari o'y-fikrlari, maqsad va maslamlari ta'siri ostida uning ma'naviyati- ruhiy pokligi, falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, ahloqiy va shu kabi tasavvurlari natijasida hamda uning kayfiyati- muayyan vaqt daqiqalar ichida o'zgarib turuvchi ruhiy holati inikosi sifatida har bir insonning muayyan xarakter xususiyatlari belgilanadi. Eng e'tiborlisi shundaki, mazkur xatti- harakatlarning uzviy, diomiy takroranishi asosida inson qiyofasi ko'rinishi ham shu ichki va ruhiy kechinmalarga moslashadi, "odat kishining yuziga uradi" va insonni xarakterlovchi belgiga aylanadi. Endi u o'z shaxsiy nomi bilan atalmay, jamiyatda qozongan xarakterli belgilariga qarab nomlana boshlaydi yoxud xalq unga ikkinchi- (*yebto'ymas, chalamulla, valakisalang*) deb nom qo'yadi. Shu asnod tilda yangi- yangi bahuvrihilar yuzaga keladi. O'zbek tilining izohli lug'atida yuqorida zikr qilingan bahuvrihilarga monand 200 ga yaqin aniqlovchlili qo'shma so'z qayd qilingan. Biz ularning ma'nolari ya'ni insonning o'ziga xos xatti- harakati, atrof muhit (tabiat) va jamiyatga munosabati, ma'naviy dunyosi, o'y fikrlari, maqsad va maslamlari ta'sirida yuzaga kelgan holatlarni ifodalovchi, aks ettiruvchi bahuvrihilarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rgandik.

1. Ijobiy ma'noli bahuvrihilar

2. Salbiy ma'noli bahuvrihilar

3. Kuchaytirilganlik ma'noli bahuvrihilar

4. Taqqos (qiyosiy) ma'noli bahuvrihilar

Ijobiy ma'noli bahuvrihilar

Mazkur guruhga ijobiy ya'ni xalq o'rtasidan xush ko'rib, sevib qo'llaniladigan bahuvrihilar kiritildi. Bu bahuvrihilardan nomlovchi quvonib foydalanadi, nomlanuvchi esa maroq bilan eshitadi. Suhbat samimiy kechadi, jarayon rag'bat asosida ro'y beradi. Bu bahuvrihilarning xarakterli xususiyatlari shundaki, ularning birinchi komponenti asosan *ijobiy ma'noli* (*xush-*, *shirin-*, *pok-*, *nek-* (forsiy "yaxshi")) lardan iborat. Eng ko'p uchrovchi ijobiy komponentga "xush" so'zini kiritish mumkin. U bilan *xushnavo*, *xushdil*, *xushgap*, *xushbaxt*, *xushahloq*, *xushfe'l*, *xushtabiat*, *xushxat*, *xushatvor*, *xushtakalluf*, *xushta'b*, *xushxulq*, *xushchaqchaq*, *xushovoz*, *xushtavoze*, *xushyor* misollari uchradi.

a) ***"Hofiz-u sozanda – ja'mi xushnavolarga salom."*** (Muqimiy.)

b) ***"Ruqiya opa o'rta yoshlardagi xushtabiat ayol ekan."***
(O'.Umarbekov, *Ko'k daftarning siri*.)

c) ***"Rais ... qirq besh-elliklar chamasidagi to'lagina, xushchaqchaq kishi edi."*** (N.Fozilov, *Diydor*.)

d) ***"Berdilar ta'lim menga men bilmagan har kordin,***

Ilm-u odobu hunar, fahm etmagan asrordin,

Xushsuhanlik, xushkalomlik hamda xushatvordin,

Hech biri baxtinga yori bermadi, nolon boshim." (Mutrib)

e) ***"Vagonda qolayotgan soldatlar oqko'ngil, xushchaqchaq va xushdil ulfatlardan ajralib qolayotganlariga achinardilar."*** (Z. Fatxullin, *So'nmas yulduz*)

f) ***"Qo'ni – qo'shnilar bilan salomlashib yuradigan xushtavoze bu yigitdan qishloqkampirlari qochishmas edilar."***(M. Osim, *Tilsiz guvoh*)
[1-5j O'zb. T. Iz. Lug'.]

Forsiy “nek” komponentli so’zlarga *nekbaxt*, *nekbini*, *nekbadam* misollarini nomlasa bo’ladi. Bu bahuvrihilar orasida “nekbadam” inson shaxsi nomi sifatida forsiy zabon tillarda ko’p qo’llaniladi. Bu yerda Sadridin Ayniyning “Qullar” romani qahramonlaridan biri Nekqadam obrazini eslash joiz. Nekbaxt bahuvrihisiga jonli misol keltiramiz:

a) “Bir namxush, yolg’zioyoq dala yo’lin boshida Men nekbaxt turar edim bemisl niyat bilan.” (A.Qahhor, Oq o’rik)

Bulardan tashqari “shirin” epiteli (*shirinsol’z*, *shirinsuhan*), “pok” epiteli (*pokdil*, *pokdomon*) misollari inventarimizda mavjud. Misollar orasida bahuvrihi yasovchi ikkala komponentning ma’no mushtarakligi asosida ijobiy ma’no kashf etuvchi *nozikfahm*, *nozikta’b*, *jonfido*, *odamoxun*, *diyomatpesha*, *hozirjavob*, *serzavq*, *odamshavanda*, *havasmand*, *donishmand* qo’shma so’zlari bor.

b) “...Toki diyomatpeshalardan aql- idrok o’rganib, iymoni butun bo’lib qaytsin.” (S. Siyoyev, Yorug’lik.)

c) “Onam yeng shimarib, ushtmoqda non,

Doimo mehribon, doimo jonfido.”(Mirtemir)

d) “O’rtaga havasmandlar chiqsin.” (Tansa zalidan)

e) “Uning ... serg’ayrat, hozirjavob, fikri o’tkir ekanligini o’qituvchilar bilishar edi.” (Mirmuhsin, Umid.)

Salbiy ma’noli bahuvrihilar

Mazkur guruh bahuvrihilari yordamida asosan yomon el-yurt, jamoatchilik tomonidan xush ko’rilmagan, salbiy xarakterga ega bo’lgan insonlarning nomlanishini kuzatish mumkin. Bu insonlar o’zlarining hatti- xarakterlari bilan jamiyatga zarar keltiradilar, shu sababli ular jamoatchilik tomonidan rad qilinadi ya’ni ma’qullanilmaydi. El ularni inkor qilayotganini ularga bergan salbiy nomlar (bahuvrihilar) orqali anglash qiyin emas. Buning diqqatga sazovor joyi shundaki,

salbiy xarakter egalari aniq, lo'nda, sodda, jonli xalq tilida (*lattachaynar, ishyoqmas, gapsotar, yebto'ymas, baxtiqaro*) yoki badiiy shoirona (*oshuftahol, sitamdiyda, diltang*) hamda ko'chim va istiyoralar bilan (*badnafas, boqibeg'am, kamsuqum, qattiqo'l, hardamxayol, do'ppiqaqtaqi*) kabi kimarsalar shaxsan o'z nomi bilan atalganini ko'ramiz. Misollar keltiramiz:

a) *“Mana shunday lattachaynarni ko'rsa, Nazar ota g'ippa bo'g'iladi-yu, ko'zi tinib og'zidan nima chiqqanini bilmay qoladi.” (S.Ahmad, Qadrdon dalalar)*

b) *“Hay bunday badnafas bo'lmaya.” (Oybek, Oltin vodiyan shabadalar)*

c) *“U (Yo'ldosh aka) Kenjaga dunyoni sel olsa, to'pig'ingga chiqmaydigan boqibeg'am bo'lib ko'rindi.” (H.Nazir, Vasiyat)*

d) *“Vrach nima qilarini bilmay, hardamxayol bo'lib turardi.” (E. Usmonov, Yolqin.)*

e) *“Nasiba qanchalik sergap va sermulozamat bo'lsa, shunchalik kamsuqum edi.” (O. Yoqubov, Tilla uzuk.)*

Misollar tahlilidan ko'rinadiki, salbiy tushuncha asosan salbiy ma'no, insonlar xush ko'rmaydigan ma'no anglatuvchi so'zlar bilan bog'liq bo'ladi. Milliy tilimizda bu ma'noga (yomon) so'zi muqobil keladi, ammo yomon so'zli komponentli bahuvrihiga tadqiqot jarayonida duch kelmadik, biroq “yomon” so'zining forsiy ekvivalenti, **“bad”** leksemasi bilan juda ko'p (*badgumon, badhavo, badjahl, badmast, badnafas, badnafas, badfe'l, badxulq, badahloq, badxat, badxo'y, badzabon, badbin*) kabi bahuvrihilarni xalqimiz o'z tilida keng qo'llayotganini guvohi bo'ldik. Misollar keltiramiz:

a) *“Men badbaxtni qarg'amang, qarg'amang onajon!” (Hamza)*

b) *“Badxo'yning beti qora.” (Maqol)*

c) *“Senga aytadigan gapim shuki, - dedi boyvachcha chertib-chertib, - Sen badqadam, badzabon odamsan.” (K.Yashin, Hamza)*

d) *“Qayg’ura bil, lekin badbin bo’lmagil, Qayg’u tabiiy hol, badbinlik yomon.” (Uyg’un.)*

e) *“Xiyol o’tmay Sardorning o’zi kirib keldi. Xiyla badnafs emasmi, kishi bilan bir joyda yotib yeya berganidan xo’p semirib yetilibdi.” (X.To’xtaboyev. Yillar va yo’llar.)*

Ma’lumki, xalqimiz har bir ishni to’liq yakunlanishini, har bir loyihani mukammal chiqishini, har bir maqsad aniq belgilanishini xush ko’radi: *“chala, Kamis, kamko’stli”* narsalarni (kimarsalarni) rad qiladi, ma’qullamaydi. Shu ma’noda, tilimizda **“chala”** komponentli (*chalamulla, chalasavod, chalajon, chalaqursoq*) kabi bahuviyohilar uchradi.

a) *“Murdani ko’rsa, labiga uchug toshadigan chalamulla vrachlarni ko’rgani ko’zim yo’q!” (O’. Hoshimov, Nur borki soya bor.)*

b) *“To’g’onbek chalasavod bo’lsa ham, ilm-fanning qadrini yaxshi biladi.” (Oybek, Navoiy)*

Ayrim belgi bildiruvchi komponentlar borki, ularning salbiy yoki ijobiy ma’nosi o’zi aniqlab kelayotgan hokim komponentga bog’liq. Masalan, xalqimiz (*kamgap, kamsuqum, kamso’z*) bahuviyohilari ostida xarakteri ma’qul ko’rilgan insonlarni nomlasa, (*kamfahm, kamfarosat, kamlhafsala, kamquvvat, kamqon, kamsoqol*) leksemalari orqali xatti-harakati, dunyoqarashi, qiyofasi ma’qul emas kimsalarni nazarda tutadi. Xarakter xususiyatlarni to’laonli, hech bo’lmasa me’yorida emasligiga ishora qilinadi, hayolan ularni mukammal bo’lishini orzu qiladi:

a) *“Bir kamfahm, o’zing ahmoq bolasan, shu esingman axir bir kun o’lasan.” (Murodxon)*

b) *“Bu dori kamquvvatlar uchun.” (Aptekachi tilidan)*

Ma'lumki, milliy tilimizga fors tilidan o'zlashgan **“dil”**- leksemi bor. U tilimizdagi *“yurak, qalb, ko'ngil”* so'zlariga ma'nodosh hisoblanadi. Shu sabab uning tub ma'nosi doimo ijobiy sanaladi, biroq mazkur so'z aniqlab kelayotgan salbiy ma'noli so'zlar borki, ular **“dil”** bilan o'zaro mushtaraklashish, ma'no munosabatiga kirishish natijasida umumiy uchinchi ma'no salbiylashadi. Bularga (*diltang, dilpora, dilxasta, dilxun, dilsiyoh, dilshikasta, dilg'ash, dilafgor*) bahuviyalarini kiritish mumkin:

a) “(Onasi) uni yupatguli so'z topolmay dilxun bo'lardi.” (M. Ismoil, Farg'ona tong otguncha)

b) “U dilporani ikki og'iz so'z bilan xursand qil- dedi Hoji xola To'tiqizga.”

(M. Ismoil, Farg'ona tong otguncha)

Fors tilidan o'zlashgan ikkinchi bir so'z **“diyda”** o'zlashmasi borki, bu so'z ham bahuviyalarda asosiy komponent sifatida (*alamdiyda, jafodiyda, sitamdiyda, zulmdiyda, jabrdiyda*) ko'p uchraydi. Aslida bu so'z forsha **“diydān”**- ko'rmoq fe'lining sifatdosh shaklidir.

a) “O'zi uchun emas, xalq uchun yurt uchun jamiyati alamzadalar, alamdiydalar uchun qon to'kdi.” (Oybek, Tanlangan asarlar)

Analog misol sifatida **“zada”** komponentlari misollarni ham keltirish mumkin: (*alamzada, yurakzada, falokatzada, hayotzada, motamzada, tanbehzada*) misollarini keltirish mumkin.

a) “(M.P) Hozir tong uyquasi elitgan falokatzada do'stining sarg'aygan yuziga qarab uning uyg'onishini kutib o'tirar edi. (M. Osim, Sehrli so'z)

b) “Mijoz kasal emas, hayot azoblaridan to'ygan bir alamzada ekan. (Shifokorlar tilidan)

Tahlil qilingan salbiy ma'noli bahuvrihilar orasida yana shundaylari ham borki, ular o'zlarining ijtimoiy hayotlarida, jamoatchilik ichida, ish joyida, do'stlar davrasida xatto oilasida xush ko'rilmagan xatti- harakatlari natijasida muayyan nomlar olgan shaxslardir. Bularga *o'zboshimcha, o'zbilarmon, gapsotar, shartkesar, cho'rtkesar, betgachopar, damduz, jonhalak, surbet, ko'zbo'yamachi, ikkiyuzlama, baxtiqaro* til birliklarini keltirish mumkin.

a) “Boshqalarning ishini kamsitishni yaxshi ko'radigan bu o'zbilarmon bu gal jinday yon berishga majbur bo'ldi.” (Oybek, Tanlangan asarlar)

Kuchaytirilganlik ma'noli bahuvrihilar

Mazkur guruh bahuvrihilarining kuchaytiruvchi ma'nolari asosan birinchi komponent hisobiga (*peshqadam, sobitqadam haftafahm, jahongashta, oliyjanob, nuktafahm, xudobezori*) amalga oshgani kuzatiladi.

b) “Bu bezbetni qayerdan topdingiz, xudobezori- ku u? – dedi Soliyev o'rnidan turib. (Yoshlik)

c) “Mullavachchalar zehni o'tkirroq sheriklarini “xushfahm”, zehnsizlarini “ haftafahm” deb atashardi.”(M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari)

Kuchaytiruvchi ma'noli bahuvrihilar ichida **so'zlashuv tilidan yoxud jonli xalq tilidan olingan** (*yemsak, kiyimsak, yengiltak, so'kag'on, tekturmas, so'zamol, yalla- beparvo*) kabi misollar ham uchradi:

a) “Mehnatkash xotin o'zini ishga urdi, yengiltak O'rinboy esa alamiga chidolmay, ichib kela boshladi.” (S. Nurov, Yangicha to'ylar muborak)

b) “O'zaro muomala bobida qishlog'imiz xalqi ancha madaniylashib qoldi, so'kag'onlar kamaydi.” (Choyxonadagi suhbat)

Taqqos (qiyos) ma'nosidagi bahuvrihilar

Bu bahuvrihilarning komponentlari ko'pincha qiyos vazifasini o'taydi. Taqqoslanayotgan komponent birinchi aniqlovchi so'z (*ajdarnafts, bulbulnavo, devyurak, xotinchalish*) bilan bog'liq bo'lsa, ayrimlari ikkinchi aniqlnmish so'zga taqqos sifatida (*og'irkarvon, yelqanot, otashqalb, juvonbaxt*) ham uchraydi.

a) “*Shukurjon bilan birga uzun bo'yli, ingichka, xotinchalish bir yigit ham imtihon topshirgan edi.*” (O.Yoqubov, Ota izidan)

b) “(Qizlar:) *Bog'da bulbullar bahor madhini kuylar tinmayin, Jo'r bo'ling vaqt o'tmasin, bulbulnavolar, qaydasiz?*” (Uyg'un, Laqma)

E'tiborlisi shundaki, taqqoslovchi bahuvrihilarda komponentlar o'rinlarini o'zgartirishlari ham mumkin.

a) “... ayni bahor paytida tog'dagi noyob qush va hayvonlar tuxum qo'ygan yoki bolalagan bo'ladi. Ammo miltiq tutgan toshbag'irlarning bu bilan ishi yo'q.” (N. Rahmatov, Betayin ovchilar)

b) “Ey, bag'ritosh, ota onasi bilan ham shunday muomala qiladimi farzand?” (Mahalladoshlar tanbehi)

Taqqoslar ichida allegorik ramzlar, ko'chimlar (*ocharvoh, devqomat, ajdarnafts, shaytonmalay, pariroy, alvastisoch, namozshomro'v* (xorazm shevasi)) kabilar uchraydi:

a) “Chimildiqqa kirsam bir alvastisoch o'tiribdi.” (Kuyovni do'stlariga suhbat)

b) “Bunday odamlarni fanda ocharvoh, ya'ni vampir deyishadi.” (H.Shayxov, Tutash olamlar)

Tahlil qilingan misollar asosida xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, inson xarakterini tushunish, ifodalash, farqlash, qiyoslash bobida xalqimiz o'ta zukko, topqir va ijodiy munosabatda bo'lgan. Nimarsani nima ekanligini, kimarsani kim ekanligini aynan nomlay olgan. Fikrimizni yanada lo'ndalashtirib aytadigan

bo'lsak, narsani nardadek nomlab, "jismlarga" o'ta mos "ismlar" qo'yganligini guvohi bo'lamiz. Pirovard natijada esa milliy tilimizning ifoda qudrati bag'oyat katta, xalqimiz fikrining naqadar teranligini anglaymiz.

3.3. Kasb –kor bilan bog'liq bo'lgan bahuviyalar

Ma'lumki inson dunyoga kelgandan keyin yemog'i, ichmog'i, kiyinmog'i va muayyan boshpanaga ega bo'lmog'i zarur. Bularni topish uchun esa inson biror kasb- kor o'rganishi, egallashi shart. Zero, ular tabiatda tayyor holda uchramaydi yoki birov ularni shundayligicha - beg'araz bermaydi. Shu bois inson o'z umrguzaronligi uchun birorta kasb o'rganishi zarurki, mazkur kasb orqali u o'z hayotiy ehtiyojlarini qoplasin va jamiyatda bekami- ko'st yashasin. Shu ma'noda yig'ilgan misollar ichida insonlarning kasb-kori bilan nomlangan ancha bahuviyalar mavjud. E'tiborlisi shundaki, xalq insonlarga bu nomlarni berishda kishilarning o'z kasblariga tayanib hayot kechirish jarayonida harom yoki haloldan rizq topayotganliklarini ko'rsatadi. Bular ichida xalqning kundalik turmush uchun zarur bo'lgan **oddiy kasblaridan** *tortib (tovuqboqar, qo'ychuvon, holvagar, molboqar, etikdo'z, mahsido'z, po'stindo'z, papaqdo'z, gilamdo'z, zardo'z, imoratsoz)* kabi, e **mahsus soha** (*izquvar, paxtashunos, toshkesar, tunqotar, aspi-jallob, ko'zboylog'ich, vetvrach, zootexnik*) kabi so'zlar uchradi.

a) “Bu yerda (Hindistonda) masxarabozlarni, ko'zboylog'ichlarni, ilon o'ynatuvchilarni ko'rasiz. (Z. Akramov, Hindiston lavhalari)”

b) “Haligi yerda bir mo'ysafid kelib, hassasiga suyalib, tikildi – qoldi o'zi ilgari aspi-jallob ekan. (Oybek, Tanlangan asarlar)

Yuqorida zikr qilingan halol kasb orqali ro'zg'or aylantirayotgan kasb bahuviyalari orasida o'g'irlik, ko'zbo'yamachilik- harom yo'llar bilan (*tomteshar, kallakesar, yo'ltosar, badkarda, badkirdor, badkor, kissavur, qulfbuzar*) umrguzaronlik qilayotgan kasb egalari bahuviyalari ham uchradi.

a) “Azim tajang qimorbozlar, o’g’rilar, kallakesarlar orasida ko’p bo’lgan.” (M. Ismoilov, Farg’ona tong otguncha)

b) “Bu yerda yo’lto’sarlar bor.” (Sh. Toshmatov, Erk qushi)

Misollar ichida kasbni chala egallagan, o’z kasbi bilan boshqalarga xalaqit beradigan yoki hali o’z kasbini mukammal egallamagan (*ustabuzar, ustabuzarmon, ishbuzuqi, chalausta, yarimusta, ishbuzarmon*) kabilar uchradi.

a) “Televizor ustasi chaqirgan edim, usta emas, ustabuzarmon kelibdi. Chala bo’lsa ham ko’rsatib turgan televizorim endi umuman ko’rsatmay qoldi.” (Qo’shni ayollar suhbatidan)

Mazkur mavzu bahuviyihilari orasida ikkinchi komponenti “**-furnsh**” (forscha **furnxtan** – sotmoq fe’lining hozirgi zamon shakli o’zagi) so’zi bilan qo’llanilgan ko’pchilik aniqlovchili qo’shma so’zlar uchradi. Bularni semantik- struktural jihatdan ikkiga bo’lish mumkin:

1. O’z (tub) ma’noli bahuviyihilar

2. Ko’chma (metaforik, metonimik) bahuviyihilar

O’z (tub) ma’noli bahuviyihilar

Bu bahuviyihilar ham aniqlovchi va aniqlanmish komponentlardan iborat bo’lib, furnsh komponenti aniqlanmish vazifasida keladi va “sotuvchi” ma’nosini anglatadi. Aniqlovchi komponentlar esa zikr qilinayotgan kasb egasi (furnsh – sotuvchi) ning nimalar bilan savdo qilayotganini aniqlab keladi, ularda ma’no ko’chishi mavjud emas. Bunday bahuviyihilarga *ipakfurnsh, do’ppifurnsh, dorifurnsh, donfurnsh, mevafurnsh, holvafurnsh, nosfurnsh, dokafurnsh, gilamfurnsh, bo’yrafurnsh, bo’zafurnsh, bodafurnsh, paxtafurnsh, qulfurnsh, terifurnsh, o’tinfurnsh, hasipfurnsh, pistafurnsh, g’o’zafurnsh, qo’yfurnsh, qandolatfurnsh, qatiqfurnsh, rovochfurnsh, rezavorfurnsh, guruchfurnsh, sabzavotfurnsh, molfurnsh, junfurnsh, somsafurnsh, salatfurnsh* misollarini kiritish mumkin. Bu bahuviyihilar orasida *eskirgan, arxaik (arxaizm qulfurnsh,*

bo'yrafurush) va yangi neologik (*neologizmlar* *salatfurush*, *morojnoefurush*, *mebelfurush*, *sotkafurush*, *fatafurush*) til birliklari bor. Neologizmlar sifatida berilayotgan bahuvrihilar izohli lug'atlarimizda hali qayd qilinganlaricha yo'q, ular asosan kundalik so'zlashuv tilimizda, ko'pincha og'zaki nutqda uchraydi. Neologik bahuvrihilar orasida aksariyat aniqlovchi komponentlarning tub ma'nosi aynan bir narsani (*morojnoe* – muzqaymoqni, *sotka* – uyali qo'l telefonni, *fata* – nikoh ko'ylagini) anglatadi, biroq “ *salat*” komponenti esa xalq tilida avvalo “ *achchiq- chuchukni*” keyin esa barcha tuzlangan, sho'r, taxir, achchiq, yarim chuchuk, chuchuk, maxsus spetsiyalar bilan tayyorlangan ko'pincha koreys kulinariyasi bilan bog'liq holda bozorlarimizga kirib kelgan ishtaha ochar yeguliklar tushuniladi. Hozirgi kunda bozorlarimiz rastalarida bunday salatlar o'zlarining maxsus o'rinlariga ega. Xalqimiz to'y – tantanalari, ziyofatlari, ulfatlar davrasi hatto oddiy oila dasturxonida ham mazkur salatlarni uchratish mumkin. Hozirgi kunda salat so'zi ostida salat o'simligidan tayyorlangan yeguliklar ham tushuniladiki, bu taom salat o'simligi barglarini shirali suvga botirib olingan holda dasturxonga tortiladi. Bargning sho'rtak, taxirroq tami va shirali suvning mazasi aralashib, u iste'molchi uchun hushxo'rlik yaratadi. Kezi kelganda yana shu narsani aytish kerakki, “*nosfurush*” bahuvrihisi tub ma'nosida nos sotuvchini anglatga, og'zaki nutqda o'z kasbini yaxshi tushunmaydigan, malakasiz, yoki bo'lar bo'lmas gap sotadigan odamlarni nomlash uchun ham ishlatilayapti. Masalan, “*Obbo. Nosfurushey*” iborasi yuqoridagi ma'nolarda, so'zlashuv tilida, ayniqsa, ulfatlar davrasida uchrab turadi.

Ko'chma (metaforik, metonimik) bahuvrihilar

Ko'chma (metaforik, metonimik) bahuvrihilarga (*tanfurush*, *elfurush*, *vatanfurush*, *yurtfurush*) kabi til birliklarini kiritish mumkin.

a) “*Fuod afandi tanfurushlar gumashtasi bo'lib, qora qabih bir mahluq edi.*” (M. Ismoilov, Farg'ona tong otguncha)

b) “... *mol- mulk to'plovchi elfurushlarning qadami tindi.* (A.Muhtar, Azamat vodi)

Xalqimiz og'zaki nutqida "furush" so'zi bilan yasalgan ayrim qo'pol, vulgar, jargonsifat bahuvrihilar borki, ular tabulik xususiyati kasb qilishgan, lug'atlarda ham qayd qilinmagan. Ularning birinchi komponentini qo'llash jamoatchilik tomonidan xush ko'rilmaydi, kundalik hayotda tabu hisoblanadi. Ko'cha tilida asosan so'kishlarda ishlatiladi. Biz ularni "tabu bahuvrihilari" deb nomladik va mazkur ishimizda jonli misollar keltirib, qayd qilib o'tirishni maqul ko'rmadik.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz rivoji, jamiyatimidagi o'zgarishlar, milliy tilimiz so'z boyligini oshib borishiga ijobiy ta'sir qilgan yangi- yangi kasblarning paydo bo'lishi, o'z navbatida yangi- yangi til birliklarining yaratilishiga olib kelgan.

3.4. Affiksoidlar bilan yasalgan bahuvrihilar "Xo'r" affiksoidi bilan yasalgan bahuvrihilar

Tadqiqotimizda yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, biz o'rgangan adabiyotlarda va jonli tilimizda, ayniqsa, xorazm shevasida forsiy affiksoidlar yordamida yasalgan bahuvrihilar mavjud, jumladan *-xo'r*, *-parast*, *-go'y*, *-furush*, *-parvar*, *-sevar*, *-vachcha*, *-shunos* kabilar ularning ko'pchilikni tashkil qiladi. Quyida biz ulardan ayrimlariga kengroq to'xtalamiz. Ma'lumki, tilshunoslikda muayyan affiks (prefiks, suffiks) larning leksemalarga aylanishi (*ser* prefiksi, *furush* suffiksi kabilar) yoki ayrim leksemalardan so'z yasalishi jarayonida suffiks yoki affiks ma'nolarini olishi hodisasi orqali yuzaga kelgan til birliklarida qatnashgan affiksalar affiksoidlar deb ataladi. Bunda mazkur affiksoid so'z yasalishi vositasi sifatida affiks, so'z yasalishi modeli sifatida alohida olingan so'z ma'nosini kashf etadi. Shu ma'noda ular yarim affikslar yoki yarim so'zlar sifatida ham tushuniladi. Bunday affikslarga *-shunos*, *-kor*, *-kash*, *-xon*, *-do'z*, *-gar*, *-soz*, *-paz*, *-boz*, *-xo'r*, *-parast*, *-go'y*, *-dor*, *-bon*, *-furush*, *-dosh*, *-vachcha* kabilarni kirgizish mumkin. Mazkur affikslar ichidan tadqiqot jarayonimizda "xo'r" morfemasi bilan talaygina til birliklari uchradi. Mazkur morfema o'zi qo'shilib kelgan so'z anglatgan yegulik, ichimlik turlarini doim iste'mol qiluvchi yoki dam-badam iste'mol qilishni yaxshi ko'ruvchi shaxs oti yasagan – *kabobxo'r*, *etxo'r*,

qovunxo'r, nonxo'r, norinxo'r, sutxo'r, bo'zaxo'r, aroqxo'r, araqxo'r, go'shtxo'r, bodaxo'r, araqxo'r, oshxo'r, palovxo'r, qimizxo'r, qaymoqxo'r, sharobxo'r, tuxumxo'r – bular tub leksik ma'nosida tilda qo'llaniladi yoxud o'zlarining fors tilidagi yemoq, ichmoq ma'nolarini saqlab qolishgan. Xo'r affiksoidi bilan yana bir qancha so'zlar yasalganki, ular ko'chma ma'no kashf etishgan – *harfxo'r, poraxo'r, xunxo'r, xudoyixo'r, qonxo'r, haromxo'r, qasamxo'r, ontxo'r, odamxo'r, gapxo'r, baloxo'r, mardumxo'r, o'limtikxo'r, o'limsaxo'r, o'liksaxo'r, foydaxo'r, rishvatxo'r, riboxo'r* – misollardan ko'rinib turibdiki, xo'r affiksoidining yeyish, ichish ma'nolari ko'chma ma'no kashf etishgan ya'ni ular orqali yeyilmaydigan narsaning yeyilishi (*poraxo'r*) yoki ichilmaydigan narsaning ichilishi (*qasamxo'r*) kuzatiladi. Misollarga yana chuqurroq qaralsa, ularning semantik ma'nolari yeyish ichishdan ham tashqariga chiqqanligini anglash mumkin.

Inventarimizdagi misollar orasida ayrim bahuvrihilar borki, unda “xo'r” – yeyuvchi, ichuvchi ma'nosi tugal saqlanib, biroq yeyish ichishni o'ta yoqtiradigan, xush ko'radigan, ko'p yeydigan xatto xarakter xususiyatiga aylanganlik (*tuxumxo'r, sharobxo'r, etxo'r, qaymoqxo'r, norinxo'r, aroqxo'r, bodaxo'r, bo'zaxo'r, sutxo'r, nonxo'r, qovunxo'r, kabobxo'r, palovxo'r, oshxo'r, qimizxo'r*) ma'nolarini kashf etilganligini ko'ramiz.

- a) ***“Oilamizning barcha a'zosi palovxo'r. Haftaning to'rt kunida uyda palov pishmasa, barchaning xunobi oshadi.” (Qo'shnilar suhbat)***
- b) ***“Mehmonlar Toshkentlik. Barchasi o'ta qimizxo'r. Oyda ikki marta toqqa- biznikiga qimiz ichish uchun kelishadi.” (Cho'ponlar suhbatidan)***
- c) ***“Bir kabobpaz bor-u, kabobxo'rdan darak yo'q.” (I. Rahim. Taqdir)***

E'tiborlisi shundaki, misollar ichida sinonimik bahuvrihilar (*o'laksaxo'r- o'limtikxo'r, odamxo'r – mardumxo'r, go'shtxo'r- etxo'r, palovxo'r- oshxo'r, xunxo'r- qonxo'r, qasamxo'r – ontxo'r, riboxo'r- foydaxo'r, poraxo'r- rishvatxo'r*) ham ko'p uchradi.

- a) *“O’sha qonxo’rlar meni o’ldirib ketisha qolsa bo’lmas ekanmi?!” (O’. Umarbekov, Yoz yomg’iri)*
- b) *“O’zbekning odati: xunxo’r dushmani kelsa ham bo’sag’adan qaytarmaydi.” (S. Nurov, Maysalarni ayozi urmaydi)*

Ma’nodosh so’zlar sonining uchga *riboxo’r – rishvatxo’r – sudxo’r* va to’rtga *oshgan – o’limsaxo’r- o’limtikxo’r – o’laksaxo’r – murdaxo’r* uchradi.

- c) *“Sen o’limsaxo’r, murdaxo’r bir hayvonsan.” (S. Ayniy, Jallodlar)*

Antonimik bahuvrihilar ma’nodosh bahuvrihilar nisbatan oz, hammasi bo’lib ikkita (*halolxo’r- haromxo’r*) uchradi.

- a) *“Haromxo’rlarga biz doim kushanda,
Halolxo’rlarga yor “mushtum” chilarmiz
Tomoshga chiqqan ja’mi fuqaro
Halolxo’r, xizmatkor, dehqon, bechora.” (S.Abdulla, Xushkeldi)*

“Xo’r” bilan yasalgan bahuvrihilarining komponentlarini o’zaro ma’no munosabati nuqtai- nazaridan chuqurroq tahlil qiladigan bo’lsak, ularning asosiy komponenti (hokim so’z – aniqlanmish) va mazkurlarni aniqlab kelayotgan (tobe so’z- aniqlovchi) anglatayotgan ma’noga bevosita aloqadorligini qayd qilish joiz. Fikrimizni shunday tushunishni xoxlardikki, “xo’r” yeyuvchi, ichuvchi ma’nosida o’zining aniqlovchisini (*nafaqaxo’r, foydaxo’r, moyanaxo’r- ko’chma ma’noda, etxo’r, sutxo’r, palovxo’r - tub –asl ma’noda*) bevosita o’zi “yeydi” va “ichadi”, o’z manfaatini ko’zlaydi. Faqat “g’amxo’r” misolida, “qahramonning birov, ikkinchi bir shaxs (xushko’rgan narsalari yoki kimsalari) manfaatini ko’zlab ish tutishi anglashiladi, begona uchun qayg’urayotganligi, hamdardligi, hech bo’lmasa sherikligi tushuniladi.

- a) *“Yuragidagi shunda g’am-g’ussani ko’tarib, yana singlisiga onaday, otaday mehribon va g’amxo’r akadan ayrilish!...” (Oybek, Tanlangan asarlar)*

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz rivoji, jamiyatimidagi o'zgarishlar, milliy tilimiz so'z boyligini oshib borishiga ijobiy ta'sir qilgan yangi-yangi odatlarning paydo bo'lishi, o'z navbatida yangi- yangi til birliklarining yaratilishiga olib kelgan.

3.4.1. “Go'y” affiksoidli bahuvrihilar

Mazkur affiksoid forsiy *“guftan”* (*gapirmoq, so'zlamoq, hikoya qilmoq*) fe'lining hozirgi zamon go'y shaklidan olingan. Milliy tilimizda esa affiksoidga aylanib, o'zi birga qo'llaniladigan so'zlarda aytuvchi, gapiruvchi, so'zlovchi, hikoya qiluvchi ma'nolarini kashf qilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida uning aytuvchi va gapiruvchi ma'nolari qayd qilingan. Bu affiksoid bilan *badgo'y, badihago'y, dougo'y, labbaygo'y, kalimago'y, nazmgo'y, nasihatgo'y, maslahatgo'y, nomgo'y, ochiqgo'y, rostgo'y, qasidago'y, qissago'y, hasadgo'y, haqgo'y* bahuvrihilari uchradi. Xalq og'zaki tilida esa lug'atda qayd qilinmagan *yo'lgo'y, hazilgo'y, latifago'y, chingo'y* misollari uchraydi. Kezi kelganda, go'y affiksoidining o'zi yasab kelgan bahuvrihilarda umumiy ma'no nuqtai nazaridan farqlanishini qayd qilish lozim bu farqlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin. Shaxs xarakterini anglatuvchi (*ochiqgo'y, rostgo'y, labbaygo'y, hasadgo'y, haqgo'y*) bahuvrihilar. Masalan, *labbaygo'y* bahuvrihisi arabcha- *labbay* va forsha go'y so'zlaridan yasilib, *laganbardor, podxalim* ma'nosini anglatadi, kattaning topshirig'i va vazifalarini bajarishga doimo tayyot turgan kishini bildiradi:

- a) ***“Hayotda labbaygo'ylar ko'p, lekin Holmatdaqasi kam. Shu ma'noda “Holmat” shaxs nomi ham salbiy ma'no kashf etib, uning ostida laganbardor- labbaygo'ylar tushuniladi.” (O'zbek tili adabiyoti o'qituvchisi sharxi)***
- b) ***“U haqiqatni tilga kirita oldi, haqgo'ylar qalbiga yo'l topa oldi.” (Gazetadan).***
- c) ***“Ichi qora, hasadgo'y kishi aqlli va talantli kishilardan o'rganish o'rniga ularga bahillik qiladi.” (R. Usmonov, Odobnoma).***

Shaxs kasbini anglatuvchi bahuvrihilar

Bu bahuvrihilardan go'y affiksoidi yordamida muayyan shaxslarning hayotiy mashg'uloti (nazmgo'y, qissago'y, qasidago'y, badihago'y) deyarli kasb darajasiga aylangan ishlari (kalimago'y, duogo'y) yoki hobbilari(hazilgo'y, nasihatgo'y) ni anglash mumkin.

d) “- *Yolg'on!- dedi G'aybarov. Men badihago'y emasman.*”(*M.M.Do'st, Galatepaga qaytish*)

Qasidago'y bahuvrihisi esa nafaqat qasida yozuvchi shoir, qasidanavisni bildiradi, balki u ko'chma ma'no- xushomadgo'ylik bilan ko'kka kot'arib maqtovchi, madhiyago'y, maddoh ma'nosini ham anglatadi:

e) “*Qasidago'yligi aftidan bilini turgan shoir Abu Mansur taxt ro'parasiga kelib ta'zim qildi.*” (M.Osim, Karvon yo'llarida)

Qissago'y bahuvrihisi qissa yozuvchi, qissanavis ma'nosini beradi:

f) “*Qissago'ylar, tarixnavislar ana shu yerlar (cho'llar) fojiasi haqida, afsuski, yodgorliklar va kitoblar qoldirib ketmaganlar.*” (Mirtemir, A.Po'lat, Sirdaryo sepi)

Bu bahuvrihi asosida qissa aytish yoki o'qish san'atini o'rgatuvchi soha qissago'ylik ham shakllangan:

g) “*Qissago'ylik shu yerda tugadi. Kamoladdin tirsaklarini stolga tirab ikki qo'li bilan boshini ushlab qoldi.*” (T. Jalolov, Oltin qafas)

Mazkur misollar orasida ayrimlari borki, ularning ma'nosi milliy tilimizda nafaqat kasb yoki xarakterni bildiradi balki inson shaxsining boshqa g'ayritabiiy, aql bovar qilmaydigan mo'jizaviy tomonlariga ham ishora qiladi. Bunday bahuvrihilarga duogo'y aniqlovchili qo'shma so'zni misol keltirish mumkin. Bu so'z tilimizdan

quyidagi ma'nolarni kashf etgan, chunonchi o'zbek tilining izohli lug'ati uni quyidagicha sharxlaydi:

1. Duo qiluvchi, duo o'quvchi: biror tilak bilan xudoga yolvoruvchi

**a) “O'tirganlar dast turib, xon duogo'yiga qulluq qiladilar.
(S.Siyoyev,Avaz)**

2. Kimsaga yaxshiliklar tilovchi; mehribon

b) “Sen bo'lgaysan duogo'yim, Jonim ena xush qol endi.” (Murodxon)

3. Duolar o'qib yoki yozib go'yo ins jinslarni qaytaruvchi, shu yo'l bilan kasallarni davolovchi shaxs

4. Issiq- sovuqchi, azayimxon

**c) “Men shu vaqtgacha duogo'ydan hech shifo topmaganman...-
dedi Qalandar degan bandi.” (S.Ayniy, Doxunda)**

Yig'ilgan misollarimiz ichida bulbuligo'yo bahuvihi ham mavjud. U avvalo – bulbul kabi so'zlovchi, kuylovchi ma'nosini anglatadi, keyinchalik kundalik hayotimizda haddan tashqari ko'p gapiruvchi, vaysaqi salbiy ma'nolariga ham ega. Bu bahuvihidagi 'go'yo' komponenti fors tilida ikki ma'noga ega. 1. Ergashtiruvchi bog'lovchi so'z turkumiga oid bo'lib, o'xshash, xuddi, misli ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi:

a) “G'ulomjon suyunganidan yerda yurmas, go'yo osmonda uchar edi.” (M. Ismoilov, Farg'ona t.o.)

Bu so'zning ikkinchi ma'nosi ham borki, u eskirgan bo'lib 'gapiruvchi, notiq ma'nosini' anglatgan. Bu ikkala ma'no ham, misollardan ko'rinib turibdiki, fors tilidan o'zbek tiliga to'la ko'chgan. Uning fors tilidagi ovoqli – filmi g'oya – ovoqli film, xushnutq, xushsuhan – notiqi go'yo va matematika sohasida 'ratsional' ma'nolari bor. Bu ma'nolar og'zaki nutqda uchrab tursalarda, hali yozma tilimizga qabul qilinganlaricha yo'q, binobarin ularni lug'atlar ham

haligacha qayd qilishmagan. Eng qizig'i shundaki, bu so'z qo'shilib yozilib bahuvihi sifatida ko'cha ma'noda salbiy xarakterga (vaysaqi, ko'p so'zlovchi) ma'nolariga ega bo'lsa, so'z birikma sifatida, bulbuli go'yo imlosida, u 1. Juda yaxshi sayraydigan va odamdek gapiradigan bulbul, ertaklarda; 2. Yaxshi va biyron gapiradigan odam:

b) “Sizlar hozir bamisoli bulbuli go'yosiz.” (P. Tursun, O'qituvchi)

ma'nolarini anglatadi.

3.4.2. “Parvar” affiksoidli bahuvihi

Inventarimizda mazkur affiksoid bilan qo'llaniluvchi o'ttizdan ortiq bahuvihi mavjud. Ma'lumki, “parvar” leksemasi forsiy parvardan fe'lining hozirgi zamon o'zagidan yasalgan va fors tilida mazkur (parvar) o'zakda hozirgi zamon shaxs qo'shimchalari qo'shilib, *fe'li muzore* (hozirgi zamon) yasaladi. Bundan tashqari parvar leksemasi fors tilida qo'shma so'zlarning ikkinchi komponenti sifatida (otashparast, mansabparast) keng qo'llaniladi va u affiks emas, balki qo'shma so'zning hokim (aniqlanmish) bo'lagi deb qayd qilinadi. Mazkur komponentli fors tilidagi so'zlarning ko'pchiligi o'zbek tiliga qabul qilingan, imlo, talaffuz va ma'no jihatdan to'la o'zlashgan biroq parvar so'zi tilimizda hali ayrim, alohida leksema sifatida shakllanmagan, biz unga affiksoid sifatida qaraymiz, ammo kundalik hayotimizda, so'zlashuv tilimizda biror narsani yaxshi ko'rib va uni chin qalbdan ezozlaydigan odamlar haqida gap ketsa va mavzu suhbatdoshlarga aniq bo'lsa, gap nima haqida ketayotganligini qayta takrorlab o'tirmay – *Ha, u haqiqiy parvar inson* -yoki aks hollarda – *Unaqa parvarlarni ko'pini ko'rganmiz!* – qabilida aytilgan fikr mulohazalar uchrab turadi. Yig'ilgan misollarning semantik sintaktik tahlilidan oldin, ularning barchasini qayd qilib o'tish va buning natijasida o'quvchilarni yig'ilgan misollar bilan aynan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz, zero tahlilda ularning ayrimlarigagina to'xtalamiz. Ular quyidagilar: *do'stparvar, yetimparvar, maorifparvar, ilmparvar, marifatparvar, odamparvar, insonparvar, oilaparvar, sulhparvar, soyaparvar,*

haqparvar, haqiqatparvar, dilparvar, adolatparvar, g'aribparvar, kambag'alparvar, dehqonparvar, vatanparvar, bolaparvar, bechoraparvar, molparvar. Bulardan tashqari og'zaki nutqimizda *gulparvar, o'tparvar, ekinparvar, parrandaparvar, qushparvar, tovuqparvar, qo'yparvar, bog'parvar, qarindoshparvar* kabi bahuvrihilar uchraydi va mabodo bunday qo'shma so'zlar vaziyat nuqtai nazaridan yoki ayrim shaxslar tilidan favqulotda uchrab qolsalar ham, ular suhbatda umumtushunarli bo'ladi, kezi kelganda shuni aytish kerakki, "parvar" so'zining ma'nolarini to'la bilgan istagan bir kishi, uning bilan bog'liq holda o'zicha, shaxsiy – individual til birliklari yasashi mumkin. Bunday holatlar, odatda, so'zlovchining nutqi uchun zarur so'zni topishga qiynalayotganada yoki aksincha mavzuga ijodiy yondashishga harakat qilganida yuzaga keladi. Masalan : o'qishda qiynalayotgan, imtihonlardan o'ta olamy yurgan studentlarga yordam berishni xush ko'radigan o'qituvchilarni talabaparvar – yoki bilimga emas bahoga qiziquvchi studentlarni "bahoparvar" deb nomlanishi orqali ko'zda tutilgan denotat (narsa, kimarsa, hodisa) barcha suhbat qatnashchilariga tushunarli bo'lishini izohlashga hojat yo'q. Misollar keltiramiz:

- a) *"Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar." (Oybek, Navoiy)*
- b) *"Dilimda to'xtamas g'am, Mehribon dilparvarim bordir." (Habibiy, Devon)*
- c) *"Sultonqorini yonimizga chaqirishimiz kerak: dehqonparvar, fuqaroparvar kishi ekan." (J. Sharipov, Xorazm)*
- d) *"Adolatparvar bo'lish oson, ammo e'tiqoding uchun kurashish qiyin." (F. Musajonov, Himmat) [1-5j O'zb. T. Iz. Lug'.]*

Misollarning ma'no tahlili chuqurroq qilinadigan bo'lsa, parvar komponenti o'zining fe'llik xususiyatini saqlab, o'zi birga kelayotgan komponentni muayyan kelishiklarda boshqarib keladi. Masalan gulparvar - gulni parvarish qiluvchi, yetimparvar – yetimni parvarish qiluvchi ma'nolarini bildiradi. "Parvar" affiksoidi bilan yasalgan qo'shma so'z bahuvrihilar shu darajada keng qamrovli bo'lib

ketganki, ularda ma'no mushtarakligi yuzaga kelib, *parvar* so'zining ma'nosi o'ziga birga kelgan komponent anglatayotgan tushunchani to'la anglatish uchun uning "parvarishlamoq" ma'nosi kengayib, umumiy lashib va hatto ko'chma ma'nolar ham kashf qilganini ko'ramiz. Masalan, *yetimparvarda* – *boquvchi*, *do'stparvarda* – *qadrlovchi*, *ilmparvarda* – *yoyuvchi*, *tarqatuvchi*, *ma'rifatparvarda* – *qadrlovchi*, *tarafini oluvchi*, *oilaparvarda* -*g'amxo'rlik qiluvchi*, *sulhparvarda* – *yarashuvchi*, *haqiqatparvarda* – *kurashuvchi*, *fuqaroparvarda* – *yonini oluvchi*, *g'aribparvarda* – *boshini silovchi*, *dinparvarda* – *qo'llab*, *quvvatlovchi*, *insonparvarda* – *insonlarni xush ko'ruvchi* ma'no variantlariga ega. Misollar tahlilining diqqatga sazovor joyi shundaki, "parvar" so'zi bilan yasalgan bahuvrihilar asosan ijobiy ma'noda o'zi birga kelgan komponent nomlovchi narsa yoki hodisaga "*chin qalbdan yaxshi munosabatda bo'lishi*, *dildan e'zozlovchi*, *unga g'amxo'rlik qiluvchi*, *o'z navbatida tashvish yeyuvchi shaxslar*" ni bildiradi. Faqat bir bahuvrihida – "**soyaparvar**" misolida, uning soyani xush ko'ruvchi, soya salqin joylarni o'zgalarga yaratib berish uchun g'amxo'rlik qiladigan shaxsdan tashqari "*ishyoqmas*, *yalqov*, *ish qilmay*, *zahmat chekmay soya salqin joylarda yotishni xush ko'radigan dangasa shaxslar*" – salbiy ma'nosiga ega. Bu so'z nazdida nafaqat insonlar ko'zda tutiladi, balki o'simliklar ham tushuniladi. O'zbek tilining izohli lug'ati mazkur qo'shma so'zga – uning semantik ma'nosiga jiddiy to'xtalgan va jonli misollar bilan keng izohlagan. Quyida izohni aynan keltiramiz:

Soyaparvar – (soyani yaxshi ko'ruvchi; soyada o'stirilgan) 1. bot. soyada o'sadigan, soyani yaxshi ko'radigan

Soyaparvar o'simliklar.

2. salb. Ishlamay soya salqin joylarda yotishni yaxshi ko'radigan, ishyoqmas; yalqov.

a) "*Men kuchimni, terimni to'kay, foydasini soyaparvar boylar ko'rsin. Men ikki qo'limni burnimga tiqib qolaveray. Qani insof?!"*
(Oybek, *Tanlangan asarlar*)

b) “Senga o’xshagan soyaparvar, bo’yni yo’g’onlar o’zini salqinga urib, jo’jaxo’rozning sho’rvasini ichib o’tirganda, xotinlar terlab pishib ketmon chopgan.” (S. Ahmad, Qadrdon dalalar)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, milliy tilimiz vakillari fors tilidan parvar so’zi bilan yasalgan birqancha (ilmparvar, adolatparvar) so’zlar bilan bir qatorda mazkur “parvar” affiksoidiga ijodiy yondashib, uning yordamida milliy tilimizda ham yangidan yangi (bolaparvar, oilaparvar, yetimparvar) kabi qo’shma so’zlar yaratgan, xatto ularning ayrimlarini funksional stili (qo’llanilish sohasi) kengaygan va ko’chma ma’nolar ham (soyaparvar) olishgan. Bu holatlar doimo tillar rivojiga ijobiy ta’sir qiladi, tillarning o’zaro samimiy so’z o’zlashtirishini tabiiyligini ko’rsatadi va lug’at tizimini boyitadi.

3.4.3. Parast affiksoidli bahuvrihilar

Milliy tilimizdagi “parast” affiksoidi forscha **“parastidan”** fe’lining hozirgi zamon o’zagidan yasalgan. Undan tashqari bu affiksoid fors va o’zbek tilidagi aniqlovchili qo’shma so’zlarning ikkinchi komponenti sifatida qo’llanilib, “biror narsaga moyil yoki uni kuchli hurmat qiluvchi, sevuvchi, sig’inuvchi ma’nolariga (*otashparast, xudparast- egoist, vatanparast*) ega. Forscha “parastidan” fe’lining esa mazkur tilda “*sig’inmoq, ta’zim etmoq, xizmat qilmoq va hurmat qilmoq e’zozlamoq*” ma’nolari mavjud. Bu til birligi fe’l sifatida hali o’zbek tiliga o’zlashmagan, “parast” affiksoidi bilan esa bir qator fors tilidan yoki fors- arab tillari aralashmasidan yasalgan (*amalparast, butparast, molparast, otashparast, jaholatparast, ishratparast, dunyoparast, mansabparast, manfaatparast, mayparast, maishatparast, mulkparast, nafsparast, haqqparast, haqiqatparast, ishratparast, aqidaparast, oftobparast, eshonparast, shuhratparast*) qo’shma so’zlarini o’zbek tili izohli lug’ati qayd qilgan. Mazkur o’zlashmaga milliy tilimiz ijodiy yonadashib, kundalik so’zlashuv tilimizda anchagina (*boyparast, oyparast, quyoshparast, qog’ozparast, qonunparast, qalamparast, e’tiqodparast, ruchkaparast, millatparast, dinparast, ilmparast, poraparast, pulparast*) attributiv qo’shma so’zlar yasab ulgurgan. Xorazm shevasi fors tiliga yaqinligi sabablimi

yoki eski xorazm tiliga aloqadorlikdanmi bu shevada kundalik hayotda sheva vakillari uchun umumtushunarli bo'lgan - *yoshulliparast, xotinparast, kadiparast, giyimparast, oltinparast, dollarparast, itparast, o'zimparast, otparast, aqlparast* misollari uchraydi.

Mazkur bahuviyliklar ichida **ma'nodosh** – **sinonimik** xarakterga ega bo'lgan – *molparast - mulkparast, haqparast – haqiqatparast, ishratparast – maishatparast, aqidaparast – e'tiqodparast, o'yparast – hayolparast, amalparast – mansabparast, oftobparast - quyoshparast*, bilan bir qatorda **zid ma'noli** - **antonimik** xarakterga ega bo'lgan *marifatparast –jaholatparast, ilmparast – pulparast* bahuviyliklari uchradi.

- a) *“Shuning o'zi yetar”- hayolidan o'tdi uning. Munis o'zi molparast edi. (O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri)*
- b) *“Jaholatparast XVIII asrda Parij atrofida qurilgan birinchi havo sharini majaqlab tashlaganlar.” (Gazetadan)*
- c) *“... nihoyat ochko'z, mulkparast bo'lgan.” (Oybek, Oltin vodiya shabadalar)*
- d) *“...vahhobiylik ko'rinishidagi aqidaparastlar xalqni qo'rquvga solib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik uyg'otish uchun turli jinoyatlar sodir etdilar.” (Gazetadan) [1-5j O'zb. T. Iz. Lug'.]*

Parast komponentli yig'ilgan misollardan “parast” so'zining ma'nosi asosan salbiy xarakter xususiyatli kishilarni nomlovchi bahuviyliklardir. Ularda: **1.Mol-mulkka qiziquvchilar** - *molparast, mulkparast, dunyoparast*; **2. Amal-mansabga qiziquvchilar** – *amalparast, mansabparast, unvonparast*; **3. Yengil hayot, kayf – u safoga qiziquvchilar** - *ishratparast, maishatparast, ayshparast, nafsparast*; **4. Shon, dong izlovchi** – *shuhratparast, shonparast, dongparast*; **5. Ayrim tabaqa vakillariga sig'inuvchilar** – *eshonparast, boyparast, yoshulliparast*; **6. Ayrim e'tiqod namoyandalari** – *dinparast, siyosatparast*; **7. Eskilik qoldiqlari tarafdorlari -ilm- marifat dushmanlari** – *jaholatparast, aqidaparast*; **8.**

Ichkilikka ruju qo'yg'anglar – *mayparast, bodaparast*; **9. Muayyan diniy oqim vakillari** – *o'tparast, otashparast, butparast, xochparast*.

Yuqorida keltirilgan misollardan “parast” so'zida izohli lug'atlarda keltirilgan biror narsaga moyil, biror narsani kuchli sevuvchi, hurmat qiluvchi ma'no xususiyatlariga qo'shimcha ravishda ayrim konnatativ ma'nolar ham anglashiladi. Bundan kishilarning biror narsaga mukkasidan ketgan, shu ko'zlagan narsasiga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydigan, tuban pastkashlik, maqsad yo'lida tubanlik, pastkashlik qilishga ham rozi yoki shu narsaning quliga aylanib qolgan ma'nolarini mushohada qilish mumkin. Kezi kelganda shuni ta'kidlash joizki, parast so'zi bilan uchrovchi bahuvrihilar orasida ijobiy ma'noda qo'llaniluvchi bor-yog'i ikkita misol uchradi va ular izohli lug'atlarda haqiqatga amal qiluvchi adolat tarafdori, haqni, rostlikni yoqlovchi ma'nolari bilan sharhlaniladi, lekin kundalik hayotda so'zlashuv tilida bu komponentli bahuvrihilarning negizida muayyan kishilar inobatga olinadiki, ular haqiqat yoki haqlik ostida kun ko'ruvchi yoki haqiqatni pesh qilib o'zining shaxsiy maqsadlariga erishishni ko'zlagan odamlarga piching qilinadi va yoxud ularning noo'rin harakati kinoyaga olinadi. Nainki, jonli tilimizda “*Sendaqa haqparastlarning ko'pini ko'rganmiz! Bu haqiqatparast qayerdan chiqdi o'zi!*” deyilgan taajub yoki hayratomus fikrlar orqali, ayrim haqiqatdan yiroq, haq ishidan uzoq shaxslarning so'z va ishlariga munosabat bildiriladi. Shu ma'noda, “parast” so'zi tilimizda ijobiy ma'nosini yo'qotib, salbiy ma'no kashf qilib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Parast komponentli bahuvrihilarning milliy tilimizga kirib kelishi tarixi bilan qiziqqanimizda, shu narsaga guvoh bo'ldikki, ular asosan o'zbek tilining taraqqiyoti bosqichlarida asosan keyingi yuz yilliklar bilan bog'liq, zero inventarimizda saqlanayotgan parast komponentli 50ga yaqin bahuvrihilardan faqat uchta buyuk bobomiz hazrati Alisher Navoiyning asarlari tilining izohli lug'atida uchradi. Ular mayparast, otashparast, oftobparast so'zlaridir. Ko'rgazmalilik uchun misol keltiramiz: mayparast – ichkilikka berilgan

Bodan ishqingdin et ko'nglumni mast,

Lek ul yanglig'ki bo'lg'ay mayparast,

Soqiyo, bu ishga behudlug'din o'zga yo'q iloj,

Mujda mug' kuyiga yetkurgilki, bo'ldum mayparast.

(Hazoyin-ul-maoniy)

Mazkur bo'limga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, parast komponentli bahuvrihilar tilimizda ko'p uchraydi. U bilan yasalgan aniqlovchili qo'shma so'zlar xalqimizga tushunarli va ular o'z so'zlashuv tilida sevib qo'llaniladi. Hatto mazku so'zning leksik va ko'chma ma'nolarini yaxshi anglagan oddiy xalqimiz ham, joiz topsa "parast" komponenti bilan shaxsiy- individual qo'shma so'zlar yasay oladi va buning qay ma'noda qo'llanilayotganini davrada qatnashayotgan suhbatdosh tezda anglaydi. Suhbat anglashilmovchilik keltirib chiqarmaydi. Masalan qimorbozlar tilidagi yoki ularni nomlash uchun qo'llaniladigan *itparast*, *qo'chqorparast*, *xo'rozparast* so'zlarini hech kim uchun izohlab o'tirishning hojati yo'q.

Xulosa

Qo'shma so'zlar va ularning alohida turi hisoblangan aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar, yoxud "bahuvrihi"larning o'rganilish tarixi mavzusi bo'yicha biz tanishgan adabiyotlar va olgan nazariy bilimlarimiz asosida milliy tilimizning izohli lug'atlari, fundamental qomuslari, matbuot sahifalari va so'zlashuv tili va xalq og'zaki ijodidan olingan misollarning morfologik- sematik tahlili bo'yicha shu narsani xulosa qilish mumkinki, bahuvrihilar dunyo tilshunoslari tomonidan astoydil tadqiq qilingan. Ayniqsa, Yevropa tilshunoslarining bu mavzu borasidagi ishlari e'tiborga loyiq. Chunonchi, ingliz va nemis tili mutaxassislari qo'shma so'zlarni klassifikatsiyasi va differentsatsiyasi, ya'ni ularni guruhlarga bo'linish imkonlari va o'zaro farqli tomonlarini ajratib o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratishgan va muayyan ilmiy to'xtamlarga kelishgan. Milliy tilimizda esa mazkur leksikologik vosita endi o'rganilayapti, uning bilan bog'liq termin va atamalar o'zbek tilshunosligiga endi kirib kelayapti. Mazkur mavzu va uning o'rganilishining tilimizda nisbatan "ochilmagan qo'riq" ekanligi hali o'zbek tilshunosligida qo'shma so'zlarning yetarlicha o'rganilmaganligidir. Taassuflar bilan tan olishimizga to'g'ri keladiki, tilshunoslarimiz haligacha qo'shma so'zlar va so'z birikmalarini yetarli ilmiy darajada tahlil qilishmagan. Qo'shma so'zlar va so'z birikmalari izohlari bir- birlari bilan aralashtirilib berilgan, natijada ular izohida ancha chalkashliklar mavjud. Buning ustiga o'zbek tilida so'z yasashida faol qatnashuvchi til birliklari, morfemalar – affikslar, affiksoidlar, so'z shakl yasovchi hamda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning xususiyatlari o'zaro farqli klassifikatsiya va differentsatsiya qilinmagan. Haligacha ilmiy adabiyolarda mazkur til birliklari turli mualliflar tomonidan turlicha izohlaniladi. O'zaro kelishuv yoki muayyan atamalar bo'yicha birgalikda to'xtamga kelinmagan.

Bunday va shunga o'xshagan tilimizdagi turli nazariy qarashlar va bu qarashlarga tayanib turlicha qilingan amaliy ishlar yuqoridagi masalalarni ko'p hollarda ochiq qolib ketishiga olib kelgan. Shu ma'noda, attributiv qo'shma so'zlar- bahuvrihilar o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilmagan. Mazkur ilmiy tadqiqot ishimizda

yig'ilgan misollar va ularning morfologik, semantik tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy tilimiz bahuvrihilariga o'ta boy til. Xalqimiz bu leksikologik vositaga o'ta ijodiy yondashgan va hayotlarida ulardan amaliy faol foydalanib kelishgan. Mazkur mavzuning ilmiy- amaliy talqiniga o'tishdan oldin shu narsani ta'kidlash lozimki, milliy tilimiz dunyo tillari orasida bahuvrihilariga eng boy tillardan biri hisoblanadi. O'zbek xalqi o'z zamondoshlarini ijobiy va salbiy baholashda bu leksikologik vositadan keng foydalanadi. Ma'lumki, inson tabiatning oliy mahsuli sifatida keng qirrali mavjudotdir. U hayotda o'z o'rnini topaman, baxtli yashayman- yaxshi yeyman, yaxshi ichaman, yaxshi kiyinaman (sovuq qotmayman, issiqqa pishmayman), oila quraman, farzand tarbiyalayman, boshpana barpo etaman, daraxt ekaman, tabiatni o'zgartiraman va yangi narsalarni yarataman degan niyat va maqsadlar bilan o'zini turli yo'llarga uradi va turli qiyofalarga kiradi. Va o'z navbatida zamondoshlari tomonidan ishga, hayotga, tevarak atrofga ko'rsatgan va ko'rsatayotgan munosabati bilan yaxshi-yu yomon baholanadi. Insonga xuddi shu baholar berishda va uning xarakter-xususiyatlarini belgilashda bahuvrihi juda qo'l keladi. Shu ma'noda, bahuvrihilar har bir insonning kimligini, uning xarakterli xususiyatlarini (*toshbag'ir, ochko'z, shirinsuxan*), tashqi ko'rinishi (*kaltabaqay, novchadaroz*), ichki hislarini (*alamzada, jabrdiyda*), kiyimlari (*kaltayubka, uzunko'ylak*), tashqi tana a'zolari (*kalbosh, xumkalla, kaltasoch, olako'z, shalpanquloq, tanqaburun, kampirধানার*), ichki tana a'zolari (*jigargo'sha, toshbag'ir*), qiliqlari (*ishbuzar, ikkiyuzlamachi*), dunyoqarashi (*nukatadon, kaltafahm*), fe'l-atvori (*kamgap, badniyat, xushtabiat*), kayfiyati (*shirindimog', xushkayf, badmast*), tevarak atrofdagilarga munosabati (hayotda, oilada, o'qish ish joyida, ko'chada, jamoat joylaridagi shaxsning o'zini tutishi, xarakteri) va umuman insonni xarakterli imkoniyatlarini tasvirlashda keng qo'llaniladi.

Inventarimizda yig'ilgan bahuvrihilarining ingliz tili bilan qiyosi shuni ko'rsatdiki, milliy xalqimiz yaratgan va muloqotda faol foydalanib kelayotgan bahuvrihilarining ko'pchiligiga inglizcha muqobil topilmadi. Ularning barchasini

o'z ma'nosida ingliz tiliga tarjima qilish mumkin, biroq o'zbek tilidagi metaforik, metonimik ma'noli bahuvrihilar mos ekvivalent topilmadi yoxud ularning inglizcha fundamental lug'atlarda ham qaydi yo'q. Shu bois ilovada berilayotgan o'zbekcha-inglizcha bahuvrihilar ro'yxatida o'zbekcha bahuvrihilar ma'nosi berildi va ularning ko'pchiligi mualliflar tomonidan qilindi. Shu boisdan tadqiqot ishining uchinchi bobida bahuvrihilar asosan o'zbek tilida morfologik va semantik jihatdan tahlil qilindi. Ishimizning asosiy xulosasi deb shu narsani ta'kidlashni istar edikki, o'zbek tili lug'at tizimi bag'oyat boy va uning ifoda qudrati nihoyatda kuchlidir. Shu boylik va shu qudratga o'z xissasini qo'shayotgan va uni muloqotda doimo namoyon qilayotgan leksikologik vositalardan biri- aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar, yoxud bahuvrihilar bundan- da kengroq va bundan-da ilmiyroq o'rganilishni talab qiladi va u dunyo sahnasiga shahdam va dadil qadamlar bilan chiqib kelayotgan xalqimiz va tilimiz uchun hech qachon katta foydadan holi bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbek tili adabiyotlari

1. I. A. Karimov, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", Toshkent- Ma'naviyat- 2008- 83b.
2. I.A. Karimov 1875-son qarori,—Xalq so'zi gazetasi,11.12.2012y., 240 (5660) son
3. A. Baxranov, B. Shamsiyev, "Hozirgi o'zbek adabiy tili: repetitor va abituriyentlar uchun uslubiy qo'llanma". – Toshkent- 2016 – 293b.
4. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh, Yusupova, "Hozirgi o'zbek adabiy tili", Toshkent- 1995 -337b.
5. Baxtiyor Mengliyev, O'ral Xoliyorov, Nilufar Abdurahmonova, "O'zbek tilidan universal qo'llanma", Nazariy ma'lumot asosiy tushuncha lug'at, 5-nashr, Toshkent: "Akademnashr"-2016 – 137b
6. E. Qilichev, "Hozirgi o'zbek adabiy tili: o'zbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi uchun qo'llanma – Buxoro, 2005. – 136b.
7. H. Jamolxonov, "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Talqin", Toshkent - 2005- 138b.
8. H.Ne'matov, R. Rasulov, "O'zbek tili sistem leksiklogiyasi asoslari", , Toshkent: "O'qituvchi" – 1995- 50b.
9. N. Erkaboyeva, "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami", Toshkent: "Akademnashr"- 2015- 133b.
- 10.R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z.Yunusova, M. Abuzalova, "Hozirgi o'zbek adabiy tili", Toshkent- 2009.- 307b.
- 11.G'. Abdurahmonov, S. Mamajonov., "O'zbek tili va adabiyoti", Toshkent: "O'zbekiston" - 2002. – 50b.
12. G'. Abdurahmonov, D. Xo'jayeva., "Hozirgi o'zbek adabiy tili", Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi, – 2005 – 165b.

13. Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova va boshq. "Hozirgi o'zbek adabiy tili: pedagogika institutlari filologiya fakulteti studentlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi- 1980 - 186b.
14. Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov; "Hozirgi o'zbek adabiy tili", I qism, Toshkent: "O'qituvchi", 1989 – b.

Ingliz tili adabiyotlari

15. Adams, Valerie 2001, "Complex Words in English", Harlow: Longman.
16. Antonietta Bisetto and Sergio Scalise "The classification of compounds"
17. Aronoff, Mark 1976, "Word Formation in Generative Grammar", Cambridge: MIT Press.
18. Bauer, Laurie & Antoinette Renouf 2001. "A corpus-based study of compounding in English". Journal of English Linguistics 29: 101-123.
19. Bauer, Laurie. 1983. "English Word-formation". Cambridge: Cambridge University Press.
20. Bauer, Laurie. 2004. "English Exocentric & Endocentric Compound". Cambridge: Cambridge University Press.
21. Bauer, Laurie. 2004. "Adjectives, compounds and words". Nordic Journal of English Studies 3/1 Worlds of Words: A Tribute to Arne Zettersten: 7-22.
22. Bloomfield, Leonard 1935. "Language". London: Allen & Unwin.
23. Booij, Geert 2002. "The Morphology of Dutch". Oxford: Oxford University Press.
24. Carstairs- McCarthy, Andrew. 2002, "An Introduction to English Morphology: Words and Their Structure". Edinburg: MPG books Ltd.
25. Conti, Sara. 2007. "Compound Adjectives in English: A descriptive approach to their morphology and functions": Italia. UNIVERSITÀ DI PISA
26. Corel Ventura, "Compound Words". 2004: 71- 95

27. Fabb, Nigel .1998. “Compounding ” A.Spencer and A.M.Zwicky. The Handbook of Morphology, Blackwell.
- 28.Fabb, Nigel. 1998. “Endocentric compound ” A.Spencer and A.M.Zwicky. The Handbook of Morphology, Blackwell.
29. Haspelmath, M. (2002), “Understanding Morphology”, London, Arnold.
30. Marchand, Hans 1969. “The Categories and Types of Present-Day English WordFormation”. 2nd edn. Munich: Beck.
31. Maria Perkles “Compounds in English and Russian: A comparative analysis”, Wien, Oktober 2008, Vienna.
32. Plag, Ingo. 2002, “Word-formation in English”. Cambridge University
33. Scalise Sergio & Irene Vogel (eds.) (2010), “Cross-Disciplinary Issues in Compounding”, Amsterdam, Benjamins

Rus va nemis tillari adabiyotlari

34. В.В.Виноградов, Словообразование и его отношение к грамматике и лексткологии. Сб. «Вопросы теории и истории языка.» изд АН СССР,М 1952 .
35. В.В.Виноградов, Словообразование имен существительных. «Грамматика русского языка», т. I, изд. Института языкознание АН СССР, 1952 (изд. 2-е, 1960) .
36. Г.О.Винокур, О некоторых явлениях словообразования в русский технический терминологии. «Труды Моск. Ин-та истории, философии и лит-ры», т. V. Сб. статей по языковедению. М., 1939.
37. Кубрякова Е. С, О типах морфологической членимости слов, квази морфах и маркерах. В «Вопросы языкознания» 1970.
38. Кубрякова Е. С, Что такое словообразование. Москва, 1965.
39. Lieber, Rochelle & Pavol Štekauer, The Oxford Handbook of Compounding, eds. 2009. Oxford: Oxford University Press.
40. Kortmann, Bernd: English Linguistics: Essentials, Cornelsen, Berlin -2005.
41. A.Iskos, A. Lenkova, “Deutsche Lexikologie”, Leningrad- 1970.

Lug'atlar ro'yxati

1. “O'zbek tilining izohli lug'ati”- A.Madvaliyev tahriri ostida, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti –Toshkent -2006-2008 1-jild
2. “O'zbek tilining izohli lug'ati”- A.Madvaliyev tahriri ostida, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti –Toshkent -2006-2008 2-jild
3. “O'zbek tilining izohli lug'ati”- A.Madvaliyev tahriri ostida, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “Davlat ilmiy nashriyoti –Toshkent -2006-2008 3-jild
4. “O'zbek tilining izohli lug'ati”- A.Madvaliyev tahriri ostida, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti –Toshkent -2006-2008 4-jild
5. “O'zbek tilining izohli lug'ati”- A.Madvaliyev tahriri ostida, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti –Toshkent -2006-2008 5-jild
6. Toshkent -1983, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati”.
7. Shavkat Butayev, Abbos Iriskulov – Ingliz o'zbek- o'zbek ingliz lug'ati- 70000 so'z va ibora. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti – 2009.
8. “Cambridge Advanced Learner's Dictionary”- Cambridge University Press – 2008, Produced for Cambridge University Press by Arnada .
9. Nosir Qambarov, “O'zbekcha- inglizcha lug'at: ijtimoiy-siyosiy so'zlar, birikmalar va atamalar”, Tahkent: “Yangi nashr”-2015.
10. Wiktionary. Org “The English Dictionary” online dictionary.

Badiiy adabiyotlar ro'yxati

1. A.Abdurazzoq, “Qo'qonning qizlariga”; A.Oripov, “Hayrat”; A.Qahhor, “Maston”, “Sarob”; A.Qodiriy, “Mehrobdan chayon”, “O'tgan kunlar”; A.Hakimov, “Ilon izidan”; A.Ubaydullayev, “ Hayot oqimi”; A.Ibodinov, “Latofat” do'konidagi qatl;
2. B.Rahmonov, Yurak sirlari;
3. “Erali va Sherali”, E. Vohidov, Muxabbat E. Usmonov, Yolqin.

4. F. Musajonov, Himmat; “Fan va turmush”.
5. “Gulshanbog”.
6. Hamza, “Boy ila xizmatchi”, Habibiy, “Devon”; H.G’ulom, “Mash’al”, H.Nazir, “Indamas”, “So’nmas chaqmoqlar”, “Vasiyat”.
7. I.Rahim, “Hayot buloqlari”, “Chin muhabbat”.
8. J.Sharipov, “Xorazm”, J. Abdullaxonov, “To’fon”, “To’yga kelinglar”.
9. K. Yashin, “Hamza”.
10. L.Osim, “Elchilar”
11. Mirtemir, “Asarlar”, Mirmuxsin, “Me’mor”; M.Ismoilov, “Farg’ona t.o”; M.Osim, “O’tror”, M. To’ychiyev, “Qo’shoqlar ichida boshloqlar”, “Mushtum”, “Malikai ayyor”, M.O’rinxo’jayev, “Unutilmas kunlar”, M. Rizo,” Qor yog’di izlar bosildi”, M.Xayrullayev, “Tilla marjon”.
12. N.Maqsudiy, “Laylatulqadr”, N.Safarov,” Olovli izlar”, N. Rahmatov, “Betayin ovchilar”, N.Fozilov, “Diydor”.
13. Oybek, “Navoiy”, “Tanlangan asarlar”, “Bolalik”, “Quyosh qoraymas”, “Nur qidirib”, “O.v.shabadalar”, O. Yoqubov, “Tilla uzuk”, O.Yoqubov, “Bir fel’yeton qissasi”.
14. P. Qodirov, “Uch ildiz”, “Yulduzli tunlar”, P.Tursun, “O’qituvchi”.
15. “Qobusnoma”.
16. R.Fayziy, “Hazrati inson”.
17. S. Ayniy, “Esdaliklar”, “Qullar”, S.Karomatov, “Bir tomchi qon”, S.Siyoyev, “Avaz”, “Yorug’lik”, S. Abdulla, “Sirlar”, S. Zunnunova, “Go’dak hidi”; S.Anorboyev, “Oqsoy”, S.Ahmad, “Qadrdon dalalar”, S. Nurov, “Maysalarni ayoz urmaydi”.
18. T. Malik, “Qaldirg’och”, “Toxir va Zuxra”, S. Abdulla, “Sirlar”, T, Qahhor, “Oq o’rik”, T.Obidov, “Yusufjon qiziq”, T.To’la.
19. Uyg’un, “Tong qo’shig’i,” “Laqma”, U. Hayyom, “Ruboiylar”, Uyg’un va I.Sulton, “A.Navoiy”.

20. X.To'xtaboyev, "Yillar va yo'llar", X.Sultonov,"Bir oqshom ertagi",
"Onamning yurti", X. G'ulom, "Zamin yulduzlari", X.Rasul, "Baxt na'shasi".
21. Yoshlik, "Yodgor".
22. Z. Fatxullin, "So'nmas yulduz", "Zulfizar bilan Avazxon".
23. O'. Hoshimov, "Ikki eshik orasi", "Qalbingga quloq sol", "Nur borki soya
bor", O'. Umarbekov, "Yoz yomg'iri", O'ktam, Oybek, "O.v.shabadalar".
24. G'.G'ulom, "Shum bola", G'ayratiy.
25. Shuxrat, "Shinelli yillar", "Shirin bilan shakar", "Sharq yulduzi",
Shukurullo, "Javohirlar sandig'I", Sh. Xolmirzayev, "Qil ko'prik", Sh.
Ubaydullayev, "Qishloq ulug'lari".

Veb-saytlar ro'yxati:

- a. [http:// www. Google. com// Wikipedia, the free encyclopedia.html](http://www.Google.com/Wikipedia,the%20free%20encyclopedia.html)
- b. [http://google.uz/Useful English Stress in Compound Words.html](http://google.uz/Useful%20English%20Stress%20in%20Compound%20Words.html)
- c. [http: // www.rusnauka.com/Article // Filology/ 7-10/59.html](http://www.rusnauka.com/Article//Filology/7-10/59.html)
- d. [http: //gazeta.ksu.ru / f10/publications/ 2004/rsf_conf_8.php](http://gazeta.ksu.ru/f10/publications/2004/rsf_conf_8.php)
- e. [http: // www. vspu.ru / ~axiology/ vik/ vikart 2 htm](http://www.vspu.ru/~axiology/vik/vikart2.htm)
- f. [http: // www.grammar.ru](http://www.grammar.ru).
- g. [http: // www. philology. Ru](http://www.philology.Ru)
- h. www.ziyonet.uz